TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SOBIR RUSTAMXONLI

RAMIZ RAVSHAN

69

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SOBIR RUSTAMXONLI

RAMIZ RAVSHAN

69

“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.162-1
KBK 84(5Ozar)-5
S 74

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Tohir Qahhor, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi

Karim Bahriyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8733-6-0
©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

SO‘ZIDAN QON HIDI KELGAN SHOIRNING OG‘ZIDAN SUT HIDI KELAR, BILAMAN...

Shoir, publitsist, olim va jamoat arbobi Sobir Rustamxonli (Sabir Rüstəmxanlı) 1946-yilda Yordamli tumanining Hamarkent qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘rta maktabni bitirgach, Boku Davlat universitetining filologiya bo‘limida o‘qigan. “Qishloq yo‘li” degan ilk she’ri 1964-yilda “Ozarbayjon yoshlari” gazetasida bosilgan. “Adabiyot va injasan’at” gazetasida, “Yozuvchi” nashriyotida bosh muharrir, Ozarbayjon Respublikasi Davlat matbuot qo‘mitasida rais bo‘lib ishlagan (1967–1993).

1990-yilda deputat bo‘lib saylandi; u “Vatandosh hamraylish” partiyasi raisi, Milliy Majlis deputatidir. Qirq yildirki, u o‘z she’rlari, o‘tli publitsistik asarlari, adabiy-ilmiy maqolalari bilan Ozarbayjon adabiyoti va jamiyatining rivojlanishiga, o‘z xalqi milliy tushunchasining shakllanishiga, yuksalishiga xizmat qilib kelmoqda.

Uning “Tanimoq istasang” (1970), “Sevgim, sevinchim” (1974), “Xabar kutib” (1979), “Tanja qapusi” (1981), “Yasha, ona tilim” (1983), “Qon yoddoshi” (1986), “Umr kitobi” (1989), “O‘lganda bayroqqa o‘ralurmen”, “Ichimdagi dard og‘ochi”, “Bu yurt menga tanish”, “Zamon mendan kechar” (1995) kabi yigirmadan ortiq kitoblari bosilgan. Bu asarlarning ko‘pchiligi rus, turk va boshqa chet tillarga tarjima qilingan. Ayniqsa, “Umr kitobi” bir necha turkiy tillarga o‘girilgan va Ozarbayjondagi kitobxonlar mehrini qozongan.

Sobir Rustamxonli shoirlikning missiyasini zulmga qarshilik, mazlumning tomonida deb shunday tushunadi:

Sizlar kuladirsiz, men g‘am toshiman,
Har siniq ko‘ngilning suhbatdoshiman,

Shu bilan birga, shoir fikriga ko‘ra, Vatan shahidlar qoni bilan bunyod bo‘lgandir, unda tosh qalb yashashi mumkin emas, millat qo‘rquvdan xalos bo‘lmas ekan, taraqqiy qila olmaydi:

Yondir, shahid qoni, bu toshni yondir!
Bu toshga aylangan qardoshni yondir!
Yo tamom yo‘q ayla, yoki uyg‘ontir,
Bu uzun jaholat uyqusi bitsin,
Bitsin, bu millatning qo‘rquvsi bitsin!

Albatta, kurashlar qurbonsiz bo‘lmaydi:

Tobut ko‘tarmoqdan yelkamiz yara,
Qalbimiz qonadi g‘am ko‘tarmoqdan.
Bu qandoq dunyodir, charchadik, Alloh,
Ham ekib, ham bichib, ham ko‘tarmoqdan.
She’r yozganing kim-u, yer qazganing kim,
Majol bermadiki, Azroil — qochmoq.
Bir yerga yig‘ilsa, bir tog‘ bo‘lardi
Do‘stlarim qabriga to‘kkanim tuproq.

Milliy uyg‘onish millat borligi va xavfsizligining kafolatidir. Dunyoga kelgan har avlod ruhan va qalban uyg‘onishi lozim:

Uyg‘on, ey turkning o‘g‘li, ko‘r, sarhading qaydadir,
Bir yuksaklik dunyong bor, zirvalari qordadir,
Yolg‘iz qardoshlaring yo‘q, tog‘laring ham dordadir,
Million sirning ochari ko‘zlarni xush ko‘rardik,
Ey g‘urbatning tog‘lari, sizlarni xush ko‘rardik!

* * *

Ramiz Ravshanning ilk kitobi 1970-yilda bosilib chiqqan. Ilk kitobga so‘zboshi yozgan Akram Aylisli shunday ta’kidlagandi: “Ramiz Ravshanning yigirma uch yoshi bor. Buni aytmasak ham

bo'lardi. Ammo masala shundaki, Ramizning she'rlari va uning yoshi orasida ajib bir uyg'unlik bor..."

Ramizning ikkinchi kitobi oradan o'n yetti yil o'tgach, 1987-yilda dunyo yuzini ko'rdi. Unga so'zboshi yozgan Komil Vali shunday ta'kidladi: "Endi Ramizning qirq yoshi bor... Ammo "Ko'k yuzi tosh saqlamas"dagi she'rlar endi Ramizning yoshiga ayni emas. Ular yo juda yoshdir, yo juda qaridir... Men Ramizning she'rini o'z so'zim kabi bemalol onamga o'qib bera olaman. O'g'limga vasiyat qilaman. Umrimni bu she'rlarda yashayman".

Ramizning metaforasi she'rning bo'y-bastichadir, ilhomining jonida, ruhida, majozidadir, har she'ri mukammal bir majoziy tamsilga aylanish darajasidadir.

Ko'zimizning qobog'inda Ramizning yozganlari uning yaratganlariga aylanadi, biz bu dunyoni bir bora va abadiy sevib qolamiz, bu dunyoga qaytib kelmasligimizni unutamiz, abadiylikni yurakdan his qilib nafas olamiz. Bu nafas ham bizning she'rimizdir. She'rga aylanmagan dil so'zlarimizdir.

Ramizning she'riyati o'zlikni anglash sari yo'lda tug'ilgan she'rlardir. U dunyodan fojiaviy tarzda zerikkandir: "Axir, bundoq kim zerikar — Og'zimda tilim zerikar, Cho'ntakda qo'lim zerikar. Yo'limga qizlar chiqsalar, Yoqamga bir gul taqsalar, Yoqamda gulim zerikar... Bu qayg'uning bormi cheki, Bu na g'amdir dunyodaki?! Bilaman, menga ko'z tikib, Qaydadir o'lim zerikar". U dunyoga chiziq tortadi-da, ko'z ochib ko'rganlaridan toriqa-toriqa onasiga: "Meni qaytarib ichingga ol", — demoqqacha boradi.

U "Ko'zgu"ga tikilarkan, ko'zgu chatnab parcha-parcha sinadi — u o'zini bundoq ko'rgisi kelmaydi. Bir tomondan, dunyo uni qaritdi, ikkinchi tomondan, dili yoshdir. Orzulari ko'kka tortadi, oyog'i esa yerga botgan: "Naqadar so'zlar bor so'zimdan yoshroq, Endi chaqirmoqqa nafasim kelmas. Endi bu dunyoda o'zimdan yoshroq She'rlarni yozmoqqa havasim kelmas". Ammo tiriklik va o'lim yonma-yondir, uning chegarasi yolg'iz Allohga ayondir. Biroq shoir shuni biladiki, o'limdan insonni yulib oladigan narsa

ilhom to‘lg‘og‘ida tug‘ilgan so‘zdir: “So‘ng nafas dunyoda har nedan shirin, Shoir ham qariydi, o‘lar, bilaman. So‘zidan qon hidi kelgan shoirning Og‘zidan sut hidi kelar, bilaman...”

Shoirlarning she’rini sharhlashga, tushuntirishga urinish anglanmasdir, kulgilidir. Ularni mutolaa qilish kerak. Ular o‘zini o‘zi tushuntiradi. O‘zini o‘zi himoya qiladi.

Karim Bahriyev,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi,
shoir va tarjimon

SOBIR RUSTAMXONLI



TOG‘LAR

Yuksakdan yo‘l solib, o‘rdan oshmadim,
Qo‘rqdim, ahdimizni buzarsiz, tog‘lar.
Sizga mos she’r bitib, qaynab-toshmadim,
U she’rni o‘zingiz yozarsiz, tog‘lar.

Qo‘shiq aytay desam, kelmaydir sasim,
Endi yo‘l yurishga yetmas nafasim,
Orqaga qaytishga yo‘qdir havasim,
Qabrimni qoyada qazarsiz, tog‘lar.

Oq tuman ko‘ringay bayrog‘im kabi,
Sharshara tinmagay so‘rog‘im kabi.
Oyni, yonib turgan chirog‘im kabi
Kechalar ustimga osarsiz, tog‘lar…

SORBON

Bu yo‘llarda men bir sorbon,
Karvonimga hurganni ko‘r!
Yaxshiligim Haqqa ayon,
Yomonligim ko‘rganni ko‘r!
Egri qarab do‘st-yoriga,
Harom qo‘shib bozoriga,
Yurtning tarix — mozoriga
Kirib, toptab yurganni ko‘r!
Vatan bog‘i chechak ochar,
Chechagimiz yog‘du sochar...
O‘zi ekmay, har yebqochar
Bog‘bon kabi turganni ko‘r!..

SAQLASIN

Yo‘l topolmay, yuz tutarmen Tangriga,
Ishimizni so‘zimizdan saqlasin.
Bu bir darddir, kim tuymasa, u tuyar,
Bir ozganni yuzimizdan saqlasin.
Tepamizni tog‘lar shohi deb bildik,
Kulbamizni saroydir deb lof qildik.
Ochko‘z bo‘ldik, do‘st haqqini ham yuldik,
Ko‘z tekkanni ko‘zimizdan saqlasin.
Haq istagan yarasiga tuz qo‘ydi,
Nafsin yomon ko‘rgan uni bot tiydi,
Ilk hosildir, pok niyatdir, pok uydir —
Ko‘cha ko‘rgan izimizdan saqlasin.
Ming uy isir bir o‘choqning qo‘riga,
Yuz mard tushar bir nomardning to‘riga,
Qo‘shin kerak —
har sotqindan qo‘rigay,
Ko‘pimizni ozimizdan saqlasin.
Umrni qo‘l qildi bahsga bahsimiz,
G‘iybat so‘qdik bo‘g‘ilganda sasimiz,
Belimizga ko‘p yuk qo‘ydi nafsimiz,
Qornimizni og‘zimizdan saqlasin.
Ters boqishdan og‘u tomar cho‘rakka,
Sovuq so‘zdan shayton kirar yurakka,
Yolg‘iz qoya uzra tuman tez cho‘kar,
Sevgimizni nozimizdan saqlasin.
Uy qurgan men, qo‘shnim quduq qazgandir,
O‘ng qo‘l yasab, chap qo‘l uni buzgandir,
Boshqasiga javob bermoq osondir —
Olloh bizni o‘zimizdan saqlasin!..

QISMATIM

Oramizda Oraz bo‘lding,
Kechadirman baxtim, seni!
Tuban yerdan olib, ko‘kka
Uchadirman, baxtim, seni!

Zamonlarning oqishinda
Zolimlarning yoqishinda,
Qardoshlarning boqishinda
Quchadirman, baxtim, seni!

Qirg‘oqsiz bir nahr bo‘lsang,
Quyoshsiz bir sahar bo‘lsang,
Dunyo to‘la zahar bo‘lsang —
Ichadirman, baxtim, seni!

OTI GO‘ZAL

Oting — yuragimni bezagan orzu,
Otingday go‘zal, sho‘x bo‘la olsang, kel!
Bahori vafosiz o‘tgan umrimga
Yangi bahor bo‘lib kela olsang, kel!

Yuragim ingraydir, zamondan horg‘in,
Keraksiz tashvish-u gumondan horg‘in.
Umrimning ko‘zi ham tumandan horg‘in,
U tuman pardasin yula olsang, kel!

Hijron yo‘ldosh, yo‘lga qayg‘u uzandi,
Baxtsizligim ko‘rib, baxtim o‘sandi.
Tole kuldirganda, kulmoq osondir,
U yig‘la deganda, kula olsang, kel!

Bir kuni o‘limim qo‘limdan tutgay,
Mindirar falaklar hurkitgan otga;
Qabrimda ruhimdek ko‘kargan o‘tga
Ko‘z yosh to‘kib, uni silay olsang, kel!..

MIKOIL BAXSHI

Eshigingni qoqdik, Mikoil bobo,
Ustoz oyog‘iga kelganlardanmiz.
Dedilar, ko‘z yoshi qurimas aslo,
Qardosh yoshin arta bilganlardanmiz.

Ming bir dardimizning davosi sozing,
Hayot eshigini ochar har so‘zing,
Boshingga toj bergan tolemi, o‘zing?
Millat shoni! Senga yelganlardanmiz.

Ustingdan falakning to‘foni ezar,
Mardliging Eronni, Turonni kezar,
Kishining ishi ham o‘ziga mengzar,
Bir mayizni halol bo‘lganlardanmiz.

Odilni chaqirding, javob kelmadi,
Bu zindon dunyoda yuzing kulmadi,
Qayg‘ungga sevingan g‘ofil bilmadi,
Bizlar ham oxirda kulganlardanmiz.

Kumush sochlaringni chulg‘ab saharga,
Yuz yilning tizzasin tekkizding yerga,
Haqqa topinganlar tosh qo‘ygan qirga,
Biz ham bosh qo‘yguncha o‘lganlardanmiz.

CHIDOLMAYMAN

Erkin o‘sgan tog‘ o‘timan,
O‘rganga hech chidolmayman.
Achchiq so‘z-la jon achitib
Turganga hech chidolmayman.

Kesib yolg‘on qo‘li bilan,
Osib talon yo‘li bilan,
Holim ilon tili bilan
So‘rganga hech chidolmayman.

Yo‘limizni bura-bura,
Ko‘ksimizni yora-yora,
Suyakdan ko‘shk qura-qura
Yurganga hech chidolmayman.

Mol yig‘aver, yo‘ldan ozgan,
Biroq o‘lim qabring qazgan.
Ey baxtimni qora yozgan,
Qorangga hech chidolmayman!...

Orzularim yonar bir o‘t,
Orzularim o‘sar bir o‘t,
Dunyo iti, naridan o‘t,
Hurganga hech chidolmayman!...

1985-yil

SO‘ZING QOLDIMI?

Men bilan har yerda tortishma, sotqin,
Haqdan so‘ylamoqqa so‘zing qoldimi?
Sotding bu millatning paxtasin, neftin,
Bozorga solgani bo‘zing qoldimi?

O‘zga qo‘g‘irchog‘i, o‘zga sasisan,
Asillar tinganda, aks sadosisan,
Qo‘ldan qo‘lga o‘tgan pul qog‘ozisan,
O‘z ranging qoldimi, yuzing qoldimi?

Elni parchalading, malaysan yotga,
Sen ham zamon qilgan bir yanglish, xato.
Aql maydonida pul o‘tmas, otam,
Tikka olishmoqqa tizing qoldimi?

Yovni sevintirding, bizni bo‘zlatding,
Yotga gul uzatding, menga tosh otding,
Millatning o‘tini dushmanga sotding,
Endi isinmoqqa ko‘zing qoldimi?

Kelgan farmonlarga har jumlang to‘la,
G‘o‘daygan, shu kunga qoldingmi? O‘l-a!
Pok vijdon so‘zini og‘zingga olma!
Boshdan ayrilgansan, esing qoldimi?

Sizlar kuladirsiz, men g‘am toshiman,
Har siniq ko‘ngilning suhbatdoshiman,
Men qoya yozuvi, qon yoddoshiman,
Boq, milliy yo‘llarda izing qoldimi?

SINMA

G‘am yurakni qish etar.
G‘amni ko‘klar eshitar.
Bu ham Alloh ishi-da,
Tonma, qardoshim, tonma!

Boy berganim bu chog‘dir,
Nomard, sotqin qochog‘dir.
O‘zing qazgan o‘chog‘dir,
Yonma, qardoshim, yonma!

O‘z yo‘limiz shul emish,
O‘z ruhimiz qul emish,
O‘ng qo‘limiz so‘l emish,
Aldanma, sen aldanma!

Endi ko‘z yoshing artgil,
Endi har yo‘lingni bil!
Chumolini yana fil —
Sanab, qo‘rqib, pislanma!

Tulki kelar qasdingga,
Qarg‘a kelar po‘stingga,
Dunyo kelar ustingga —
Sinma, qardoshim, sinma!

1994-yil

XALIL RIZO

(Marsiya)

Qirq yil o‘z kafaningni o‘z bo‘g‘zingda tashiding,
Ko‘ksingni xandaq etding, xandaqlarda yashading,
Menga faqat do‘st emas, qoni bir qardosh eding,
Daftari o‘choqtoshi, yo‘l toshi Xalil Rizo!
Nasimiyning, Jovidning yo‘ldoshi Xalil Rizo!

Yog‘iy o‘ydi ko‘zlarni Kalbajarda, Lochinda,
Xalq ikki yo‘l boshinda, Vatan olov ichinda,
Millatning botir so‘zi qalamining uchinda,
O‘lkasiday so‘zi qon, ko‘ksi qon Xalil Rizo!
Tiriklay shahid yurgan qahramon Xalil Rizo!

Yurak to‘zmas, bu yurtni bo‘ldi chala-yarimlar,
Ko‘zida g‘am bulog‘i, ko‘zida yildirimlar,
Tobutda ham Tabriz deb hayqirar — tinglar kimlar...
Qalam-la tosh sindirgan, tog‘ yorgan Xalil Rizo!
Tabrizdan, Qorabog‘dan nigoron Xalil Rizo!

Bolalarday soddadil, dohiyday ruhi sinmas,
Egri do‘stdan ezilib, tog‘ bossa-otib, tinmas,
Terisi shilinsa-da iymoni hech shilinmas,
Karvon chekmagan dardni chekkan bir Xalil Rizo!
Boshni millati uchun tikkan bir Xalil Rizo!

Endi uncha farqi yo‘q ne yaxshilik, yomonlik,
So‘zning yo‘li mangulik, umr yo‘li bir onlik,
Senga makon berarkan, shon topdi qabristonlik,
Kulgusi o‘zini-da kuldirgan Xalil Rizo!
Bardoshi o‘limni ham o‘ldirgan Xalil Rizo!

Yuragini siqardi o‘rgimchaklar dunyosi,
Qo‘rqoqlar, sotqinlarning qafasi tor dunyosi,
Dushmanga fursat bergan kunning murdor dunyosi,
Qalamida jahonni silkitgan Xalil Rizo!
Ummondek to‘lqin otib, hurkitgan Xalil Rizo!

Terding Turon chechagin Turkistonlar sasindan,
Oltoydan Oqdengizga yurishlar havosindan,
Ozodlik ruhing uchdi umring tor qafasindan,
O‘tim, o‘t qo‘riganim, Uluturk Xalil Rizo!
O‘limidan tug‘ilgan, ey buyuk Xalil Rizo!..

TOPSHIR MENI

Tag‘in ruhga qayg‘u to‘lar,
Yog‘iy tilar, zamon talar.
Balki qo‘ling malham bo‘lar,
Qo‘llaringga topshir meni!

Men naslimning kurashiman,
Qilichiman, ko‘z yoshiman.
Yolg‘iz qolgan oqqushiman,
Ko‘llaringga topshir meni!

Dunyo hushsiz, mozor ekan.
Sevgan ko‘zga sanchar tikan.
Go‘daklarning “Ota!” degan
Tillariga topshir meni!

BOQA OLMADIK

Qarg‘andikmi, sehrlandik —
Tilsimdan chiqa olmadik.
Yuraklarga iblis kirdi,
Yurakni yiqa olmadik.

Dunyo quch deb qo‘l berilgan,
Ne’matimiz mo‘l berilgan,
Boshdan ming-ming yil berilgan,
Biriga sig‘a olmadik.

Ko‘z ko‘rolmas qosh deganni,
Xushlamaymiz xush deganni,
Qo‘l berib, qardosh deganni
Qo‘lini siqa olmadik.

Tarix tuymas sasimizni,
Yer unutar izimizni.
Sha'r qoraytmish yuzimizni,
Ollohga boqa olmadik…

TUG‘ILGAN KUNIM

Balkim ming yil yoshli, o‘n ming yil yoshli
Sirli bir ma’noning ortinda bu kun.
Tog‘larga kelibman yolg‘iz, kimsasiz,
Tug‘ilgan kunimni qutlamoq uchun!

Yurak odamining ishlari mushkul,
Ko‘zlarda ko‘z bo‘lgan teranlik qolmas.
Usiz ham o‘tadi do‘st majlislari,
So‘zlarda avvalgi shirinlik qolmas.

Tanho zirvalar-la aytay bir boshdan,
Meni tog‘lar otdi birdan hayotga.
Ko‘ray, cho‘qqilarning holi qanaqa?
Tura oldilarmi tik muzofotda!..

Ismimni ko‘ksiga naqsh aylagandim,
Bilmadim, og‘rig‘i tingandir qay on?
Salom, chinor do‘stim, tilim tutildi,
Sening yaproqlaring kuylarmi hamon?

Agar imkon bo‘lsa, bir og‘iz kuyla
Yo ko‘klar ishqida kuylasang koshki,
Sen ham boda bo‘lgin, birodar bulut,
Bosilsin boshimda samolar ishqi!

U ko‘lni qadahday simir, kecha tog‘,
No‘sh ayla, bir nafas kosasi to‘lsin.
Men umrim bo‘yicha seni kuyladim,
Sen ham bir og‘iz ayt, ovoza bo‘lsin!

Bu dala, bu chaman, bu buloq, bu yo‘l,
Eski do‘stlarimdir, majlisimda jam.
Shaharning sahari aynitdi meni,
Shakar buloqlardan kayflanajakman!

Shundoq sehr borki bu yuksaklikda,
Yurakni titratar, vaqtni shoshirar.
Tog‘lar tug‘ilgan kun hadyasi kabi
Ruhimni yangilar, javonlashtirar.

SO‘NGGI SALOMIM

Bitta san’ati bor — inson taqdirin,
Eritdi umrimni zamon mum kabi.
Tog‘lar ham yanchildi bu tegirmonda —
Don unga aylandi, toshi qum kabi.

Bilmadim tug‘ishgan, bilmadim yotdir,
Umrimni sinovdan sinovga otdi,
Eng uzun yo‘llari besh-olti odim,
Eng uzun sevgisi — bir udum kabi.

Na uy istaydirman, na-da bir yurg‘un,
Shusiz ham tugaydi bu qisqa surgun.
O‘limim xabarin eshitsang bir kun,
Uni qabul qil so‘ng salomim kabi!

SEN HAM SO‘NDIR SHU’LANI

Ayrilarkan yurtimdan,
Siyrak yulduzlar toti,
Aylanardi tilimda
Besh-o‘n insonning oti.

Besh-o‘n do‘stimning yuzi —
Tunni yorgan nurli iz,
Umur bo‘yi ulardan
Kuch olib yashaganmiz.

Yana shu xotiralar...
Na so‘lgan, na keksaygan.
Ruhsizlar dunyosida
Ruhim kabi yuksalgan!

Yurtimga cho‘kdi zulmat,
Yolg‘on, ro‘yo, nodonlik,
“Balkim ortga qaytmasman!” —
Fikr aylandi bir onlik.

Charchadim bu janglardan,
Yana qaynamas qonim.
Sen ham so‘ndir shu’langni,
Qolmasin chaqirgonim!..

TOMON

Kun kunga, oy oyga ulanib ketar,
Fasllar tirmashar yilimga tomon.
Zirvani bir kunda egallaydi qish,
So‘ng hujum qilar soch tolamga tomon.

Qancha chechaklasak, ustimiz qordir,
Qancha qanot qoqsak, bu qafas tordir.
Butun xushbaxtliklar yashalganlardir,
Qolganlar hamisha zulmga tomon.

Qo‘l ochib, yolvorsak o‘tgan chog‘larga,
Kuchimiz yetmagay ayriliqlarga.
Za’faron sariqlik kelmish bog‘larga,
Xazon yaqinlashar gulimga tomon.

Sovuq to‘shaginda uvushgan qo‘lcham,
Azizam, sevgilim, uchog‘im, g‘uncham.
Yana-da cho‘zildi bu sensiz kecham,
Yana-da bir qadam — o‘limga tomon...

* * *

Ma'sum tabassum-la yondoshding menga.
Rasmiy salomlashmoq... oti ish edi.
Men ham mehmonlardan bittasi edim,
Nazokat tufayli bir ko'rish edi.

Nimani yashirar harir pardalar,
Siynada gizlicha urar dil achchiq.
Menga talpinmoqdan qo'rqaroq, balkim,
Eringning qo'lidan tutganding qattiq.

Balki, yanglisharman so'ylab har neni,
Yoningda tutganing senga azizdir.
Usiz ham xotira sohil qumiday
Yuvilar, insonlar hofizasizdir.

Ehtimol, shundaydir Allohning hukmi,
Ayriliq bo'lmasin abadiy g'ussa.
Qandoq yashagaydir inson dunyoda,
Dildagi yaralar tez tuzalmasa.

"Sensiz yasholmasman!" der eding menga,
Dudog'ing olmasding dudoqdan hamon.
U shirin so'zlaring qush bo'lib uchdi,
U ishq vulqonini sovutdi zamon.

Balkim, rostdan ham hech yashamassan,
O't olmas bu o'choq puflasang ming bor.
Balkim, ming yillarning ortidan kelgan,
Go'zal mo'miyosan o'rtada abgor...

BITSIN

Yondir, shahid qoni, bu toshni yondir!
Bu toshga aylangan qardoshni yondir!
Yo tamom yo‘q ayla, yoki uyg‘ontir,
Bu uzun jaholat uyqusi bitsin,
Bitsin, bu millatning qo‘rquvsi bitsin!

Ummondan ne qoldi sohilga? Hech ne!
Biz shundoq izladik, biz bo‘yla hech ne,
Hech ne o‘zgarmagan ming yilda, hech ne.
Dod-voyim, isyonim, to‘fonim bitsin,
Bitsin, bu riyokor zamonim bitsin!

O‘liklar to‘zoni tirilar emish,
Mingi johil bo‘lsa, ming biri shaymish,
Qadimiy sarkarda mundirin kiymish,
Bu johil, bu sotqin, bu quldir, bitsin.
Bundan ko‘ra o‘lmoq maqbuldir, bitsin!

Bu millat tilini bilganni sevmas,
Dardini chekkani, olganni sevmas!
Yo‘lida bosh qo‘yib, o‘lganni sevmas.
Bu bilim, bu tarix, bu yozuv bitsin.
Yurtni sevganlarning jazosi bitsin!

KUYGAN HID

"Kuygan hidi kelmoqda!" — bir go'zalning so'zidir.
Chayir shu sochlarimni qorishtirib kulardi.
Bilmasdi, kuygan hidi mening sochimdan emas,
Ko'ksimda yonib yotgan yuragimdan kelardi!

Ko'zlarimning oldida yonib yotgan kitoblar,
Nasimiyning, Sobiring ruhida kuygan hidi!
Haqqini istaganda tilimga tamg'a bosgan,
Otimni ta'qiq etgan qo'rquvda kuygan hidi!

Gulxan-gulxan yonardi xotira asrlari,
Sibirdan yuzimizga so'ngan o'choqlar boqar.
Mushfiqning chayir sochi bir gulxanning o'tidir,
G'azoda bir daxmaga do'nmoq uchun kuyunar.

Kimdir butoqlarimni omonsiz kallaklagan,
Qit'alarga sochilar bu yetishgan borimiz.
Muhojir dastalari, o'lkalar orasida
Sokingina kul bo'lgan,
so'ngan o'choqlarimiz!

Ko'zim nuriga to'ymas, tilim so'zga tashnadir,
U Hodiyning ruhidir, mozorini so'roqlar.
Biz o'choq yoqmaymizki, qalqar kullarimizdan
Ko'zimizning yoshi-la so'ndirilgan o'choqlar.

Sochimda, kiyimimda kuyuk hidi, o't hidi.
Ozodlik havasida chechak ochar tosh maydon.
Borimni talon etgan yolg'onlarning ichidan
Unutilgan sasimni menga qaytarar zamon.

Yer va ko‘k orasida tugilganda million musht,
Qaytadi bir millatning jo‘mardligi o‘ziga.
Qurolga madadkordir qo‘llarning gizli kuchi,
Goho-goho yetishar jar solganning so‘ziga!

G‘ayrat karvonlaridir o‘tgan uzoq yo‘llarni,
Olislardan qo‘limga millionlar qo‘l uzatar.
Gulxanlarning boshida, baxtlilikning arshidan
Sovugan qonimizni kecha-kunduz qizitar!

Million dilda bir havas, million qo‘lda bir qilich,
Qurigan gavdalarga yarimta zarbamiz bas.
Bu maydonning olovi mamlakatni uyg‘otsa,
Zulmatlar oyoq ochib biz tomonga yurolmas!

... Chalkashgan sochlarimda titraydi zarif qo‘llar,
Ko‘z yoshi qo‘rquvdadir: o‘chog‘im qo‘r oladi.
Men ham oddiy bir kosov — so‘nsam ham millatimning
Dimog‘ida abadiy kuygan hidim qoladi!

5.07.1988

U TUPROQ BIZLARNI KELTIRMAGAYDIR

Yuzimga tog‘larning nafasi tegar,
Olishar, tanishar, yonar, ingraydir.
Tuproqqa qaytmoqlik oson ish emas,
Bu zulmni bir qaror bitirmagaydir,
U tuproq bizlarni keltirmagaydir!

Vatan tog‘larida tosh bo‘lganniki,
Ko‘kida qanotli qush bo‘lganniki,
Siynasin ochmoqqa xo‘sh bo‘lganniki,
Daraxt ek, urug‘ sep, yetkurmagaydir,
U tuproq bizlarni keltirmagaydir!

Qachon so‘z sepgandim, so‘z qoraytirdi,
Shoshib ko‘z sepgandim, ko‘z qoraytirdi,
Egri ekkanimni rost ko‘kartirdi,
Ket, dardini ovut, boshga qo‘l qo‘ydir,
U tuproq bizlarni keltirmagaydir!

Har tosh yuraklarga tilingni otding,
Har uy devoriga qo‘lingni otding,
O‘zing o‘lmoq bo‘lsang, o‘limni otding,
Ne qadar istasang, yig‘la, et dir-dir,
U tuproq bizlarni keltirmagaydir!

Bir bora qo‘rquvdan ayrilmas bo‘lsang,
Har toshga, og‘ochga qayrilmas bo‘lsang,
Vatanni qoldirib, sen o‘lmas bo‘lsang,
Ruhing ham yurtingga hech qaytmagaydir,
U tuproq bizlarni keltirmagaydir!

Balkim, quli bo‘lsak, navkari bo‘lsak,
Balkim, Tartar bo‘lsak, Hokari bo‘lsak,
Nomusning haq-hisob chekkani bo‘lsak,
Yo‘qsa, har qaytishda dil urmagaydir,
U tuproq bizlarni keltirmagaydir!

Bu Vatan darslari anglay bilmasak,
Ko‘zida har toshni silay olmasak,
Har kim o‘z ichida g‘usllanmasa,
Yuz tutib, yolvorib, tavba qilmasak,
Bu tuproq bizlarni keltirmagaydir!

YO‘L TUGAGANDA...

Tangri bizni yo‘llar uchun yaratdi,
Yo‘l bitganda — samo tutar yuziga.

Sevinchimiz mayxonada tugaydi,
G‘amimizni nay oladi o‘ziga.

Malak bo‘lsin, qirol bo‘lsin, shoh bo‘lsin,
Ko‘nglimizni boy oladi o‘ziga.

Elchilari Tangrisini unutgan
Bir to‘dani may oladi o‘ziga.

Ko‘rimizdir — jonin jarga otadi,
Karimizni ko‘y oladi o‘ziga!

Alloh jimdir, ammo Shayton ishida,
Ming hiyla-la, voy, oladi o‘ziga!

Ne yaxshi ki, tuproq bizni yutganda,
Ruhimizni ko‘k oladi o‘ziga!

aprel, 2007-yil

YUKIMIZ ORTGANCHA...

Hayoda charxladim ruhimni, Alloh,
Ne zamon g‘ayb oldi ilohiy ishqim?
Meni o‘stirgancha o‘zi ham o‘sgan
U qahramon ishqim, u dohiy ishqim!

Sasim yer o‘ynatgan, ko‘k tilkalagan,
Nag‘ma yo‘q, oshiqlik shavqi edi bu.
Men edim dunyoning ilk bir dehqoni,
Sepganim ilk urug‘ — sevgi edi u.

Bas, qaydan kelardi nafrat bu qadar,
Bu sha'r urug‘ini ekkan kim bo‘ldi?
Haqning hadyasi — ul hayot suvini
Zahar ariqlarga to‘kkan kim bo‘ldi?

Ne zamon kuchaydi bu ayriliqlar?
Yara yuragimda chandiqlar qaydan?
Maydon urushida bo‘yimiz birdir,
Endi bu yuzinchi qavatlar qaydan?

Yukimiz ortguncha botir sasimiz,
Hoy, yig‘uvchi kishi, bu joyni otla!
Biz ruh qanotida seni uchirdik,
Ucha olarsanmi qizil qanot-la?!

Ilohi, bu xalqqa shafqating kelsin,
Qaytar ilk yo‘lini, izini tanit!
Ruhini yo‘qotar inson ko‘pincha,
Unga Tangrisini — O‘zingni tanit!

1.05.2007

QIYOMAT

Boshqasining halolini tumorlamagin,
Farqi yo‘q
boshqasining molini o‘g‘irlamoqdan.
Axloqsizlik aynidir —
xoh shahvatda bo‘lsin,
Xohi sarvatda.
Haromga tushkunlik ham
fohishalikdir,
Xoh vazifa atalsin,
xoh ish.
Ehtiros asiridir biri,
biri nafsiga asir emish.
Boshqasining yotog‘ini
pul ila olganlarning
Xabari yo‘q —
o‘zinikining eshiklarda kezib yurganidan.
Pulsiz-porasiz! —
tirik ruh, toza vijdon
izlaganicha.
Ko‘z yoshlari ila jimlikka cho‘kkan
qizil tojlarni
otmoq uchun boshidan!
Qiyomat yaqinlashar
alomati yozganlarim —
mardligim, kishiligim,
toza ruhlarning yoshi —
millat xoinlariga
millatning aldanishi.
Bol evaziga shakar,
arilar ham soxtakor.

Salomchi banklar ozgan,
sirada urug‘ banki —
tanimagan bir moyadan
paydo bo‘lgan homilalar.
Yangisi qandoq tug‘ilar,
teri ichida motor!
Yoki inson qotili,
millati — terminator.
Qiyomat yaqinlashar,
odamlar ko‘p, Azroil bittadir.
Allohning yangi ishi —
Azroilni yetishtirmoq.

BIZLAR BAJARDIK

1990-yilning 20-yanvarida
Moskov televideniyesining nidolarini,
qonga to‘la ko‘zlar-la
tanklarni ustimizga haydagan
sarxush rus gadolarini,
uylarga suqilgan
askarlarning g‘ijirlagan tishlarini,
“ubeyte etix turkov!” deyaroq
yog‘dirgan o‘qlarini,
o‘lganlarni yo‘llardan
qon sizgancha supurganlarini,
O‘zimizga va tuprog‘imizga tupurganlarini,
musulmonga Ozodlik yarashmas deya,
armanilarga yordam etganlarini,
tig‘larga o‘ralgan ichaklarimizni,
nayzaga ilingan go‘daklarimizni,
bo‘laklab kesilganlarni,
to‘rt qo‘lini bir mashinda,
“mustaqillik” so‘zini
yo‘qotmoq istaganlarni
millatning xotirasidan,
o‘lik ustida o‘rlashgan quzg‘unlar kabi
Bokuda izg‘igan generallarni,
u egasiz qo‘llarni,
u tanasiz boshlarni,
so‘ngra bu holda dardga
parda tortmoqni istagan
boshdagi beboshlarni
unutaroq, yangidan o‘risga qo‘l tutmoqni
yangidan safsatasini

Yazovning, Bakatinning
tilida o‘qitmoqchi bo‘lganlarni,
bularning barini
kimsa bajara olmasdi — biz bajardik!..

* * *

Ko‘cha-bozor bir yonda,
o‘z halol manzillarida,
shahidlarning ustida
yana chaq-chaq urarlar
jallodlarning tilida.
Bola vatandoshimga
dushmanni sevdirmangiz,
farqi yo‘q millatimga
g‘ichirlagan u tishlarning.
Vatanimni olov sochgan
u qonli yurishlardan.
Shundoqki, ular istagi tanklarni
ustimizga surmoqdir.
Murdor oyoqlari bilan
uyimizga kirmoqdir.

* * *

Xalqning so‘ng nonini
qo‘lidan olganlarga,
millatning ko‘z yoshida
xushbaxtlik totganlarga,
tilloli saroylarida
chirik ruhlari talon,
Na Qorabog‘, na Tabriz!..
Yurti pul bo‘lganlarga,
bu hoji dinsizlarga,
mazhabi ilonlarga
Kim vatandosh der edi?
Kim ko‘nglini ochardi?
Kimsa qilolmasdi buni —
biz bajardik!..

* * *

Bu so‘ngsiz jaholatdan,
bu tarqalmas zulmatdan,
bu zahmatdan,
bu mehnatdan,
bu qadrsiz mamlakatdan,
kim bo‘lsa, havolanmish
bosh ko‘tarib qochardi,
to‘zmoq — o‘limdan badtar,
kimsa bajarolmasdi —
bizlar bajardik!

YO‘L YURARMAN

Vaqt o‘yini? Onim — yildir, yillarim — bir on,
Manzilimga bir yetajak go‘dak-la karvon.
Qadarimiz ham yaratgan, ham yaratilgan
Yo‘l yurarman, boqib ko‘kka, boqib Tangriga!

Yaralishning “bo‘l!” so‘zidan bo‘lib kelganman,
Har chorani o‘z ichimda bilib kelganman,
“Aylan!” degan qancha nafsga kulib kelganman,
Yo‘l yurarman, boqib ko‘kka, boqib Tangriga!

Bu yozilgan, bu buzilgan harflarimiz — yo‘l,
Azadan to‘yxonaga kezishlarimiz — yo‘l,
Bir marta, o‘n marta uylarimiz — yo‘l,
Yo‘l yurarman, boqib ko‘kka, boqib Tangriga!

Tilbilmasga o‘rgatmoqdan tilim qabardi,
Tomog‘imda qoburg‘adan yetishgan bordir,
Sochlarimda qor chechagi — qishim bahordir,
Yo‘l yurarman, boqib ko‘kka, boqib Tangriga!

Men ariman — umrim qisqa, yukim abadiy,
Yurtdoshimning xotirida shaklim abadiy,
Tangrimizga unvonlangan fikrim abadiy!
Yo‘l yurarman, boqib ko‘kka, boqib Tangriga!

Ismimga boq! Sabr aylamoq Tangri xohishi
Men kularman, yig‘laganning oqarar tishi.
Xayolimda o‘limimdan keyingi ishim —
Yo‘l yurarman, boqib ko‘kka, boqib Tangriga!

19-avgust, 2007-yil.

ESKI HAMKASBIM ARSLONNING XOTIRASIGA

Yaqin ruhining eng siniq,
umidining eng kesilgan chog‘ida,
tamom yolg‘iz qolganda
do‘stlarining davrasidan,
yo yarim tunda,
yo sahar tongdan
qo‘ng‘irog‘i kelardi Shohvalad o‘g‘li Arslonning
botiq, charchagan, toriqqan bir ovoz,
ham qardosh, yaqin,
ham begona sayyoradan kelgan kabi, uzoq.
Der edi: “Nima qildik, bey?
dardimizni kimga aytaylik,
ishsizlikdan o‘ldik, axir!
uyda qancha o‘tiramiz,
yana qancha ko‘zguga,
o‘zimizga boqamiz?
“Mustaqillik” derding — derdik.
Maydonlarda yotdik,
sening-la bir to‘ldirdik jabhalarni,
qochqinlarga qo‘l uzatdik.
Ishladik tinchlik bilmagan,
hozirgilar kabi pulga qiziqmasdan.
Gadolikdan boshlangan
nozir muovinidek,
zinama-zina, odim-odim,
na bir xohish, na bir odam!
O‘zing shahidsan, shukur!
Senga kim topshirgandi meni?
Eng og‘ir yillarda
ishladik, qurdik,

Boshqalari yuksalardi?
Eshigimiz ochiq edi millatga,
nozirlikni ham fidoyilik bildik,
na kichiklarga qizartdik yuz,
na buyuklarga egildik.
Oxiri ne bo‘ldi, bey?
Aytishimiz kerakki,
och qo‘ymadi Alloh,
topildi bir burda non,
bas, aqlimiz, kuchimiz,
vaqtimizni nega o‘ldirdik?”

Bilardi eshitmasdan javoblarni ham,
tutunsiz yonardi.
Imkon qolmasdi nafas olmoqqa;
“Sen ham vaqt topding
iste’fo bermoqqa...
Hamma ishida, kuchida
o‘lka otalaridan qoldi, shuni bil,
Sotilar bir boshdan.
Bizni ham kasal qilding
Vatan? Halollik? Vijdon?”
Bu so‘zlarning qoshida
yana ko‘hna tasalli:
“Siqilma, bir yo‘li topilar!..”
Axir, qaydadir bu yo‘l,
Har kim o‘z boshining tashvishida ekan,
Arslonga kim boqadi.
Ayt, kim?!

So‘ng bir kun kesildi
bu erkakcha so‘roqlar,
xirildoq shikoyat.
Qassoblar omonsiz
kesarlar bu ko‘ngilni...
Azroilga ne hojat?!

2006-yil

ABADIY SAVDO

Bular...
Bir hayotlik oromni yuksak tutarlar
Tangri jannatidan,
Xabarsizlar ishtaha qurbonlari
jannat mamlakatidan,
ijozatli jangovor,
galstukli qorinlar
Mening ruhimni tuymas!
Mening ruhimni bilmas!
Yashil ekan kallaklangan,
yuz bora yiqilmoqdan keyin tiklangan,
ne qadar yetishsa — kam...
tushunchasi, iymoni, tili, fikri pajmurda,
qo'rqoq — shumshuk jahonda,
jala yog'ganda qo'rqqan,
qorong'ulik jarliklardan yuzaga chiqqanda qo'rqqan,
tuproqning sevinchiga onglari bog'lanmagan,
bir chechakning uzilganiga siqilib,
yig'lamagan
Meni anglamas aslo!
Bular...
Qo'limiz ustiga dushman qo'lin qo'yganlar,
tilovati, duosini minnat bilan o'qiganlar,
unutganlar ming yillik yo'lning — izning tilini,
dunyoga sig'magan dardimizning dilini?
Ne bilsin qaydan kelar ko'zimizga cho'kkan g'am,
bu osmonga bog'liqlik, bu sarhadsiz tushuncha.
Chindan Qobustongacha
yozuvli toshlarimning chang bosgan ko'zgusiga
artib boqa olmagan,
Erganakon ishqidan har kun
tug'ila bilmagan

qaydan tuysin
ichimda yashagan buyuk ruhni,
qaydan tuysin ne demak
bu qadrdon, bu ulug‘, bu bedor Turk ruhini?!

Ularga aytgan bormi
Oltoydan Bolqonlarga,
Tangridan Savolonga
uzangan tarix yo‘li
najot iplari kabi
hali ko‘kdan tushmadi,
biz ko‘klardan kelsak-da,
yo‘lni men oqartirdim,
yo‘llar ko‘kdan tushmagan.
Parcha-parcha bo‘lingan,
urushdan horg‘in, ezilgan,
faqat haqqa homila,
yana tarix yo‘lining
bilimdoni? Bu bizmiz!
Bu bizmiz, menman, sensan...
bu kun yugurik, g‘ussasiz,
tongda to‘lqin kabi,
dunyo tomon yelasan!..

Bular...
bu etnomustamlakachilar,
bu retrokommunistlar,
demokrat, islohotchi,
globalchi fashistlar
va ularning qullari,
turk qonini tashigan
hadya go‘daklari
Meni tushunmas aslo!
Tuymas tomirlarimda
Oqqan qaynoq qonni,
Tangrigacha yo‘l tortgan
Bu abadiy savdoni!

TOBUT KO‘TARMOQDAN

Tobut ko‘tarmoqdan yelkamiz yara,
Qalbimiz qonadi g‘am ko‘tarmoqdan.
Bu qandoq dunyodir, charchadik, Alloh,
Ham ekib, ham bichib, ham ko‘tarmoqdan.

She’r yozganing kim-u yer qazganing kim,
Majol bermadiki, Azroil — qochmoq.
Bir yerga yig‘ilsa, bir tog‘ bo‘lardi,
Do‘stlarim qabriga to‘kkanim tuproq.

Yerning ostida ham — to‘rt devor! Bitdi...
Uch nuqta — kafanga tomgan terimiz.
O‘lim-la o‘limni qo‘shib, hibs etdi
Yerusti, yerosti go‘rkovlarimiz.

Yuz do‘kon, yuz zavod egasining ham
Yutmog‘i, ichmog‘i, yeyajagi yo‘q.
Yerosti qurilgan bu ne shahardir,
Yerustiga bir so‘z deyajagi yo‘q.

Ichimga oqizdim ko‘z yoshlarimni,
Dengizdir — g‘azabdan bo‘g‘ilgan sasi.
Ko‘pdan o‘limimni yashatar Tangrim.
Kafan — bu dunyoning so‘ng hadyasi.

Haqqa borgan vaqtim, yuzlashgan vaqtim,
O‘zimdan ko‘p avval yoshlanar tilim.
Bir vaqt baqirmoqdan qabardi ancha,
Endi ham jimlikdan toshlanar tilim.

Elimiz — talonchi, uyimiz — talon,
Yolg‘onlar ustiga kelgan yig‘ingdir.
Yuragim ursa-da o‘limdan ba’zan,
O‘lim kurashlardan chekinmog‘ingdir.

YANA QISHLOQ YO‘LIDA

Bir vaqt piyodaydim, keyin ot mindim,
Bu kun mashindaman — nima farqi bor?!
Kecha — kimsa bilmas qishloq bolasi,
Shuhrat yoshindaman — nima farqi bor...
O‘tgandim bu yo‘ldan yoz to‘fonida,
Umrim qishidaman — nima farqi bor,
U yozdan bu qishga yo‘llar ne qisqa,
Yana kent yo‘lida yoppa-yolg‘izman!

Qancha shahar ko‘rdim,
o‘lkalar ko‘rdim,
Kechdim dengizlarni ham ummonlarni.
Bir yonda o‘zini jannat qilganlar,
Bir yonda mazlumning oqqan qonlari.
Chevirdim dunyoni u yuz-bu yuzga,
O‘radim qo‘limga meridianlarni,
Boshimning ustidan o‘tdi yuz qazo,
Yana kent yo‘lida yoppa-yolg‘izman!
Totdim bu dunyoning har ne’matini,
Sarig‘i, qorasi boshimga do‘ndi,
Berdim millionlarga yurak so‘zimni,
Qaytdi-yu boshimning toshiga do‘ndi.
Men Vatan nomiga sevinch yozardim,
Biroq u ko‘zimning yoshiga do‘ndi.
Sevgi-da jazomish, xizmat ham jazo,
Yana kent yo‘lida yoppa-yolg‘izman!

Bilginki, chevrildi bundan ketganim,
Yanchdi-ku umrimni yillar qum kabi.
Ne qadar so‘zim bor — yutdim ichimga,

Yutar izimni ham millat xum kabi.
Qani u bukilmas bilganim qo‘llar,
Ezildi zulmdan xuddi mum kabi,
Unda qabr qazgan, so‘nggi so‘z yozgan,
Yana kent yo‘lida yoppa-yolg‘izman!

Irmoqlar sarg‘aysa, cho‘llar ko‘karar,
Sarg‘aygan ham menman, yashil-da menman.
Burgut qaytishida yuvoshlanadi,
Bir boq, u qoyalar qoshida menman.
Ne bo‘lsin, bir yo‘lning so‘ngiga keldik,
Yana bir mushkulning boshida menman.
Yo‘llarga jon berdim yo‘l ocha-ocha,
Yana kent yo‘lida yoppa-yolg‘izman!

15-sentabr, 2007

EY, G‘URBATNING TOG‘LARI

Dunyoning har yerida yuz tutganim tog‘lardir,
Soyi, bulog‘i bilan ilhom kelgan... chog‘lardir,
Tog‘ bo‘lmasa, kim meni o‘z yodida saqlardi.
Yo‘llarni, chaqirlarni, izlarni xush ko‘rardik,
Ey g‘urbatning tog‘lari, sizlarni xush ko‘rardik!

G‘urbat dedim, bo‘lmadi...
Bu yer ham o‘z yerimiz,
“Ko‘k otinda ko‘klari — iymonimiz, dinimiz.
Bu ot muzeylarida tip-tirikdir tilimiz,
Tarix e’tiborida so‘zlarni xush ko‘rardik,
Ey g‘urbatning tog‘lari, sizlarni xush ko‘rardik!

Menga ochdi qalbini, begona kelsa loldir,
Bu qadar uzoqlikda tug‘ishganlik xayoldir,
Yo‘llar o‘zi oborar, qo‘y, oborsin — haloldir.
Qoyalar panjasida tuzlarni xush ko‘rardik,
Ey g‘urbatning tog‘lari, sizlarni xush ko‘rardik!

Zirvalarning har biri — tarixning bir parchasi,
Qay tomon qo‘l uzatsam, menga yurak ochguvsi,
Salom, Tangri tog‘ida muz bo‘lmoqdan qochgan suv,
Buloq-buloq ko‘z ochgan ko‘zlarni xush ko‘rardik,
Ey g‘urbatning tog‘lari, sizlarni xush ko‘rardik!

Uyg‘on, ey turkning o‘g‘li,
ko‘r sarhading qaydadir,
Bir yuksaklik dunyong bor, zirvalari qordadir,
Yolg‘iz qardoshlaring yo‘q, tog‘laring ham dordadir,
Million sirning ochari ko‘zlarni xush ko‘rardik,
Ey g‘urbatning tog‘lari, sizlarni xush ko‘rardik!

Ne abadiy tuzumdir, ne muqaddas yuksaklik,
Soch ham sovuq oqlikda, shundoq kelar keksalik,
O‘z tilingda shiviring, pichirlashing yuksalar,
Har qoyadan, har toshdan sas kelar: “xush ko‘rardik!“
Ey g‘urbatning tog‘lari, sizlarni xush ko‘rardik!

QO‘LI BINAFSHALI XOTIN

Sochlari oqargan, yuzi tirishgan,
keksa bir xotin,
burishgan qo‘lida
uch yaproqli binafsha,
ketar yo‘lida, yonidan o‘tib borgan
odamlarni ko‘rmaydi.
Uni o‘ylantirmaydi
“bu yoshda chechak nima-yu, sen nima?”
deya bilganlar...
Shu tariqa binafsha bilan tanishar
yoki bu sehrli mikrofon ila
Tangriga yerdan
reportaj berayotganday
tutar yuziga chechaklarni,
ohang qo‘lidan ushlagan kabi.
Ketar, qo‘lidagi uch yaproq
qor ostidan chiqqan
so‘lg‘in binafshaning tabassumi.
Ketar — balkim
bu chechaklarga
umrining eng og‘ir e’tirofini so‘zlar,
yo o‘zi ham binafsha bo‘lgan
yillarning dardini ochar.
Yoxud sezib so‘ngi yaqinlashganin
Tangri dargohiga shundoq ketmoqni istar,
Qo‘lida binafsha tutgan holda
Yaratganning qarshisiga chiqmoqni xohlar...
Sochlariga taqsaydi,
qor ostidan chiqibdi derdim —
bahor yaqinlashar...
qizil gul yarashmasdi, balkim,
binafsha yarashar.

BOSHLANG‘ICH

Keldi so‘ng qirg‘oqqa umrim kemasi,
Qay yerda to‘xtaydi — u hali bilmas.
Allohning yo‘lidir suv ham, tuproq ham,
Manzilga yetmasa tinchlana olmas.

Umrimning o‘zgarmas rangidir, balkim,
Boshimning ustida g‘am bayroqlari.
Ne qadar cheksam-da, kamaymas dardim.
Dardim — bu dunyoning ayriliqlari...

Ortimdan ergashar baliqchi qo‘llar,
To‘lqinlar o‘ngimda ming bir savoldir.
Ne qadar so‘rov bor, bitar mening-la,
Ne qadar javobim yarimta qoldi...

Hayotning ko‘zgusi dengizdir, shundoq,
Ko‘ksida bir iz ham saqlagan emas.
O‘zi ko‘z yoshidan yaralgan uchun
Yulduzlar to‘kilsa, yig‘lagan emas!..

O‘chib ham ketadi mening ham izim,
Har to‘lqin shoshadi o‘z qirg‘og‘iga.
Dengiz o‘chirganin yozar yangidan,
Yuz mehmon keltirar so‘z qirg‘og‘iga.

Besh arshin yo‘limiz ilkdan so‘nggacha,
Biri shirin bo‘lsa, biri achchiqdir.
Shundoq bilamanki, bu so‘ngi safar
Boshqa bir yo‘limning boshlang‘ichidir.

SHE'RNING MOZORI

Quyosh-la, nur ila, sahar-la birga
Tug'ilar umrimda har kun bitta she'r.
Ehtimol, ko'klardan qo'l cho'zganidan,
Mening yuragimga surgun bitta she'r.

U doim taloshar, u doim yonar,
Ishonar barchasi bitajagiga.
Tilimdan qo'zg'olgan bir yo'l boshlanib,
Asl unvoniga yetajagiga.

O'zim ham bilmayman — nega tug'ildim,
Balkim, ilohiydan bir sasdir umrim.
Balkim, men o'zim ham surgun yeriman,
Bulbul nolasiga qafasdir umrim.

She'rning ham toleyi bir sirga bog'liq,
Biri gunohkordir, izlagani bor.
Bu holda dunyoda yer topmas biri,
Birining yuz uyda ko'zlagani bor.

Birining fikrimda yetishdi so'ngi,
Birlari o'zgarmas, jim turadilar.
Birisi tilimning uchida yonar,
Qo'rqarki, so'zlasam, o'ldiradilar.

Bizning boshimizga narx qo'yganlarning
Boshining ustida yuksalar so'zim.
Va yoki bo'g'ilar o'z qafasida,

Nafasim kelib ketar,
Aqlim ham boshimdadir.

Bir yo‘l bor kechmishimda,
Bir yo‘l ham qarshimdadir.

Bir orzu kelmog‘im ham,
Bir chora o‘lmog‘im ham,
Bir qasos kulmog‘im ham,
Biri ko‘z yoshimdadir.

Gul yo‘li, chechak yo‘li,
Ko‘z yo‘li, yurak yo‘li,
Bor bo‘lmoqning bir yo‘li
So‘ngsiz savashimdadir.

SAVOL

Ehtimol, dunyoda men yo‘qman ortiq,
Qorishib mezonga uchib ketganman.
Egasiz ismimdir o‘rtada qolgan,
O‘zim esa sokin ko‘chib ketganman.

Ismida odam ham yashamas, balkim,
O‘zingdan yodgorday qo‘yding bu sasni,
Bergan azobini unuttirmoqqa,
Besh-to‘rt so‘z eshitar sevgi ovozi.

Ehtimol, o‘zi-da bir aldanishdir,
Balkim, ko‘rganim ham uyqudir shundoq.
Ko‘pdan aytayotgan qo‘shiqlarimni,
Tole boshqasiga o‘qili shundoq.

Ko‘nglimda abadiy yoshlikning o‘ti,
Bas, hasrat degancha chog‘lagan kimdir?
Yo‘q bo‘lsang, yo‘qlikning sevgisi bo‘lmas,
Bor bo‘lsang, bas, yo‘ling bog‘lagan kimdir?

INSON

Umrimiz ondan qisqa,
Uzun! — abadiyatdan.
Uzunligi jahannam, qisqaligi jannatdan.
Manzilga ne oborar tashigani sarvatdan,
Ham qush kabi ozoddir,
ham-da asirdir inson...

Jonli bir kahkashondir, kahkashonlar ichida
Toza ona sutidir, kechar qonning ichidan.
Tangrining nafasidir — bir nafasning ichida.
Ham sirlarning ochari, ham o'zi sirdir inson.
Bir sehrli ko'z boqar chamanning har gulidan,
Bir qo'shiq tinglaydirsan tabiatning tilidan,
Kunda bir xabar kelar million nurning simidan,
Qancha dunyolar kezar, yana ham birdir inson.

Ham Tangrining avlodi, ham Tangrining o'zidir,
Ko'ziga mil ham tortgan, yana yerning ko'zidir.
Dengizlar kecha-kecha o'zi sir dengizidir,
Yerda Samo parchasi, Samoda yerdir Inson...

TILIMGA KELMASDAN QARIDI SO‘ZIM

Bir kun yopilganda zindon eshigi,
Mening o‘z jazoim yetganda boshga,
Yoza olmaganim she’rlarim uchun
Bir qabr qazilsin qabrimga qo‘sha.

Sir berdi — olib qochdim.
So‘z berdi — yurak ochdim.
Umrim bir otlanmoqdir
Tuproqdan Tangrigacha.

Bitirib har azobni,
Ajal elchisi hayron,
O‘lim — oxirgi eshik,
Yo‘limdan chiqar qachon?

Ko‘shkdan kelar bu yozuv,
Yozuv yo‘q, haq duosi.
Har inson sir tuguni,
Biz — tugun, Tangri — ochar.

YURAK O‘RNIDA

Seni Allohimning qo‘lidan olib,
Osarman siynamga yurak o‘rnida.

Bu ishq sovumasin deyman hech qachon,
Yozsang gunohimni malak o‘rnida...

Mening nafasingga ehtiyojim bor,
Essin tan usti yelvizak o‘rnida.

To‘lsin ko‘zlarimga Oy nuri kabi,
Ko‘karay tong payti chechak o‘rnida...

Yong‘inni sovutgan sarin suvimsan,
Yoki barakotim — nondek, o‘rnida,

Yana toleyingdan so‘zlama menga,
Teginma qalbimning titroq o‘rniga!

SAODAT

So‘zimni nafasga, nafasning so‘zga,
Ko‘zimning yurakka, yurakning ko‘zga,
Zarif barmoqlarning o‘choqqa, tuzga
Qandoq do‘nganini ko‘rmoq — Saodat.

Qanotli bulutlar ham uchmoq istar,
Chechakdir — atrini taratmoq istar,
Har sevgi sirini berkitmoq istar,
Uni parcha-parcha bilmoq — Saodat.

Jismi yo‘q, borlig‘i otashdir, sasdir,
Vulqondir, to‘fondir, ishqdir, havasdir,
Barcha sevishganlar otashparastdir,
Ilohiy olovga kirmoq — Saodat.

Orzu, umid ham yo‘l edim oxirat,
Topib o‘z ichimga to‘ldim oxirat.
Ming yil izlaganim bildim oqibat,
Jonim ham qarz edi, bermoq — Saodat!

SENING KO‘ZLARING ILA...

Yonarman dunyoning dard-u zoriga,
Sevinchga ikki bor qaynaydi qonim.
Endi men dunyoda sening o‘rningda,
Sening ko‘zlaring-la boqarman, jonim!

To‘rt ko‘z-la boqarman go‘zalliklarga,
Ko‘ryapman,
chamanlar chechak-chechakdir.
Sening haqasing-la o‘rlaydi ko‘klar,
Yomg‘ir ham sen uchun to‘kilajakdir.

Bezgandim millatning chal-chaqiridan,
Uxlasam — unim yo‘q, varaq oq, kechir.
Endi-chi, ko‘nglimdan buloqqa, qushga,
Shamolga qo‘shilib o‘qimoq kechar.

Oh, buncha go‘zaldir shundoq yashamoq —
Bahor yashiliga qovushgan xazon.
Sening ilhoming-la jimmas qalamim,
Sening qanoting-la kimdir o‘t uzgan...

Alloh vazifa-la yubordi Seni,
Ijozat so‘rmasdan qalbimga kirding,
Shayton yuraklarga otash ekan-da,
Dunyoni jimgina go‘zallashtirding.

Mening tamannosiz yongan quyoshim,
Atri-la umrimni to‘ldirgan chechak,
Bir sevgi zirvasi bermishsan menga,
Hamda u zirvaga qalqmoqqa yurak!

O‘ZING BIL

Qoya daftarlarning qalami cho‘kich,
Qalam bilan yozsang, izmi bo‘ladi?
Yuz yerdan begona chechaklar boqar —
Dardimni o‘qigan ko‘zmi bo‘ladi?

Hali ham tomirda qaynaydi qoning,
Umring hokimidir so‘ngsiz zamoning,
Yurak yozuvidir tog‘lar dunyoning,
O‘limga bosh egib, to‘zmi bo‘ladi?

Taqdir o‘yinini o‘ynasin yana,
Bir o‘choq yonadi, bir o‘choq so‘nar,
“O‘zing bil, o‘zing bil!” — so‘zladim Senga —
Sening bilganingni ko‘zmi oladi?!

BOLALIK

Ming-ming kilometrlik
bolaligim ustidan
sening qo‘ling menga yetsa.
Osilsa bo‘ynimga...
U ilohiy go‘zallik qor to‘ldirib o‘rnimga
yondirib, yoqa bilsa.
Saharlar bol nafasingdan uyg‘onsam uyqudan.
Ko‘zing yorib ko‘ksimni, yuragimga boqa bilsa.
Xotirang-la — oting-la to‘lsa kecham-kunduzim.
Sendan boshqa bir kimsani ko‘rmasa ko‘zim.
Yerda Sen,
Havoda Sen,
Yutganim havo ham Sen...
Hatto o‘tgan yo‘llarim, hatto men ichgan suvlar,
Chamanlarning yashili, chechakning oli ham Sen...
So‘zim, yozuvim, ilhomim Sendan iborat bo‘lsa,
Inson yulduzga aylanar, qushlar inson bo‘lsa,
Demak, aldanganmiz biz,
Bir qum zarrasi emas dunyodan bilganimiz...
Zamon, makon, masofa, yuz-yuz yer aylanishi —
Ayirmoq ko‘p og‘irdir egrini to‘g‘ri ila...
Senga sevgim xat yozar ustidan ko‘hnalikning.
Sening-la boqar har ne, so‘ngsizlikning ko‘zi ila,
Alloh tarozusida..!

MING YILLAR...

Yomg‘irli-loyqa cho‘llar bilan ketaman —
Yuragimda Sen!
Yuragimda Sir chechagi, sevgi otli mo‘jiza,
Mening-la ming yillar yo‘l yurgan...
Ming yillar oldin bir chaqmoq kabi tushding ichimga...
Ming yillardir zulmatni quva-quva o‘zingni anglatarsan
Ayriliqqa... Yolg‘izlikka... G‘ussaga...
Tarix bu sevgiga bog‘liqdir.
Uning nafasi bilan uyg‘onar zamon...
Ming yillardir senga sevgi qo‘shig‘ini aytaman
Hech uyalmasdan...
Bu sevgidir yomg‘ir bo‘lib yog‘gan,
Qor bo‘lib erigan...
Gullar tepasidagi kapalak kabi
Bu dunyoni aylantirgan...
Ikkimizning ko‘ksimizda bir ruh, bir jon...
Ketar abadiyat karvoni — boshida sevgimiz.
Ham karvonga so‘ng qo‘shilgan,
Hamda dunyo qadar Keksa Sorbon!

MILLATDAN AYRILSIN

Bu bizning Naxchivon, bu bizning Mug‘an,
Bu bizning Qorabog‘, bu bizning Shirvon.
Hammamiz bir yurak, hammamiz bir jon,
Kim aytar ayirar tirnoqni etdan,
Ayirmoq istagan ayru millatdan.

Quvonch biznikidir, dard ham bizimdir,
Eltuvchi siynamdir, to‘zgan tizimdir,
Mening o‘z Bakumdir, o‘z Tabrizimdir,
Har uy o‘z uyimdir bu mamlakatda,
Ayirmoq istagan, ajrar millatdan!

Hamiyat, shud berdi qayg‘ukash ona,
Ming yil, ming soy oqdi bitta ummonga,
Tutma bu olovni, qo‘llaring yonar,
Hammaga qarz tushdi so‘ng barakotdan,
Ayirmoq istagan ajrar millatdan!

Bir ishqqa aylandik cho‘qilganda don,
O‘sha chashmadandir tomirlarda qon,
Hammaga o‘sha sir bo‘ldi bu zindon,
Barqirab chiqamiz bu haroratdan,
Ayirmoq istagan, ajrar millatdan!

Buluti yog‘ishdan, soylari seldan,
Aqli kesaridan, qilichi beldan,
Tangrini ilhomdan, kuylarni dildan,
So‘zi achchig‘idan, qo‘li zahmatdan,
Ayriliq istagan ajrar millatdan!

Karvoni giryaga do‘ngan deyildi,
Siynasi ko‘klardan engan deyildi,
Yuz joyin bog‘lasang so‘ngan deyildi,
U shamki, olishib yonar qudratdan,
So‘ndirmoq istagan ajrar millatdan!

QALAMGA

O‘z xo‘ja tilingdan asil qalamim,
Ey qusur qalamim, Qizil qalamim!..
Qalam yo yog‘ochdan, yo toshdan bo‘lar,
Laylakdan, ko‘mirdan, qamishdan bo‘lar,
Qizilda yozilgan so‘z qizilmidi?
Qizilga kasrli so‘z yozildimi?

Balki chiritdilar murakkabini,
Balki yetkizaman qaynar ta’bini..
U zindon yeriga ko‘rishga ketgan,
U jang maydoniga ko‘rishga ketgan,
Millatning o‘ziga yolg‘on pishqirgan,
Zaharli ko‘zidan ilon pishqirgan.

U qanday vazifa, qanday mashmasha,
Saning to‘foningdan sal yiqilmasa,
Qonimni ichayin qon yuqilari,
U don bozorining “yon” qo‘nimlari,
Vatanin ruhini tugashi bilan,
U olib bermog‘i rasmiy ish bilan.

Yana yod so‘zlarin qiyini oldda,
Sendagi saf qani unutilguncha,
Sening shuhratingni, sening kuchingni,
Saning qissalaring unutilguncha,
Ket, yig‘lar qalbimga qisin, qalamim.
Ket, mozoring bo‘lgan ko‘hna chibimdan,
Kesilgan til kabi asil qalamim!..

ONA YIG‘LAMASIN

Dunyoda onalar hech yig‘lamasin,
Onalar yig‘lasa chiday olmayman.
Sohibsiz ummondir ona kadari
Uni so‘na kabi chaqa olmayman.

Hech qachon onalar yig‘lamasin,
Dunyo yetimlashar ona yig‘lasa.
Onaning ko‘ziga g‘am tilaganlar
Onaning ko‘zini jonday saqlasin.

Chekaman onaning qahor payini,
Ichaman onaning zahar payini,
Onaning ko‘ziga g‘am tilaganlar,
Yolg‘iz onalar yig‘lamasin.

Qo‘y, oq chechaklarni tuzay sochiga,
To‘kilsin sochining oqi gullarga
Ona ko‘zlarida g‘amni ko‘rmayin,
G‘ami yozga do‘nsin, ohi gullarga...

Yolg‘iz onalar yig‘lamasin,
Cho‘qqimdir, tog‘imdir bori shon bo‘lsin.
Ol-quyoshlik kuyish unga yarashmas,
Onaning kunlari sevinchga to‘lsin!
Yolg‘iz onalar yig‘lamasin,
Ona g‘amlariga chiday bilmayman!..

BITMAS YO‘LCHILIK

Torimda qurganimni qum ayirdi, qon ortdi,
To‘fonlar-la kelmishdim mani-da to‘fon o‘tdi,
Qashqardan kelgan karvon toleyimdan yon o‘tdi,
Takla-Makon yo‘lidan tez-tez yig‘lablar kechdim.

Oltoy yana hadafda, Uyg‘ur yer savashida,
Har toshda bir doston bor, vurg‘un bor savashida,
Qush bo‘lib qanotlandim,
Uch Semurg‘ning boshidan,
Tangri tog‘da sasimdan nevlay saqlanib kechdim.

Qulog‘imda xalqimning tarixdan kelgan sasi,
Men ham bir so‘z so‘yladim tarixning qulog‘iga,
Ruhimda qon tomiriday ilkin yo‘l xaritasi,
Chiqdim talaba vaqti Turkiston so‘rog‘iga.

Bu Boshqirdning tuprog‘i, qoraligi ko‘z olar,
Turk yurtlari otini tanishgan talabalar.
Unda Ufali do‘stlar mani Aqidel kabi,
So‘roqlar bir sevgi-la safar bitganga qadar.

Oq qayin ham sham kabi qalqir qora tuproqdan,
Og‘achlar ishqi seli, ilhomimning bahori...
Ilk ko‘rish, ilk hayronliq, bizda bu choyga mengzar,
Uzun qish uyqusidan uyg‘onur tuyg‘ularim...

Baqiriq zerikishdan — parchalanar qafasi,
Siynasi ochilguncha, ochilar choyning sasi,
Yurak ham ozodlikning, ham bahorning tashnasi,
Man-da Boshqirdistonda bu ishqni tuyib kechdim.

So‘ngra dardli kirimim...
El surgun, oti qolur,
Tuprog‘in har qatida dardining oti qolar,
Xaroba yurtlarida bitmas faryodi qolur,
Go‘ytepa yo‘llaridan qurtdek ilayib kechdim.

Bog‘chasaroy yig‘layur, ko‘zini silari yo‘q,
Shu tog‘ qal’asi shu sir, sirini bilgani yo‘q,
Qahramon yer tagida, ustida qolgani yo‘q,
Zamon ro‘zg‘ori bo‘ldim,
toshni yaladim kechdim.

Litvada so‘roqladim ayri tushgan yodlarni,
Vilnyus o‘rtasida dupullaydi dillari,
Goh yig‘laydi, goh kular bu yerning go‘zallari,
Yondim-u ko‘zingdagi yosh-la yoshlanib kechdim.

Qozonda suhbat ochdik, tataning qudratidan,
Dunyolarga sig‘magan, otidan, suhbatidan.
Qozon bilan Bakuning so‘ngsiz muhabbatidan
Qozonlik do‘stlarni bir unda sayib kechdim...

Tangriga sadoqat-la qilich sirpagan erlar,
Baland ko‘tarar bo‘yin, zafar-la yana zafar,
Yangi Kama ustida kuch olur minoralar,
Man-da qadim Bolqarga duomni yoyib kechdim.

Quyosh xotiralari yuragimni o‘ynatur,
Xushbaxtlik qanotida yer kichik doiradir.
Tole sha'nki, ilk da’fa sevilmoqni o‘rganur.
Bir shoira qalbini chopib talayib kechdim.

Kavkazda qanday vurg‘un majlisida qo‘l ochdim,
O‘rxun-u, Yeniseyga men birinchi yo‘l oldim.
Kiprisda zaminlarning sarisiga bulandim
Kerko‘kda bir abadiy o‘choq qalayib kechdim...

Xivada tanidilar, ishondim, Tabrizdaman,
Samarqandda O‘g‘izdan meros qolgan izdaman.
Buxoro rang to‘foni, so‘ngsiz bir dengizdaman,
Bizga dil uzatganni man-da qarg‘ayib kechdim.

Bu o‘ziga do‘nishdi, na Medeya, ne Nuna,
Qo‘li manim qo‘limda to‘qinibdi bu xona,
Har uchrar asirimda aylandim tog‘ ruhina,
Muqaddas og‘ochlarga parcha bog‘ladim ketdim.

O‘rxonda toshga do‘ndim, okeanga oqmadim,
Chin devorin ustida Chinga qarab boqmadim.
Mongolga ot sayirtdim, bo‘zqurtlarga sig‘madim,
Qo‘shilib Boy choyiga man ham sog‘ayib ketdim.

Fozilligi zamonning noqisni chiritmagay,
Dushmanin gar to‘qimi hayotda ham bitmagay,
Ko‘rdim qoya toshiga yozganlarim ketmagay,
Turk kuchlidir, na zamon? Bunda yo‘qlanib kechdim!

Na mukammal iroda, na ulug‘ millat emish,
Tarixi qabaqlagan na sirli surat emish.
Balki bobolarimning otlari qudrat emish,
Quyoshni bayroq etib, oyni o‘g‘irlab qaytdim!

Maralliqda ter to‘kib, Oltin ko‘lda bo‘zladim,
Qobuz yonib yoqildi, tog‘larni qovuzladim,
G‘irotlarga yetmoqqa, uchoqlarni sozladim,
O‘rdamni bayroqladim, yurtni yig‘layib kechdim!

* * *

Otilib oh kabi bir kun bu kamondin chiqdim,
Ming shukrki, axir ohdin-omondin chiqdim.

Birga "jon" kalmasini olmoq uchun dilbardan,
Desam bo'lmas yolg'onim ming da'fa jondan chiqdim.

Ko'p edi u siz to'kin saqlashini bosh so'zdan,
Xalqim-u, millatimning man ham bu yondan chiqdim.

Har so'zimdan qon hidi kelmasa ham mandan kech,
Chunki tarix mani hey, bo'g'uvchi qondan chiqdim.

Ul qadarki, to'ladir o'lka imonsizlardan,
Balki bir kun qo'shilib man ham imondan chiqdim.

BIR GO‘ZAL QOR YOG‘AR

A’lo go‘zal qor yog‘ar, qish ham yodimdan chiqar,
Chechak qiyolaganda yosh ham yodimdan chiqar...

Elakda elanganday to‘kar ko‘ngil porasin,
Ko‘kdan million ko‘z yog‘ar — to‘sganicha qorasin.

Bu oppoq parashutlar — Tangring desantlari,
Chopur ko‘kdan yergacha bulutning oq otlari.

Qo‘nmoqqa joy axtarar niholday oq qushlari,
Aylanur oq xoliga o‘qilmagan naqshlari.

Million arsh ham chekilib ko‘k yuzidan ko‘rinadi,
Bu oppoq parchasini hammaga bo‘linadi.

Yuz mingta qaychi bo‘lsin bu oq iplarni kesmas,
Qo‘lim oq varaqlarni chevirmoqqa talashmas...

Qor uyidir ko‘klarning sassiz qor deyirmani,
Sovuq quvonch oldida isinar yering sani.

Bu ilohiy yaxshilik xotirasi nalarni?
Onamning ko‘zlarida uya qurgan qadrmi?

Eritib ufqlarni, olovli nafasi-la,
Oq chechakli bog‘lardan bo‘y ko‘rsatgan saharmi?

Oq simlarda chalinur eng sassiz ohanglarim.
Qadr-la qorishig‘im, kul bo‘lmish orzularim.

Nega muzlab qolyapman, nega oqardi boshim,
Qo‘y, ketib sas-sadosiz, bu oqliqqa qorishay...

MEN SEN BILAN

Sochingga to‘kilgan oq izlar kabi,
Yo‘llaringda dala, u tuzlar kabi,
Oy kabi, kun kabi, kunduzlar kabi,
Men sen bilanman.

Samo yulduzladi, cho‘qqi qorladi,
Ona qayg‘uladi, og‘och bargladi,
Yurak nag‘maladi, tog‘ viqorladi,
Men sen bilanman...

Sensiz har nafasim dardga aylansin,
G‘amdan qasosim bor — hassa tayansin,
Yo‘llar ham uzaysin, hasrat ham yonsin,
Men seningman.

KURASH TUGAMADI HALI

Tilimizda asirdir
haqiqatning er so‘zi,
Yurak pichirlaydi, chida,
ochib to‘kma har so‘zni!
Dushman maydon istaydi —
qurolga aylantir so‘zni!
O‘z ichinda surgunsan,
vaqti yetmadi hali,
Ikkinchi jabha ochma,
kurash bitmadi hali!

Yuragim shu amr ila
nizomlaydi har ishni,
Bu bir ko‘ngil istagi,
vatandosh ko‘rsatishi.

Sabr, to‘zim, adolat —
mudroqlarning qarg‘ishi.
O‘lim emas har qazo,
har qishning bahori bor,
O‘tib ketar bu dardlar,
zulmlar, ayriliqlar...
Yuksalmoq haq iladir,
kel, niyating haq so‘z bo‘lsin.
Halol dasturxoningda
noning bo‘lsin, tuz bo‘lsin,
Vatandoshning Tangriga
sevgisi so‘ngsiz bo‘lsin!
Tog‘lar holini buzmas
chaqmoqlarning sasidan.

Millat yaxshi-yomonni
ajratar kurashinda.
Og‘iz ochib, to‘rt yondan
yuz jarlik, yuz tole.
Sahardan kunni tushun,
Kurash bitmadi hali!

Adolatli bir da’vo
to‘xtatar nohaq qonni.
Kurash tarix ko‘zida
bir nomus imtihoni.
Kurash — ruhning sinovi,
kishilikning maydoni.
Adolatsiz dunyoda
haqni topmoq zamoni.

Aqllidir Dalitog‘,
sir ochmas ko‘hna yozuv.
Toshga borib urilar
turkning sasdor ovozi.
So‘ng so‘zini aytmadi
na qilichi, na sozi,
Axir tarix joylari,
har isyon bir shalola.
Tingla tog‘lar aytganin,
Kurash bitmadi hali!

* * *

Ko‘chalardan o‘tarman,
millatim kayf qilmoqda.
Boshqa qayg‘usi yo‘qdir,
ichmoq va o‘ynamoqdan.
Bunga shodlik deyilmas,
bezdik yolg‘on so‘roqdan,
Kirmas kar quloqlarga

yurtining nolon sasi.
Jizillatmas qalblarni
“Qorabog‘ shikastasi”...

Ey vatandosh! Tur, silkin!
Boshingni ko‘tar yerdan.
Bugun xabar oldingmi
Lochindan, Qalbajardan?
So‘zing-la cho‘g‘latdingmi
kul bosgan o‘choqlarni?
Avloding uyg‘ondimi,
sevdimi u tog‘larni?
Dunan Sidir so‘zida
ko‘rdingmi u “Yalli”ni?
Nega vulqonday bo‘lib,
sachratmadi ol qonni?!

Yeringdan qo‘zg‘aldingmi
“Çahargah”ning tili-la,
Tog‘dan tushib keldingmi
bahorning zo‘r seli-la?
Bulbulning sayrashidan,
kul bo‘lsang ham, yondingmi?
“Uvertüra” chalindi,
uyqudan uyg‘ondingmi?
Nega sasing chiqmasdan,
tomiringda do‘ndi qon?
Yurting ozod bo‘larmi
Yurt uchun urushmasang?

* * *

Vatan asir, yarali,
biz ham bir yara bergan,
asir yurtlar nomiga
do‘kon, mayxona qurgan.

"Ketdik "Laçın yolu"ga,
Kabobxona yon-yonda.
"Ağdam"da yesak-ichsak,
bosh suqsak "Zəngilana..."
"Bərgüşad" qo'l ostida,
Bokudan oqar Tartar.
Asir yurtingning nomi
bir barda qolsa, yetar!
G'ayrat, shuur, hissiyot
pulning qo'lida qoldi.
Pullarga ham aytaylik:
"Kurash bitmadi hali!".

Og'ir yellar, mahallar
hammasi Apsheronda.
Sohilimiz sho'r ko'llar
quyulmish Qobustonda.

Dalalarda tug'ilgan
Mug'on kezar, Mil kezar.
Saroylari yiqilgan,
parchasi manzil kezar.
Vulqon kuli ustida,
har yerda bir tosh qafas.
Bo'z tepa tog' o'rnida
neft ko'li bo'ldi evaz.
Qoldimi Qorabog' deb,
yoshin to'kib, yig'lagan?
Torning tilida og'ir,
sozning tilida to'fon...
Cho'qqi qori sovutmas
chodirda tug'ilganni.
Oraz otli dardi yo'q
dard ila bo'g'ilganning.
Uylarimiz talanib,
qabristonlar qumlandi.

Nega tiling quridi,
nechun og‘zing mumlandi?
Ekranda tuzsiz gaplar,
uyqularing yolg‘oncha.
Qaydadir “Cəngi” darsi
yo‘l ko‘rsatsa har qancha?!

* * *

Xalqning qulog‘i bitdi
“sulh”, “otashkes” so‘zidan,
Yolg‘onchi umidlardan,
“kelishuv” hiylasidan.
Sulh chechagi so‘lmoqda…
ATATning ofisida
Tebranar sekin-sekin
ozodlik havosida.
BMT bayonoti
quruq so‘zdir, quruq so‘z!
Millatlarning oyoqda
chang bo‘lgan g‘ururi — so‘z!
Bokudan Yerevanga
qadrbozlik aylagan
Bu qadar bo‘sh va’dasi
yana ozlik aylagan.
Dushman tilmochi ekan
hamda orachi bo‘ldi.
Ikkili o‘ynamoqdan
Tillari qo‘sha bo‘ldi.
Takror — ko‘hna naqllar,
takror — raqam nuqtasi.
Minsk guruhi bizga
Yevropaning tug‘og‘i!
Bir million qochqinimning
tuz sepib yarasiga,
Butun dunyo o‘ynaydi
chorizm nog‘orasiga…

* * *

Qochqin, ko‘chking,
diydor chin!
Yurtga sevging qolarmi?
Qasos uchun qat’iyat,
dushmanga kin qolarmi?
Bilasanmi nimadir
Shusha, Lochin jannati?
Ilohining bizlarga
rahmati, marhamati?
Qalbingni silarmikin
Salvartidan esgan yel?
O‘sha ko‘llar ustida
yetim yozuv, yetim til.
Bokuda, Sumgaitda
ne qadar ko‘k otsang-da,
G‘olib kelib uyqungda,
orzuyingga yetsang-da,
Shahid ruhi talpinar,
kelishmas bu hol ila.
G‘oziylar intizordir:
Kurash bitmadi hali!

... Sen, ey mubham tushuncha,
qabila tafakkuri,
Xazarni to‘sib qo‘yilgan,
Kuraning yopiq nuri,
Qishloqni qo‘riqlagan,
tog‘da poyloqchi bo‘lgan,
Yevropada ateist,
Makkada hoji bo‘lgan.
Sizni ham silkitadi
bir yerusti zilzila,
Kurash bitmadi hali!

Ey, yurtimning dardi-la,
tilimda yongan ohim!
Hadafim bo‘la-bo‘la,
ey bo‘sh otgan silohim!
Nomardga fursat berib,
meni ezgan Allohim!
Balkim bir xatoyim bor,
so‘yla, nedir gunohim?
Balkim yo‘l yurguvchiman,
balkim, e’tiqodim oz,
Tillo emas, neft emas,
Qorabog‘im sotilmas!

... Ruhi asir tushganning
sarvati ham qadrsiz,
Nafsiga yengilganning
g‘ayrati ham qadrsiz.
Har rayonim ketganda,
qo‘shdingiz yangi doston.
Gulistonim vayrona,
Uylaringiz guliston...
Egildi tog‘ g‘ururi
ko‘lga nafsi o‘ngida,
Kimningdir kursilarda
pora kutgan kunida.
Tog‘dan tushgan bilsinki,
tog‘dan buyuk tog‘ ham bor.
Ishongani vatanda
halol yashamoq ham bor.
Tilimga, o‘tmishimga
necha yamoq solarkan,
Moskva loyihasi
bir tarix uydirarkan,
Tangrimga, ishonchimga,
Qurbimga qo‘l otdingiz.

Sotqinlar-la to‘ldirib,
O‘rdumni aldatdingiz.
Bir million ko‘ngillilar...
Siz ham qirmoq ustasi.
O‘ziga qabr qazib,
Yerga kirmoq ustasi.
Yot qon, boylik, sotqinlik,
Riyokorlikda holi.
Qanday unutajaksiz:
Kurash bitmadi hali!

Millat askar istasa,
“qochoq” ruhini yoyma!
O‘g‘limga, ushorg‘imga
qo‘rqoq ruhini yoyma!
Bo‘lmasaydi Bokuning
bu kursi o‘yinlari,
Bu yaltoq tulkilari,
nokor qo‘y-quyonlari
Karvon-karvon moshin-la,
qo‘lni qo‘ldan ajratgan.
Siynamni qoburg‘amdan,
qo‘lni qo‘ldan ajratgan,
Bizlar bu qadar oson
bermasdik yog‘iyga jon...

* * *

Olim do‘stim, umringni
sarf etganing u yolg‘on,
O‘chib ham ketajakdir
zarli kitoblaringdan.
Nega “yangi” tushunchang
tanlanmas eski chog‘dan.
Uyalmading millatga

soxta tarix yozmoqdan,
g‘oyalar uydirmoqdan.
Bilmassanmi, so‘zing-la
o‘zingga qabr qazding.
Bir yolg‘onni armani,
birini-da sen yozding...
Unutmasin so‘zimni
adolatdan qo‘l uzgan.
Xushbaxtligi qochmoqda,
yo‘li g‘urbatda kezgan.
Yana kosib ezilar,
gunohkor yana millat.
Qullar kishan taqqanda
qora kiyar mamlakat...
Xalq ichinda, kuchinda,
nokor ketgan xon kelar.
Necha nasl o‘zgarib,
dushmandan bo‘lgan kelar.
Bo‘sh qozon taqirlaydi —
o‘rtada cho‘mich-qoshiq.
El yo‘lini ayirar
qoni boshdan qorishiq.
Bu qismatning o‘yini —
Lafzimni sinaydi hali.
Shukur, qonim qaynaydi,
Kurash bitmadi hali!

Qani qalam do‘stlarim,
umri bo‘yi g‘am chekkan,
G‘azabdan umidning ham
ustidan qalam chekkan.
Vatan, deb yoza-yoza
vatanda g‘arib bo‘lgan,
Na uyi, na ish joyi...
havoni shimib ketgan.
Chidamlisi Don Kixot,

zaifi sinib ketgan.
O‘z dardiga erigan,
o‘tida yonib ketgan.
Ba’zisida uyquli,
ko‘zin tutibdi g‘ubor,
Uning-chun dunyo qora,
butun odamlar nonko‘r.
Siyosatdan chet qochgan,
fikri ichiga do‘ngan.
Tushunchasi torayib,
yuragi ko‘pdan so‘ngan.

Yangi bir saf ko‘rguncha
qo‘shiq, doston deyilmas,
O‘zimizning o‘lanni
o‘qimoqdan tiyilmas!
Yevropa qo‘li uzun —
Oyga, Marsga yetadi.
Ammo bizning yaramiz
tuzalar o‘z qo‘ling-la,
o‘ting-la, malhaming-la.
O‘z otangning so‘zi-la,
o‘z onangning so‘zi-la.
Boshingga parvonaday
o‘rgilganning so‘zi-la.
Nasimiyning, Voqifning,
Aliaskarning so‘zi-la,
Shushaga bayroq taqqan
ilk askarning so‘zi-la!

* * *

O‘quvchim, sen ishonma
va’dalarga, yolg‘onga,
Xalqning tamiz nomini
bazorga chiqarganga...

Mol-dunyo barakatdir
haromlikka do‘nmasa…
Bezak ko‘zga yoqadi
astari ko‘rinmasa…
Uchirding, yelga berding,
qancha fursating ketdi.
Bu qahramon millatga
qo‘rquvni kim o‘rgatdi?
Ishg‘olni, bo‘linmoqni,
to‘zmoqni kim o‘rgatdi…
Uyg‘on, chiqqin sabringdan!
Vaqt kutmaydi, vaqt uchar,
yetar, endi tiklangin,
endi tiklansin boshing,
Boshlansin tarixingda
hayot-mamot savashing!..

30-31-iyul, 2019

OQSOQOLLIK IDDAOSI

(Yordam beray deb hokimiyatning ishini tanqid qilganim bir chiqishimdan so'ng otini oqsoqol qo'yib olgan bir necha yumaloq xat yozuvchilar mening ishimga qarshi emakdoshlari tayyorlagan maktubga qo'l qo'ygan edilar.)

Cho'qqilar azaldan sochi oqdirki,
Bo'sh kezgan, bo'sh kechgan qizil toji yo'q!
Qor yog'sa, dard kelsa, yana toq chekar,
Ilonga, chayonga ehtiyoji yo'q!

Ayri yashaganning so'ngi yer-la bir,
Insonga ziynatdir peshonada ter.
G'iybatchi xotinning oti aniqdir,
Xislatsiz kishilar undan-da battar.

U kimdir kuri-la qursoqqa ketgan,
So'z degan betayin, makkor to'lg'onib.
Bo'z bo'ri ko'kini kezganimizdan,
Qo'rqdi mog'orlagan soqol sollanib.

G'irotni bilmaslar yog'iylarimiz,
Otdan tushganlarning nag'masi "xo'sh-xo'sh!"
Ehtimol, qasirlar nolalarimiz,
Tovuq o'g'risi ham oqsoqol bo'lmish!

Ne farqi podadan ajralgan qo'yning,
Yo odam suruvi? Hammasi birdir,
Maymunni insonga chevirgan o'yin,
Insonni maymunga nega chevirdi?

Goh sochiq silkitar, goh eshik buzar,
Qo'shniga — g'animdir, qardoshga — balo.

Idora mudiri bo‘lib netadi,
Uyining odami bo‘lmadi aslo...
Vodiy sadirlari, jar buyuklari...
Olish-berishi ham chayon, bitniki.
Qo‘shni, u oqsoqni keltirma beri,
Ko‘r, qaysi qanchiqdir, qaysi itniki...

Umr e’tibordir, nomdir, muroddir,
Yuksaldim sharafli bir rutba uchun.
U meni sotmadi, o‘zini sotdi
Tilanchiga do‘ndi besh tanga uchun.

El yaxshi taniydi bu murdorlarni,
Boshmoq juftlanganda qul bo‘ldi ular.
Yoqar bo‘lsaydilar yana to‘rt yerni,
Ketib eshaklarga tul bo‘ldi ular.

Mardlar beshigidir yuksak tog‘larim,
Ming soqol uvlasin, menga yetolmas.
Boshiga salla qo‘y, yaktakka o‘ra,
Haqni sotganlar hech odam atalmas!

May, 2020

* * *

Umrim xazon fasli...
Yaproq yomg‘iri.

Yaproq yog‘ishiga
tutdim ko‘nglimni,
Elandi boshimga tillo onlarim.
Bahordan kuzgacha quyosh ostida,
Bir osmon ostida qiziganlarim.
Yashil sevinchi-da, sariq g‘ami-da
Tuproq unvoniga yozilganlarim...

Holim qolmagandi odim otmoqqa,
Yaproqlar azizim, qardoshim, do‘stim.
Biri tushganda ham kulgan yuzlidir,
Birisi pokiza, birisi yoshli...

Biri o‘z umrini keltirdi boshga,
Birini qo‘porgan nomard kapalak.
Biri asragani oxirgi so‘zni
Yuz surtib, tuproqqa so‘ylamoqchiydi...

Bu yog‘ish g‘aribga yog‘ishdir, Alloh,
Ho‘l qilar odamning yuragigacha.
Yuvar tuyg‘ularni, ruhni ham yuvar.
Jaholatdan yuvar, qo‘rquvdan yuvar.

Bilginki, to‘kilar so‘zingning changi,
Yuvar og‘irlikni boqishlaringdan.
Ne qadar olganda buncha kuch bo‘lmas,
Bahorning sharillab yog‘ishlarida...

Tabiat yig‘laydi odamdan badtar,
Hech bundoq qirmizi ko‘z yoshi bo‘lmas.
Bir yalang yog‘ochdir o‘rtada qolgan,
Jonlidir, jonlidan go‘r toshi bo‘lmas!

Yelkamga bir yaproq qo‘nar ohista,
Ehtimol, umrimning xaritasidir,
Balkim, o‘zim edim butoqdan tushgan —
Bir qondosh yurakning ilk orzusi-la
Isitgan topilsa, tirilar edim...

Bu hayot yo‘lida o‘z ruhim kabi
Yelkamga qo‘ngandi yetim, ko‘maksiz.
Bilaman, tobutga kirgan pallada
Yaproqdek ketarmiz yelkalarda biz...

1985-yil

HALOL ODAM

Ehtiyoj ichida erigan odam
Eritar ichida mol-mulk ishqini.
Na bir o‘g‘ri umrin surar dunyoda,
Na qimorga tikar buyuk ishqini...

Ozroq olajagi, ko‘proq rizqi yo‘q,
Taqdiri tog‘ yo‘li — qoldirajakdir.
U o‘z qismatini arslon og‘zidan,
Burgut qanotidan soldirajakdir.

Ehtiyoj ichida erigan odam
Na turar, na-da ki qichqiriq solar.
U shundoq tutgandir yo‘lning oqini,
Og‘ir dardlarin ham kulguga olar...

QORABOG‘GA QAYTISH

1

Yaramizdan oqqan qon
qon emas, qo‘rquvimizdir,
Og‘riqlar-la quvilgan bir g‘aflat uyqumizdir.

Kecha yig‘laganimga bu kun qalban kularman,
O‘lardim yashaganda, tirilmoqqa o‘larman.

Na bu o‘lim yangidir, na yarimjon tiriklik,
Chehram butun bo‘lsa-da, yuragim tilik-tilik.

Yot qo‘llar parchaladi, bo‘lingancha bo‘lindik,
Tegirmonda sovrildik, elaklarda elandik.

Cho‘kdi bir qora zulmat yurtimning jon yeriga,
Yog‘duli kunlar dedik, qora demoq o‘rniga...

Kesildi sarhadlarim, qaychilandi yo‘llarim,
Boshim kunda ustida, kishandadir qo‘llarim...

Allohsiz, dinsiz bo‘lgan unuttirdi Allohni,
Alloh sevgisi kabi qiymalandi silohim...

Unutdikki, insonlik soylar kabi toshmoqdir.
Haq, adolat yo‘lida so‘nggacha savashmoqdir,

Tuzalmas yara bo‘lar bosh egmog‘lik dushmanga.
Umrim sig‘a olmaydi parchalangan Vatanga.

Ko‘zimizda bir asrning nohaq oqqan qonlari,
To‘planib tog‘ soyidek, to‘ldirdik maydonlarni.

Maydon ana, quchog‘i bir yurakdir, bir jondir,
Hasratni to‘kib solgan butun Ozarboyjondir.

Yon-yonga tayangandi Boku, Tabriz, Ardabil,
Oraz ham xijolatdan qo‘zg‘almishdi yelga, bil!

Maydon bir mushtga do‘ndi, har musht bitta qo‘shindir.
Saflarimiz chaqmoqday, so‘zlar o‘qday jo‘shqindir.

O‘radim salla kabi kafanimni u kunlar,
Siynamda o‘qning joyi, xayolimda surgunlar,

Shunda Vatan sevgisi har qo‘rquvni uchirdi,
O‘n sakkiz kun sasim-la bir millatim jo‘shardi...

Keldi sho‘ro o‘rdusi, zarb bila urdi bizni,
Tanklar, to‘plar, o‘qlar ham bukmadi tizimizni.

Xalqning irodasidan qochib, qo‘rquvga tushgan,
O‘qlariga o‘rlashib, tulki kabi surishgan.

Millatning haq so‘zini keltirmasdan tiliga,
Tosh qo‘ydi Bosh kotib-la xiyonat tamaliga.

Yotqizganda millatni yostiqqa do‘ngan yolg‘on,
Sovuq yanvar kunida Bokuda oqdi-ku qon.

O‘rdu o‘z shahariga suqilar yog‘iy kabi,
Yular bayroqlarimni dushman bayrog‘i kabi.

Ko‘zida vahshiy g‘azab, sochar necha og‘udan,
Uchoqlar ko‘kni tutar, kemalar qalqar suvdan.

Tanklar, raketlar kelar tinch shaharning ustiga,
Tashlanar to‘p o‘qlari ko‘rpalarning ustiga.

So‘ng qurol-la qirarlar qurolsiz insonlarni,
“Qo‘l tort yurtimdan!” degan gunohsiz insonlarni.

Ishg‘ol o‘rdusi turdi ishg‘olchining yoninda,
Bo‘g‘di o‘z sharafini Xojalining qoninda.

Dunyoning fatvosi-la jo‘shar Xoin shoqoli,
Orqadan tank-la kelar sovetning so‘ng vakili.

Huquq do‘ndi, haq botdi, dunyo eshitmas, kardir.
Qotilga “Tur!” demagan o‘zi ham gunohkordir.

Ichki siyosatlarning asragan qirg‘oqlarin
Kesib otmoq kerakdir yel kezgan quloqlarin,

Oxiri angladimki, kechgan umr emasmish,
Ko‘kda sasim bo‘g‘ildi, yerda yo‘lim to‘silmish.

Nag‘mam og‘uga do‘ndi, qon edi ko‘z yoshida,
Motam havosi esdi yurtning har qarichida.

Na shayton kabi shayton, na xaloskor farishta,
Jonsiz qo‘lmish, boshliqqa egilganmiz har ishda.

Dunyo o‘zi ham bilmas — istagi nedir bizdan,
O‘ttiz yil qora tuman do‘nibdir ustimizda.

Bilki, ko‘rmas ko‘r ko‘zli — Vatanimdir bu rosti.
Bu Millatlar birligi, bu Davlatlar sho‘rosi...

Hammasining og‘zida ayni chirik bir so‘zdir,
Hamma siyosat qurdi, qo‘zi yurtim yolg‘izdir...

2

Ammo birdan samodan bir chaqmoq chaqib keldi.
Haqiqat ming yolg‘onni yondirib, yoqib keldi.

“Kurash” degan sarkarda millatni uyg‘ontirdi,
Har yurakda umiddan moychiroqlar yondirdi.

Yo‘l ko‘zlagan yurtlarning da’vosi har kun toza,
O‘n millionning toq sasi yo‘l ochdi yuzimizga.

Qalqdi yigit o‘g‘illar, o‘g‘il dushman chopari
Qalqdi amrga muntazir Ozarboyjon askari!

Nafasi yoz nafasi, sasi chaqmoqning sasi,
Yurtning jo‘shqin ilhomi, qasos olmoq havasi.

3

Ur, qahramon askarim, Xojali baqirib ur,
Yot qo‘llarda ingragan tuproq xotiri-la ur.

Ming-ming uylar buzilmish, kentlar qolmish vayrona,
Toshlari muz bog‘lagan o‘choqning yeriga ur.

Ko‘rsichqon uyasida berkinmoqdir niyati,
Dog‘uli bu dushmanga zarbaning zo‘ri-la ur!

Ziyoratgoh cho‘qqilar kutadi — ko‘zi yo‘lda,
Bu ishg‘olni bitirib, zulm mehvariga ur!

Nabining yo‘li bog‘li, Hojarning qo‘li bog‘li,
Xotirla bu tuproqda ot o‘ynatgan kaslarni.

Dushman to‘p-to‘fonliydi, uning silohi qat-qat,
Hali bitib ketmagan Sultonbeyning izlari.

Dushmanga suv bermagan chekilsa-da ichiga,
Har qoyaning ortidan pishqirar nafaslari.

Sen dalada, u tog‘da, o‘ylar qo‘lga tushmasdir,
Qoyada izlar ochin, po‘lotlashsin tizlaring!..

Havolan cho‘qqilarda, men ham kelay ortingdan,
Endi kesmas yo‘limni shovqinli qor, namli muz.

Dushman boshi olovli, tark etar jannatimni.
Bilar ko‘pdan vojibdir yana qaytmoq va’damiz.

Tartar yana o‘qiydi Kalbajar nag‘masini,
Ne qadar qon yutsa-da, bizga boqar sof, tamiz.

Ketganlarga qo‘shilib cho‘qqisidan enmadi
Murovdan, Dali tog‘dan yuksak Shamshir dodamiz...

Yozuvli toshlarimga men ham bir tarix yozay,
Toshlar ham til ochadi tirik so‘zlar yozilsa,

Ketdi shoir do‘stlarim bu yurtlardan nigoron,
Hasratlari sovumas — har qoya bir so‘z bo‘lsa.

Bahman-la Mammad Arslon ilhomlari tuganmas,
Bir og‘iz men ham aytay, aytganlari oz bo‘lsa.

Ko‘zimda bu tog‘larning har qoyasi oltindir,
Tillosi nega kerak insoni tillo bo‘lsa.

Hali ham xotirlaydi tanho Jayron bulog‘i,
Ustiga Shamshir bilan Vurg‘un kelgan chog‘larni.

Sujoat Istsuya bir gal yuksalmoq istar,
“Qush o‘rnida bo‘lsaydim!”- titraydi dudoqlari.

Imtihon bitmog‘ini ko‘zlaydi Anvar Rizo,
Tez qaytsin o‘ziga boshida ushoqlari!

Kezsin xalq orasida — sozidan so‘zigacha,
G‘urbat bo‘lmish Ko‘kchaning Aliaskar so‘roqlari.

Lochin dushman qo‘lida hali tayanib turar,
Shu’lali tog‘larim bor, qalqar g‘am tumanidan.

Shoir Og‘a Lochinli — Bokudadir mozori,
Ruhi ayrila bilmas onasining yonidan.

Mixto‘kkandan ot usti oshsin Husay Kurdo‘g‘li,
Ko‘rsin — nishon qolmishmi bunda ilk unvonidan.

Yana Turshsuv ustida qurilsin majlisimiz,
Ko‘rsak — qaysi so‘zimiz chiqa so‘z to‘fonidan!

Talosh, yigit askarim, havolar sovuqlashar.
Tepalar shabadali, bir ozdan qish keladi.

Sulaymon Rahimlidan har yil bir yangi roman,
Nomiga necha eldan necha olqish keladi...

Qorao‘g‘li Alining qalamida “Qahramon”,
Zanguzardan ne yozsa, millatga xush keladi...

Endirib Balayanga ters-shapaloq she’rini,
Tilida latifasi Eldor Boqish keladi.

Aziz tarixga kirish— og‘iz ochib chaqirar,
Har qo‘rg‘on sirga parda, dema oddiy tepadir.

Bu kuchim, bu ilhomim Fuzuliydan yodgordir,
Tirik Tog‘lar yuksalsin, tirikligi abadiy!

Bir Vatanim bu yonda, bir Vatanim u yonda,
Orada Xudofarning — yetuklikning ma’budi.

Gunohimiz ko‘paygan — kurash-la tozalanar,
Haq-adolat yo‘lida o‘lmoq ham bir tovbadir...

Yuz-ming qo‘l uzatadi bizga chinor shoxlari,
Na O‘qchi qurigaydir, na xotira bitgandir!

Qaytarman Oraz bo‘yi, Qorabog‘ bo‘ylariga,
Yuz yillarning hasrati yuragimni titgandir...

Qo‘l berar Qorabog‘ga qoratog‘li qardoshlar,
Qirq million insoni-la unda ham bir Vatandir.

Na sarhad chekmoq ila millatim ayrilajak,
Na birlashmoq orzusi, na-da sevgi bitgandir.

Ko‘k tuproqni titratsin ufqdan ufqqacha,
Yelkasi shu’la sochgan Qorabog‘ning otlari.

Ag‘damni xaritadan o‘chirmoq istar dushman,
Bilmadi — ochilajak po‘lotdan qanotlari.

Yana Xudu muallim Marzilidan yo‘l boshlar,
Tirilar naqsh-naqsh tarixim qavatlari.

Qorabog‘ og‘rig‘ini yana Mug‘om tili-la
Yoyar qit’alar aro Shushaning avlodlari...

Jabroildan o‘tganman — faxriy vatandoshiman.
“Dunyoni arshinlagan” Sobirning yurtidir bu.

Mulla Panoh Voqifdan Bayotli Voqifgacha
So‘zi-la, nag‘masi-la yengilmas o‘rdudir bu.

Sona bulbul o‘qiydi yana Qodir sasi-la,
Bilki, falakdan oqqan bir muborak suvdir bu.

Ilohi, Qorabog‘im yana o‘z yeridadir,
Ne muqaddas ziyorat, ne buyuk orzudir bu!

Panoh xonning qal’asi Shanbuloqning ustida,
Dushmanning qonli qo‘li u suvga tekkanda ur,

Tikiladi kentlarim, so‘ngsiz jahd-jaloli-la,
Armani til chiqarib, “Miatsum” deganida ur.

Temir qushlar uchishsin burgutlarning yonida,
Ilonni uyasida, boyqushni ko‘kinda ur!

Bo‘g‘zi qo‘lingda ekan, “yarash” deya yolvorgan,
Yana yolg‘on do‘ndirib, so‘zini uyganda, ur!

4

... Men sizga bu kurashda o‘lmoqni amr etarman,
Siz o‘limga borganda o‘lim sizdan qochadi.

Bu shaharning yo‘lini yuzimizga ochsangiz,
Alloh ham dargohida sizga quchoq ochadi.

Men sizga bu kurashda o‘lmoqni amr etarman,
Ammo o‘lim kelmasdan dushmanni o‘ldirmoqni.

Boshqasining yurtiga ko‘z tikkani yig‘latib,
O‘ttiz yil yosh to‘kkanning yuzini kuldirmoqni!

Men sizga bu kurashda o‘lmoqni amr etarman,
O‘limning quchog‘iga tiriklik bitmoqlikdir.

Umrim o‘lim bo‘lsa-da, ammo bu so‘ng kurashdan
Askar g‘alabasi-la, sop-sog‘lom qaytmolikdir!

Qarshida jarliklar bor, tik qoyalar ketma-ket,
Goho burgut bo‘lasan, goho qanoting bo‘lar.

Yoki bu qoyalardan seni olib o‘tkazgan
Bir uchish ehtirosing, dalli inoding bo‘lar.

Toshlar sovuq, tirishgan, ortda tubsiz jarliklar,
Qoyalarning boshida qapishgan askar ming-ming.

Yomg‘ir bo‘l, tuman bo‘lgin, dushman aslo sezmasin,
Ko‘zingdagi qaqnoqni ko‘rgan kabi sening.

Hayot-mamot onida haqdan kelgan bir nido
Kalimayi shahodat yuraklarda boshlanar.

Bir amrning ilk vatani Chanoqqal’a bo‘lgandi,
Yuz yilni o‘tkazganda Shushada ham saslanar.

Askarning quroli yo‘q, amr o‘zi silohdir,
Bu amr o‘zi qanotdir, saqlaydi qulamoqdan.

Dushman ko‘zini ochib, ko‘rar bir to‘da ruhni,
O‘ttiz yoshga to‘liboq, kelibdir Xojalidan.

Qorni yorilgan ona, ko‘ksi kesilgan ona,
Jannatdan sut beraroq, yigit erlar o‘stirdi.

U zo‘rlangan qizlarning bokira go‘zalligi
Qasosga ko‘ngil berib, ming-ming askar o‘stirdi...

5

Otingga qurbon bo‘lay, ey otsiz qahramonim!
Ruhingdagi tilsimga hayron bo‘lib turibman.

Siz Vatan fidoiysi! Qalbimda hammangizga
Necha ism tushunib, necha ot yaratibman.

Yurgin, yurgin, Meta xon! Bunda ham sarkardasan.
Orqangda qanotlanib, Qazon-la Bayroq kelar.

Qurshod saroylar yiqar, qirq yigiti boshida,
“Ozodlik!” deya-deya, Xurrami Bebok kelar!

Kelar O‘g‘uz, Bayondur, Alprarslon, Qizil Arslon,
Chag‘ribeyning yo‘lida tizilmish necha o‘g‘il.

Siz bu kunning Chingizi, siz bu kunning Temuri,
Sizlarning siymongizda tirilibdi Erto‘g‘rul!

Sizning otingiz nomus, g‘ayrat, shahid, intiqom,
Million-million otli bor, tupurarlar otiga.

Ota-ona ot berib, o‘stirdilar sevgi-la,
So‘nggida qovrildilar yomon avlod o‘tida.

Ket, otsiz qahramonim, Qochar ola bilmadi
Bu qal'ani sayr etdi degani u shishadan.

Qal'a — taxallusingdir, Qoya — sening ayyoming,
O'z asli otingni ham olajaksan Shushadan...

Yoki ul Dadam Qo'rqut, tillantirib qo'bizni,
Turkning o'lmas ruhidan berar so'zga yangi jon.

Aytarki, ayirmasman sizni bir-biringizdan,
Shusha fotihlarining bir oti bor: Qahramon!

6

Askar bo'sh qo'l-la ketar Qal'ani fath etmoqqa,
Birgina pichog'i bor, yashirar hovuchida.

Pichoqning jilosida ko'zlarining shu'lasi,
Necha dushman qismati bir pichoqning uchida.

Tanking yorsin siynani, to'ping uyasin ursin,
Nomussizning ishi ne bu nomus savashida?

Bir og'zing bor, bir qorning, senga yemak kuch berar,
Dunyoning arqog'ini endirarlar boshingdan.

Shushada sharmandacha yengilmoqni bilmasding.
Hali Yalli-la ketding ulug' Sidir to'zida.

Oyoq qo'yganing tuproq, bilmading, senikimas,
U shanliklar, u raqslar to'kilajak ko'zingdan.

Voqifning go'zallari bu yerda kezgan zamon,
Sening xalqing qaydaydi? Sen o'zing qayda eding?

Bu qal'a, qoyalarda bir qal'a ham yuksaltgan
Panoh xonning davrida sen qaysi go'rda eding.

Qal'aning devorlari — qoyalarning davomi,
Bunda qush qushligi-la qanot solib qaytadi.

Sarkardalar, fotihlar, o'lkalar bosa-bosa,
Qo'li yetmaganidan qal'aga til uzatadi...

Bir gal Qochar olmishdi ikkinchi hujumida,
Boqmoqdan siqilganda oylarga moyil-moyil.

Bandasi u dunyoda hasrat chekmasin deya,
Unga gizli yo'llarni ko'rsatgandi Azroil.

Shushada umr ko'rib, Shushada kun kechirmoq
Go'zallarning qismati, yigitlar baxti edi.

Necha saroy qursa-da Panoh xon Qorabog'da
Shusha oltin saroyi, Shusha billur taxti edi.

Shusha — Bulbulning sasi,
Shusha-sasning bulbuli,
So'zning esa bulog'i, Chohorgoh zangulasi.

Bastakor yetkazmasa bundan so'ngra ming yil-da,
Ming yil tirik qolajak Uzairning bey sasi.

Havosi bol, suvi — bol, og'zining so'zi ham bol,
Uni ari azmi-la qoyalarda qurgandik.

Har qarich tuproq uchun o'lmoq nima bo'ladi,
O'lim sevinchi nedir? Bu qal'ada ko'rgandik...

Ikki do'st-la yozgandim qoyasida otimni.
Qoyadan o'chib ketsa, qoladi yoddoshlarda.

Shoir otini yozdi, askarim zafarini,
Tarixim yashagancha ketmagay bu toshlardan.

7

Qal'a zulmat ichinda, tongda quyosh tug'ilar.
Oshiq bo'ri ko'zi-la tunlari ko'rmoq kerak...

Tish bilan, tirnoq bilan yopishib qoyalarga,
Dushmanning boshi uzra qal'aga kirmoq kerak...

Qal'aga kirmoq kerak, havo kabi, ruh kabi,
Tankning, to'pning ustiga bo'sh qo'l-la yurmoq kerak.

Qo'shnisining yurtiga suqilmoqning so'ngini
O'ttiz yil to'ymaganga bu kun o'rgatmoq kerak...

Lochin, Xonkendi yo'li — tanklar turar yuzma-yuz.
Jonli devor tikibdi yog'iylar har ko'chada.

Dushman qaydan bilsinki, askarim qanotlidir,
Bulut soyasi kabi surishar bu Shushadan.

Unga kulgimiz kelar, bizning so'ng niyatimiz,
Ming-ming ko'zdan taralib Shushaga qalqa bilmoq.

O'lkalarga qo'l cho'zgan armani umidi-la
Armani o'rdusini bir qo'l-la bo'g'a bilmoq!

Ozuqa oshib-toshar, silohlari tuganmas,
Yeydi, ichar, bosadi, na qo'rquv bor, na-da g'am.

Bu dunyoning eng kuchli qo'shini ham ne bo'lsin,
Ustiga barcha yo'ldan, har yondan keta bilsam.

Qoyalarning tagida qo'shiq kuylab oqar soy,
Ne qadar jo'shib-toshsa, qal'aga yetmas sasi.

Bunda kesib yo'limni, Shushaning siynasida
Tuzalmas yara urgan Dasholti fojiasi.

Yurtimning jabhasiga ketgan yigit do‘stlarim,
Bu daraning tagida xiyonatga yem bo‘ldi.

Nega deb ham so‘rgan yo‘q, bu kimning o‘yinidir,
U shayton fitnasini unda qurgan kim bo‘ldi?

Har joyidan turganning yelkasi zar pogonli,
Millat ayira bilmas qochqinchini g‘oziy-la.

O‘ncha nafar askarning o‘nboshisi bo‘lmagan,
Qalpog‘ini yon qo‘yib, sarkarda adosiyla.

Kechmish bo‘lsin, Dasholti, yana kelar askarim,
Bu qorlar daralarga unutdirsin yoshini.

Shushadan kelganlarning avlodlari kelibki,
Bunda oqqan qonlarning olsinlar qasosini!

8

Askar qalqar qal’aga, yiqilmasdir tosh devor.
Ammo askarimning ham po‘lotday panjasi bor.

Burgut tirnoqlarini toshlarga ura bilur,
Jarliklarning ustida osilib tura bilur.

Kechaning havosini to‘ldirib jigariga,
Bilarki, jang qiladi yuz do‘stining o‘rniga.

Bu qo‘ylar suruviga bo‘riday soldiramiz,
Qo‘ynimdagi bayroqni Shushada qoldiramiz!

Bayroqni qoldiramiz ola bulutlarga sha’n,
Qo‘y, uni har tarafdan ko‘rsin yarali Vatan.

Shusham yuksak bo‘lsa-da, bayroq yuksakdir shuncha,
Ostida soqchi bo‘lib men ham boqay to‘yguncha.

So‘ngra dushmanning o‘qi ko‘ksimga kirsin, yonsin,
Tokim Vatan ko‘kida bayrog‘im dolg‘alansin!

Qal’a devorga muhtoj, devor qal’aga muhtoj,
Qo‘mondon amr etadi:
Shushaning yo‘lini och!

Shusha namli, tumanli, kecha — hujum fursati.
Askarning o‘z kuchini ko‘rsatmoq qat’iyati...

Qoya yuzida turar,
Qoya qasdiga tushar.
Qoya emas nizodir,
Yaralari tozadir.
Dasholtidan tiklangan,
Qoya emas, balodir,
Qoyalarning ustida
Yo‘l ko‘zlagan qoladir.

Kecha zulmat pardasi
Ko‘zidan kiprik olar.
Ustda quloq-quloqqa
Cho‘qqilar kesib qolar.

Cho‘qqidan projektor
Qorong‘uni yoritar.
Qocholmas ko‘zdan qush ham,
Shubha bilan aritar.

Ammo askar turolmas,
Yo‘lni so‘zidan o‘tar.
Tumanning qanotida
Igna ko‘zidan o‘tar...

Na O‘rdu chekinadi,
Na Qochar degan “shusha”.

Bir hasratli taloshar
Oshig‘i-la ko‘rishar.

Kecha namli, devor yosh,
O‘g‘lim, ehtiyotli bo‘l, oyog‘ingdan qochar tosh,

Askar borar yon-yonga, olar nafas-nafasga,
Birdan quloq teshilar qal’adan kelgan sasga.

U haqning so‘rguvchisi, sen hukm bergan Alloh,
Ko‘rinmas bir sim yopmish, kim bajarar, yo Panoh!

Askar osilib simdan, qalqar o‘rgimchak kabi,
Tirmashar qoyalarga bahorgi chechak kabi.

Har toshda bir po‘panak,
Buz toshlarni ichidan, g‘azabda yongan yurak...

Tomiringda oqadi Xojalida oqqan qon.
Oy chiqar o‘n besh kunli, nurin taratar shu on.

Ko‘kdan bir yulduz boqar, qo‘llaringga kuch kelar,
Yopiq yo‘llar ochilib, bir onlik shavq tinch kelar.

Quyuqlashar qorong‘ulik,
Askar turmaydi tinch lek.

Unga qalqmoq amri bor,
Dushmanning mavqeyini yiqib-yoqmoq amri bor.

Niqob yuzin siqadi, ko‘zlarin berkitmaydi.
Tuproqdan ko‘karadi! Dushman buni kutmaydi!..

Istehkomlar, to‘siqlari yiqilajak bu kecha,
Allohning ko‘magi-yu, adolatning hukmincha.

O‘lim malagi kabi qo‘nsin dushman bag‘riga,
Bir askar qalam cheksin yuzining borlig‘iga.

Qoyalar ham xabarsiz, qarshisida tikilar,
Biroq jonli nafasdan ularga ham jon kelar!

Tirmasharlar devorga siloh-u pichoqlari,
Janglarda nom chiqargan Yashmanning ushoqlari.

Bo‘ynida necha orzu, necha visol hasrati...

O, dengiz mushugidir! Hammasini unutmish,
Bir qo‘li qorong‘uni, biri bulutni tutmish...

Dushmandan olajagi qasos qondirar uni,
Yuragiga kuch bergan yo‘lin kutgan qo‘llardir.

Yetar quloqlariga onalarning nolishi,
Falakka nidolari davom etar yillardir.

Ko‘zida Xojalining, Ganjaning go‘daklari,
Tor-tamiz ko‘zlaridan yosh o‘rniga qon oqar.

Ko‘p sevinma bu yoshga, kutgin bola qotili,
Barmog‘im ko‘zlaringni teshmoq uchun oshiqar.

Uzoq moviyliklardan boqar Po‘lod Nashimli,
Mehribon bir sas ila “Qalq!” deydi askariga.

Silkitgin qoyalarni, yo‘l och temir tishing-la,
Yurgin, xayr-u duo-la, men ham ko‘makchi senga.

Shahidlarning ruhlari qoya uzra chiroqdir,
Muboriz ham tumandan ajralib kelar birdan.

Fikrida so‘ng to‘qnashuv, o‘zi ketar qaboqda,
Qo‘riqlar devor kabi askarnin o‘q, tig‘lardan.

Na qadar sart bo‘lsa-da, bu qoyalar, bu toshlar,
Kelgan o‘z avlodidir, yo‘l ochib, olib borar,

Tuman ko‘rinmas etib, bu kecha askarlarim
G‘arbning qonli qo‘lini Shushadan tom qo‘porar!

Birdan jimlik buzilar,
Dushman shubhaga tushmish,
Shunda bilar — jonlidir tumandan sirg‘algan tosh.

Qoyaga boqa-boqa xandaqing ham buzilmish.
Tog‘ yigitim daradan tirmashar sekin, yuvosh?

Projektor oladi poyloqchining ko‘zini.
Navbat kelsa sevinch-la birozgina yotardi,
Bu tubsiz jarliklar ham xayolini qizdirar.
Quyosh chiqsa, jonidan bu qo‘rquvni otardi...

Nur bilan bir kechada yog‘ar o‘qlar yomg‘iri,
Askarim yaralandi, kuchi yo‘q tirmashmoqqa.

Shushani o‘z ko‘zi-la ko‘rmoq orzusi bordir,
Shunda so‘ng ma’no edi, qanoti yo‘q oshmoqqa!

Tez yarali askarni do‘sti olar yelkaga,
Yo‘q, bunda tayanolmas,
quroldosh do‘st yiqilmas.

Toshlarga tarmashgancha yuqori chiqar yana,
Bir askar yo‘lda qolsa, bu qal’aga chiqilmas...

“Qo‘llaringni bo‘ynimga qattiq-qattiq bog‘lagin,
Seni ko‘tararman men — bu toshlar muz bo‘lsa-da!

Yarang ham tuzalajak Shushaning havosidan,
Bir yo‘lda ketajakmiz — bu yo‘l so‘ngsiz bo‘lsa-da!”

Bo‘yningni quchoqlagan yarali do‘st qanotdir,
Sovuq fasl kechasi askarim yonib borar.

Ne sinmas bir diyonat,
Ne buzilmas inoddir,
Yarali do‘st yuk emas, yana tirmashib borar!..

“Qardosh, sen tashla meni,
Og‘irman, o‘ylama, ket!
Boq Shushaga to‘yguncha,
Mening ham ko‘zim-la, ket!”

“Shushaga o‘z ko‘zing-la sop-sog‘lom boqajaksan!” —
Shundoq deydi askarim yarali qardoshiga.

Alloh unga kuch berar, jo‘shar tomirida qon,
Hammadan tez tirmashar qoyalarning boshiga!

Dushmanning ajalidir daralardan tikilgan,
Qay go‘rga kirsa kirsin, topadi, o‘ldiradi.

Qancha projektorni tongning shu’lasi bilan
Yoki o‘z nafasi-la sham kabi so‘ndiradi!

Uzayrning Chingizi birdan kelmishdi tilga,
Xonning, Sayidning ruhi bir maqom chaldirardi.

Shahid qahramonlarning ko‘rinmas qo‘llari-la
Otsiz qahramonlarni qal’ada qoldirardi!

9

Orqada qoldi devor, dushman xandaqi nari,
Xandaqning u yuzida ruhimizning shahari.

Panoh xonning, Voqifning, Notavonning shahari,
Cho‘qqilarda yangragan tor-kamonning shahari.

Har hovlidan yo‘llarga oshgan qizil gullari,
Jonli gullar ishqiga navoli Bulbullari.

Najaf beyning o‘chog‘i, Ahmad beyning makoni,
Najibeyli naslining bitmas vatan armoni.

Goh tarixga qo‘l otdi, goh bu kunni tindirdi,
Goh Go‘ro‘g‘lini yozib, millatni sevintirdi.

Ham buloq zam-zamasi, ham ummon sasi edi,
Uzayr musiqasi — ruh mo‘jizasi edi...

So‘z-suhbati tillarda, kayfi doim sog‘ bo‘lgan,
Ishi — san’at, musiqa yozib, yaramoq bo‘lgan.

Tog‘i, toshi, tuprog‘i tarixdan bu yana sir,
Bir bosqinchi nasliga qola bilarmi asir...

Sasim, so‘zim, musiqam bu qoyaning ustida,
Meni kim endiradi bu qoyaning ustidan?

Bu xandaqda yengilsang, devordan o‘tmoq bo‘lmas.
Shushani fath etmasdan, nariga ketmoq bo‘lmas...

Askar fursat topguncha zulumot kechalari
Tumanlar qorishadi — bu xabarchi tumanlik.

Sasidan yorug‘lashar shaharning ko‘chalari,
Qadamidan uyg‘onar yotgan ruhlar bir onlik.

G‘aflatdagi soqchilar ko‘z ochib ko‘rgunicha
Icharlar jon ichida o‘limning sharbatini.

Na anglay oladilar — qayga uchib ketdi jon,
Na so‘zga kirib, birdan anglatmas hayratini.

Ko‘kning tumani kabi qo‘ndi dushman boshiga
Yerdan, ko‘kdan kelgani bilinmagan bir askar.

O‘qlar, tig‘lar boshiga to‘lgan kabi yog‘sa-da,
Yurishi buzilmagan, tarqalmagan bir askar.

Sasi chiqmasdan dushman, og‘zidan chiqar joni,
Yot o‘lkadan kelganning ajali shunda yetar...

Dushman birdan to‘kilar, yo‘llarida Shushaning
Masjida to‘ldirilgan cho‘chqa suruvi yotar.

To‘shidan to‘lgan o‘rdu oqparrakday bichildi,
Lash-lushning ichidadir, uyg‘onmas bu uyqudan.

Dushman sichqonga do‘ndi, dushman shundoq kichraydi,
Siloh-la bir-biriga soldiradi qo‘rquvdan.

Gunohsiz go‘daklarning qoni tutgan ko‘zini,
Hisobin berajakdir bu qiyomat kunida.

Qo‘rquvdan aqli shoshib, bichar o‘zi o‘zini.
Bir o‘rdu qochib ketar yuz askarning o‘ngida.

Intiqom sahnasini qasddan cho‘zadi kecha,
Yolvorishlar qochirar tog‘larning uyqusini.

Tumanga aylanaroq, yerga yuz surtib kechgan
Askar arslonga do‘nib, quvar it yilqisini,

Tovoniga tupurib generali, zobiti,
Tankning, to‘pning ustidan turlanaroq qocharlar.

Bola-chaqa qotili chidamas yer zarbiga,
Tulki texnikasini qo‘llanaroq qocharlar.

Shushaning butalari do‘ndi ko‘lvor ilonga,
Sog‘ chiqqanlar bu yo‘ldan arisinlar, bitsinlar.

Hech kim jasorat qilib, osilmasin toliga.
Ochilib Lochin yo‘li, qo‘y, daf bo‘lib ketsinlar!

Shushaning kechasidan yot nafasni o‘chiring,
To‘kilmasin donimiz, tilimizni sayratgan.

Nurlari qaytib keldi Quyoshlarning, Oylarning,
Muqaddas bayrog‘imdir kechani oydinlatgan!..

* * *

Bu kun turkning bayrami, ishg‘olchining azasi,
Allohning hukmi bilan yozilgandi bu yoziq.

Uning “balo” degani Allohning balosidir.
Xojali qirg‘inining olingan qasosidir.

O‘rdum Jabroildadir, Orazdan biroz beri,
Orada six peshalar, necha jabha xatti bor.

Dushman hali bilmaski, kurashning daholari
Otsiz qahramonlarim, Yashma yigitlari bor.

Allohning hukmi ila yozilmishdi bu yozuv,
Millatimning zillati oxir yetgandi so‘ngga.

O‘ttiz yillik hasratin olingandi qasosi,
Bir million ko‘z boqardi o‘z vayrona yurtiga!

10

Murovning, Dalitog‘ning ustidan chekinar qon,
Qaddini asta-sekin tiklaydi horg‘in Vatan.

Intizori o‘ksinar, eslaydi sohillarni,
Jim bo‘lgancha uch rangli bayroq-la Xadofarning.

O‘ttiz yil umid berib bizni jim qilgan jimdir,
Umidini kesganda Ozarboyjon o‘rdusi.

Bayram havosi kezar shaharlarni, kentlarni,
Poylanadi har oqshom g‘alaba tvit[1]lari.

[1] **Tvit** — Twitter tarmog‘ida tarqaladigan xabarlar.

Oh dunyo, g‘addor dunyo, asiridir yolg‘onning,
Boshini uzib kechmas bu zaharli ilonning.

Ko‘hna salib havasi aylanadi boshida,
Necha o‘lka saf tortar yana din savashida.

Tangri ham asir tushdi siyosatga, sir emas,
U o‘zi bir bo‘lsa-da, elchilari bir emas.

Shukur, yiqib to‘zitar bu chirigan butlarni
Qonimdan qanot qoqqan g‘alaba tvitlari.

Shayton o‘ksik, o‘ynatar armani kilsa[1]sida,
Na Alloh sevgisi bor, na inonch hiylasida.

Har o‘tganga qo‘l ochar, har yondan ulush olar,
Do‘stga xiyonat etar, mardga nomardlik qilar.

Insonlikdan asar yo‘q, faqat xayolida qon,
Na nashadan kechadi, na ayrilar mulladan.

Buzar bu o‘yinlarni yurtimning yigitlari,
Yoyiladi dunyoda g‘alaba tvitlari.

Burgut kabi ochilar Shushaning qanotlari,
Kezar Sidir dalasin Qorabog‘ning otlari.

Haq tutar o‘z yerini, ifor taratar shirin,
Aritar motamini sasimiz Kalbajarning.

Ochar o‘z qo‘llarini Kirs yo‘li, Lochin yo‘li,
To‘lg‘onar oyog‘imda tog‘larning nekbin yo‘li.

O‘tib borar askarim devorlarni, tutlarni,
Tilida qo‘shiq kabi g‘alaba tvitlari!

[1] **Kilsa** — armani cherkovi

Bu bizning haq ishimiz, adolat savashimiz,
Intiqom ola-ola tiklanadi boshimiz.

Yur, askarim, ur! — deya amr etadi qo‘mondon,
Qo‘y, bir dam yurtimizda to‘kilmasin nohaq qon.

Qaytsin Qorabog‘ga yana xushbaxt chog‘imiz,
Boshimizning ustida uch rangli bayrog‘imiz!..

Qovur o‘z yog‘lariga yovuzlashgan itlarni!
Oliy bosh qo‘mondonning g‘alaba tvitlari!

11

Minadan tozalansa, ketardik Qorabog‘ga,
Balkim tovba qilmoqqa, balkim uzr so‘rmoqqa.

Dalalarni uyg‘otib, kamand otib har tog‘ga,
Sizni ko‘p bo‘zlatgandik, kechiringiz, demoqqa.

O‘ylama, tosh jonsizdir, o‘z umri bor, tosh gullar,
So‘raydi tug‘ma tilda, ko‘zgu tutar ming yillar.

Ammo o‘lchov boshqacha uning tosh xotirida.
Uning vaqt mezonining oti bilinmas sira...

Har qoya million yilning harddiski[1]dir, shuni bil,
Samoning bor saslari yozilgandir bir boshdan.

Yulduzlarning tili ham balkim unga yot emas,
Balkim qo‘zg‘olib qolar bir yuzali uchishdan.

Qog‘ozlar yondirilar, papiruslar chiriydi,
Faqat tuproq kitobin buzilmas yozuvlari.

[1] **Harddisk** — Elektron xotira

Daraxt kabi, o‘t kabi bu tog‘larga bitilar
Naslimizning ming yillar yashagan orzulari.

Endi o‘tlar sarg‘aydi, uyimiz kulga do‘ndi,
O‘lim nafasi esdi har jarlikdan, har izdan.

Biz ham tiriklik kabi tizimiz-la surindik,
Qutilsak uyimizda qochqin kechmishimizdan.

Bahorda daraxt kabi chechaklanar havasim,
Titilgan ko‘chlarim-la kelaman Dalitog‘ga,

Bu shahar kechalari siqilganda nafasim
Luqmon tog‘lar yangidan yo‘l berar yashamoqqa.

Istisuvning boshida jimmas sozning safosi —
Yoniq devorlarda ham ilhom yeli chinqirar.

Ola ko‘llar ustida jo‘shar yetim havasim,
Ot uchar, toshlardan ham samo meni chaqirar.

Bu tosh kitoblarida dunyo farqli, vaqt ayri,
Toshlarning ko‘zgusida bir gal qara qo‘lingga.

Ko‘r, qaysi go‘zallik-la inson rizqin izlaydi
Bulutlarning shaklida, yulduzlarning tilida.

Ko‘rsak, nomsiz buloqlar kabi qo‘noq keltirar,
Shomil qardoshimizning Kurd sozlari saslansin.

Bu tog‘lar azal kundan mard o‘g‘illar quchog‘i,
Qo‘y, yana har hovlida Oshiqlari boshlansin.

Tog‘larning ham ruhi bor — u bizning ruhimizdir,
U insonning ishqidir, pirga, o‘choqqa do‘ngan.

Oltoydan Qorabog‘ga nizomiy o‘rdumizdir,
Qora tumanlarda ham yana yuksak ko‘ringan!

"Yor-yorini istasa!" — tog'lardan bir qiz sasi,
Abadiy bir yoshlik-la sevgisini o'qiydi.

Yana har kun Turchsuvda bir Go'ro'g'li na'rasi,
Yana qizlar davrada Nigor ishqin to'qiydi.

Cho'qqilarga qalqqancha, kuchimiz uyg'onadi,
Bu kuch tarixdan kelgan ulug' Turon kuchidir!

Savalandan Tangriga, Ag'ridan Oltoylarga
Ming yillardir bor bo'lgan bir qahramon kuchidir.

Suframdan hissa so'rar bir emas, ikki emas,
Shunchaki qorni to'yar, unutar kechmishini.

Bu tog'lar o'z suvidan yo'lchiga ham suv berar,
Haromga qo'l uzatsa, sindiradi tishini.

Yo'li Tabrizdan o'tar Qorabog'ning! — degandi
Bir o'lka qahramoni, chorasizlik onida.

Sen dema Qorabog'dan o'tarmish Tabriz yo'li! —
Millat hukmini berdi bu savash maydonida.

12

Ko'zing oydin, Millatim, qutqarding alamlardan,
Yana tahqir moshini ustingga kela bilmas.

Biroq armani puli aralashsa o'rtada,
Dini, irqi pul bo'lgan yotib tinchlana olmas...

Dunyo bo'ynini egar boyliklarning oldida,
Chorasiz, qo'li bog'li so'ngini kutar ekan.

Ayiqlarga quvongan tulkini boqmog'ing-la
Mazlumlarning ko'nglida sen bo'lding umid ekkan.

U qo‘llarki, cho‘zildi senga og‘ir kuningda,
Qardoshlarning qo‘lidir, tilloga tutilmaylik.

Yuzda birodar deya, dushmanga tayanch bo‘lgan,
Dinimga g‘anim bo‘lgan shaytondan qutilaylik!

13

Ey, ko‘hna Ozarboyjon!
Haq in’omi uzilmas,
Sening zafar kuningga yozarman yangi doston.

Ikki bitmas nag‘masi bo‘ladi bu dostonning,
Birinchisi Turkiya, ikkinchisi Pokiston.

Adolatdir yo‘limiz, buni Alloh ko‘rgandi,
Adolatga suyangan bermas nomardlarga jon!

Bu nomus jangohida sasingga sas qo‘shardi
Anqaradan Turkiya, Karachidan Pokiston!

Uch bayroq dolg‘alanar, uch qardoshing sening-la.
Artar ko‘z yoshlarimni ikki qo‘l, aytgin vijdon.

Bir duo ham ortadi duomning sadosida,
Olqish senga, Turkiya! Olqish senga, Pokiston!

14

Bir vaqt Nuri podsho ham keldi qardosh uyiga,
Tirgak bo‘ldi yurtimda ming ko‘ngil saroyiga,

O‘chog‘imiz kullanib, umidimiz so‘nganda,
Boku, Shusha, Zangazurqon ko‘liga do‘nganda.

Tiflisdan, Qorabog‘dan, Naxchivondan kechmishdi.
Qancha gizli toladan, qancha qondan kechmishdi.

Usmonli zo‘r ahvolda, qardoshning holi ojiz,
Bir yonda dashnoq-la rus, bir tarafda ingliz.

Butun o‘yinlar bitdi, butun yo‘llar tutilmish,
Boku ularning bo‘lib, millatim unutilmish.

Unda ham o‘ynar edi dushman siloh-sarvat-la,
Boku temir zirh ila, poshshom talashar ot-la.

Ammo otni uchirgan belindagi g‘ayratdir,
Dushmanni tiz cho‘ktirgan yosh podshoga hayratdir...
Oradan yuz yil o‘tib, dunyo ko‘hna tegirmon,
Ezg‘ilamoq navbati — nishonda biz, musulmon!

Sirada biz — Adolat! Haq so‘zlab, haq istagan,
O‘z halol tuprog‘iga ega chiqmoq istagan!

Zamon aytar tog‘ining, toshining qadrini bil,
U yordamga shoshilgan Podshoning qadrini bil!

Ko‘king, gavdang bir bo‘ldi, butog‘ing ham bir bo‘lsin,
Saqla bu sarhadlarni, tuprog‘ing ham bir bo‘lsin!

Men bu yo‘lning oqiman,
Oqiman, chirog‘iman,
Sur ko‘zingga, nur kelsin
Turkiston tuprog‘iman!

Tuprog‘ing bir bo‘lganda ko‘zingga nur keladi!
Sening adolatingda dunyolar tinchlanadi!

Turon desa qo‘rqarlar, sen ham buyuk Turon bo‘l!
Bu nafrat to‘kkanlarning umidiga qiron bo‘l!..

Noyabr, 2020

YO‘LUSTI SUHBATI

va yoki G‘alabadan 25 yil oldin yozilgan natija

... Ko‘rsak, yana Shushaning bol berarmi havosi,
Tartarning nag‘masiga qani kim quloq solar.

Qo‘ldan ketgach Hakari, qandoq bo‘g‘ar hirsini,
Yozuvli toshlarimiz kimga berar darsini?

Bizlarni unutdimi qani Ko‘kcha, Zangazur,
Tabriz nega so‘zlamas, Ardabil nega jimdur?
Bu ahkom dog‘laganda buzmaslar-ku orani,
Ne qadar vaqt kerakdir tuzatmoqqa yarani?

... Har so‘zning boshi savol, har savolning so‘nggi g‘am,
Bu g‘amlarning ortida bir g‘amsiz sahar ko‘rsam.

Aytarsan, bitadimi bu azoblar, og‘riqlar?
Aytarman, ha, bitadi!
Umrimiz u yillarga yetadimi?
— Yetadi!

Ezajakmiz Shushada dushmanlarning burnini,
Armani kimdir, turkning yengolmas g‘ururini?

Bu ham G‘arbning fatvosi, bu ham bir sirdir, bo‘ldi,
Yo‘qsa, u bizni yengsin?
Qaysi asrda bo‘ldi?

Bu kuch qaytib keladi safardan do‘ngan kabi,
Tog‘lar ham yuksaladi ruhimiz tingan kabi!

Quriladi Qorabog‘ avvalgidan yana shan,
Bardadan Ko‘kchagacha.

Tuzalajak yaralar, bo‘lsa ham qancha yiring,
Belini tiklagaydir keksa Xudafarning!

Ag‘damning oq damlari,
G‘azalgul hisorlari.

Qalbajar yaylovlari,
Olako‘llar ustida soz yangragan chog‘lari.

Har buloqning ustida cho‘zilgan majlisimiz,
Nurli tog‘imizgacha nurin sochgan izimiz.

Turbatlar, qurbongohlar,
Jafokash ruhlarimiz,
Sarvatimiz, borimiz.

O‘n chodirli ovuldan ming uyli kentlargacha,
Qog‘oz ustida yonib, tuzilgan bandlargacha.

Yilqilarning otidan suruvning itigacha,
Hakarning balig‘idan,
Murovning sutigacha.

Har ne keladi qaytib,
Oladi o‘z joyini!
Elimiz unutadi bu siniq kunlarini.

Tog‘larga ruh keladi Shikastadan, Maqomdan,
Dushmanlarning qo‘lini uzarman bu yoqamdan.

Millatim tiklanadi qirq million, ellik million,
Bu birlik nidosini qit’alar eshitadi.

Ganjadan Naxchivonga, Naxchivondan Qazvinga
To‘siqsiz, moneliksiz yo‘llarim cho‘ziladi!

Suyakka tirkalsa gar asorat pichoqlari,
Eshigim ortidadir, demak, xushbaxt chog‘larim.

Tarix qadamlarini to‘xtatmas, bil biroq —
Kimning bo‘lsa berari, kimningdir olajagi.

Ozarboyjon ichidan tug‘ilar, diqqat-la boq,
Xalqning ruhi tiklansa, yuksalar kelajagi!

* * *

... Bu so‘zlar yozilganda hali o‘tgan asr edi.
Hali Qorabog‘imiz Hayastonga asir edi.

O‘lka zaif, imkonsiz, hali sustdir millatim,
Arxali ko‘ppaklaring siloh-la yengmoq qiyin...

Ishg‘olchi ko‘z yoshi-la qo‘l otardi har yonga,
Dunyo bizni eshitmas, dunyo unga inongan.

Ammo Turkning sharafi taxtidan enmagandi.
Ichimdagi umidlar batamom so‘nmagandi...

RAMIZ RAVSHAN



BIROZ UZUN BO‘LDI UMRIM, SHEKILLI...

Biroz uzun bo‘ldi umrim, shekilli,
Ehtimol, do‘stlar ham toriqdi biroz...

Meni yedirmoqdan charchadi dunyo,
suvlari charchadi, noni charchadi.
Meni kezdirmoqdan bezdi yo‘llari,
ko‘zimga boqmoqdan osmoni charchadi.
Izlaganlar istab charchadi,
Badgumon yomonlab charchadi —
biroz uzun bo‘ldi umrim, shekilli.

Yo‘llar tovonimning ostidan qochar.
Deydilar tush boshqa,
bunaqa bo‘lmas,
Shoirda ishtaha bunaqa bo‘lmas —
do‘stlar ham o‘zgacha boqar yuzimga.
Qanchalar do‘stim bor,
shahar to‘ladir,
Ko‘pining ko‘nglida kadar to‘ladir.
Jo‘radan, qardoshdan,
o‘zgadan o‘ksib,
Baxtidan, o‘zidan, ko‘zgudan o‘ksib,
ko‘pi yig‘lamoqqa bahona izlar.
Oz qoldi, oz qoldi, chidang, degayman,
Do‘stlar, chidang, men ketajak kun yetar.

Hech narsaga kuchim yetmasa-da,
qora kiyim kiydirmoqqa,
do‘stlarni yig‘latmoqqa
kuchim yetar...

Lekin kuchim yetmas, na qilay, axir,
na qilay, axir, men sho‘rlik,
kuchim yetmayapti bu dunyodan ketmoqqa.
Bu dunyo Darband qal’asi,
Na yo‘li bor, na yo‘lkasi,
Qardoshim, odam bolasi,
kuchim yetmas bu dunyodan ketmoqqa.

Yashil-yashil maysalari
chirmashar qo‘l-oyog‘imga,
Rangpar bulutlari bosar boshimdan,
Soylari suv olar ko‘zim yoshidan,
igna-la go‘r qaza-qaza,
tizzam-la yer keza-keza
O‘tdim bu umrimning o‘ttiz yoshidan —
kuchim yetmas bu dunyodan ketmoqqa.

Ketimdan og‘ir burganlar,
Shoirlarning ehsonini yeganlar,
Shoir odam yosh o‘ladi, deganlar,
Mening shoir bo‘lmoqqa kuchim yetmas,
O‘ldiringlar meni, o‘lmoqqa kuchim yetmas —
kuchim yetmas bu dunyodan ketmoqqa…

QADRIMNI BILMADI BU ODAM MENING...

Bilmadim, bu qaydan topdi umrimni,
Bir asov ot kabi chopdi umrimni,
Tog‘larga, toshlarga otdi umrimni.
Bu odam qadrimni bilmadi mening —
Allohim, ol meni buning dastidan!

Koshkiydi, umrimni bu yer yuzida
Bir o‘zga odamga duch aylasayding,
Meni odam emas, qush aylasayding
Yoki bir qop-qora tosh aylasayding.
Meni bu odamga sen nega qo‘yding,
Allohim, ol meni buning dastidan!

Ol meni, ber meni, o‘zgalarga ber,
Siniq oynalarga, ko‘zgularga ber,
Bo‘linay, yuz burda, ming burda bo‘lay.
Bu odam yuzimga boqa olmasin,
Meni oynalarning siniqlaridan
to‘play olmasin hech, yig‘a olmasin —
Allohim, ol meni buning dastidan!

Bo‘linsam, dardim ham bo‘linar, balkim,
har dardim yuz burda, ming burda bo‘ldi.
Bir dardim qolmadi o‘zimdan ulkan,
barcha dardlarimdan men ulkan bo‘ldim.

Bu yerning ustida, osmon ostida
bo‘linsam, har burdam har yonga tushsa....
Qachondir, dilingning shod soatida,
Allohim, qaytadan yodingga tushsam,
Yangidan to‘plasang siniqlarimni,
Siniq qo‘llarimni, oyoqlarimni,
Og‘zimni, burnim va quloqlarimni,

Allohim, yangidan yaratsang meni,
dunyoda eng go‘zal ko‘zgu bo‘laman.

Yangidan dunyoga yo‘llasang meni,
bu odam bo‘lmayman, o‘zga bo‘laman —
Allohim, ol meni buning dastidan!..

QORA KIYGAN AYOL

Kishilar bir bo‘lmas, otam bolasi,
qo‘rqog‘i bor,
mardi bor.
Ammo har kimning o‘lganidan so‘ng
qabri uzra yig‘laguvchi
Bir qora kiyingan go‘zal ayoldan
. umidi bor.

Sen o‘lganda
kim bo‘ladi ko‘zlaringni bog‘lagan?
Do‘stingmi bo‘ladi?
Yotmi bo‘ladi?
Bu dunyoda, balkim, sen deb eng ko‘p yig‘lagan
Sen eng ko‘p yig‘latgan xotin bo‘ladi.

Ko‘z yoshlari yuvar qabrtoshingni,
Qabringda to‘lg‘onib
deysan, Xudoyim,
Yillar bo‘yi men yig‘latgan bu ayol
qayda yana asragandir
bu qadar ko‘z yoshini?!

Biror marta
na sochini siladim,
na-da ko‘z yoshin artdim,
Qorachig‘imga botar endi
sochining har tolasi,
Yillar bo‘yi
bu ayolga men, axir, dard yetkazdim.
Nega endi chekar dardimni?!

Bu ayol qabr toshimni
o‘pib silaguncha,
Mushti bilan ursa, ursa yaxshi edi,
Qabrimning ustida qon yig‘laguncha,
Qarg‘ab, qaqshab tursa yaxshi edi.

Ket, keta qol,
qora kiygan ayol,
Yig‘ingni to‘xtata qol, qora kiygan ayol.
Bu qabr ham ming qabrning biridir,
Yetar, qabrtoshni bosma bag‘ringga,
Barcha men deb yig‘laganlar tinchidi,
Bas, go‘r ichiga tomayotir, yig‘lama…

SHAHARNING YOG‘DULARI

Bu shaharning yog‘dulari
Menga jim qo‘nishar, singlim.
Ko‘zlarimdan o‘tib-o‘tib,
Yuragimga tushar, singlim.

Yog‘du tushar ust-boshimga,
Ust-u boshim yorug‘lanar.
Yog‘du tushar ko‘z yoshimga,
Ko‘zda yoshim yorug‘lanar.

Yorug‘ tushar kunlarga-da,
Oylarga-da, yillarga-da,
Mendan biroz ilgarida
O‘ttiz yoshim yorug‘lanar.

... Uzoqlashar, uzoqlashar
Qishlog‘imiz qorong‘usi.
Yana ham qop-qoralashar
Qishlog‘imiz qorong‘usi.

Oh chekarman, ohim ketar,
Borim ketar, yo‘g‘im ketar,
Kechalari uyqum ketar
Qishlog‘im qorong‘usiga.

Yangi ko‘ylaging egningda,
Yangi ro‘moling yelkangda,
Qayga ketarsan, ey momo?!
— Qishlog‘im qorong‘usiga...

Kesdilar, yana bitdingiz,
Umrimni yashil etdingiz,
Daraxtlar, qayga ketdingiz?
— Qishloqning qorong‘usiga...

Bu shaharning yog‘dulari
O‘rnimdan qo‘pordi meni,
Tirik qo‘ymayin, qo‘ymayin
Yog‘dular obordi meni.

Ko‘p turdim, tura bilmadim,
Bunga ne chora — bilmadim,
Tosh otib ura bilmadim
Shaharning yog‘dularini.

Ko‘ndim oxiri, yarashdim,
Dardimni aytdim, tanishdim.
Qorishdim, men ham qorishdim
Shaharning yog‘dulariga.

Yorug‘landim, yorug‘landim,
Kimman — bilinmayman endi.
Yorug‘landim, yorug‘landim,
Qarang — ko‘rinmayman endi...

ZERIKISH

Bu qandayin charchoqdir,
Axir, bundoq kim zerikar?!
Cho‘ntakda qo‘lim zerikar,
Og‘zimda tilim zerikar.

Zerikar qoshim-qovog‘im,
Zerikar ko‘rpam-to‘shagim,
Uyga kirsam — uy-eshigim,
Yo‘l yursam, yo‘lim zerikar.

Yo‘limga qizlar chiqsalar,
Kulib yuzimga boqsalar,
Yoqamga bir gul taqsalar,
Yoqamda gulim zerikar.

Qayga otay bu qayg‘uni?!
Na boshi bor, na yakuni…
Bilaman, jim poylab meni
Qaydadir o‘lim zerikar.

SHAM

Fuzuliy yodiga

Yuz yillardir bir sham yonar,
Shamollar so‘ndira bilmas.
Ming-minglab qo‘llar cho‘zilar,
Shu’lasini tera bilmas.

Qorong‘udir so‘l-u sog‘i,
Yongan shamning ne gunohi?!
Eriydi, to‘kilar yog‘i,
O‘lar, o‘lar, o‘la bilmas.

Tomchi-tomchi, zarra-zarra,
Kundan kun uzilgan jon-la,
Yig‘laydi har yig‘lagan-la,
Har kulgan-la kula bilmas.

Isintirar sho‘rliklarni,
Qo‘rqitadi bo‘rilarni.
Yoritadi narilarni,
O‘z tubini ko‘ra bilmas.

KETGANLAR QAYTAR UZOQDAN

Ketganlar qaytar uzoqdan,
Cho‘ponlar qaytar ovloqdan,
O‘pichlar qaytmas yonoqdan,
So‘z quloqdan qaytgan emas.

Xudoning bergan kechasi,
Yonar, o‘t olar nechasi,
Parvonalar nasl-nasl
Shamchiroqdan qaytgan emas.

Shoir odam kunduz-kecha
O‘z qonini simirib ichar.
Bo‘yiga bichgan oq kafan —
Oq varoqdan qaytgan emas...

QORNIDA TO‘QQIZ OY KO‘TARGAN AYOL

Kecha-kechagacha yosh bolang edim,
bir o‘ynoq, telbaroq o‘g‘il edim, ona.
Kunduzdan, kechadan,
cho‘ldan, ko‘chadan,
Dushman ta’nasidan,
do‘st ginasidan,
Necha qiz ko‘zidan, qiz yuragidan
uzildim, sigrildim, sug‘rildim, ona.
Qaytadan qaytdim men o‘z avvalimga,
bir ayol ichiga yig‘ildim, ona —
to‘qqiz oy qornida ko‘targan ayol.

Bu xira ko‘zlarim tiniqdi birdan,
birdan yuragimning tubi ko‘rindi.
Dunyoning yo‘llari uzildi birdan,
bo‘ynimda tolening ipi ko‘rindi.
Umrim kosa kabi tushdi qo‘limdan,
sinmagan narsalar sinuvchi bo‘ldi.
Butun yo‘llarimni olding qo‘limdan,
butun yo‘llarimning so‘nggi sen bo‘lding —
to‘qqiz oy qornida ko‘targan ayol.

Qornida to‘qqiz oy ko‘targan ayol,
boshimni tizzangga qo‘yib yig‘larman,
Bu o‘tgan umrimning gunohlarini
ko‘zimning yoshi-la yuvib yig‘larman.
Yuragim ming yerdan ming bir dard chekar,
dardim-u g‘amimni bo‘g‘a bilsayding.
Bu o‘tgan umrimning ustidan chizib,
koshkiydi, qaytadan tug‘a bilsayding —
to‘qqiz oy qornida ko‘targan ayol.

Balkim, boshqa odam bo‘lardim shunda,
bu g‘amni o‘zimdan quva olardim.
Balkim, sevinardim, kulardim shunda,
balkim, seni ham xush seva olardim.

… Bir yo‘l bor
cho‘zilar to o‘limgacha:
Bu yo‘l sabrimdir mening.
Qornida to‘qqiz oy ko‘targan ayol,
Qorning qabrimdir mening…

DUNYO MENGA JUDA TANISH

Yursam, izim ulkanlashar,
Jimsam — so‘zim ulkanlashar.
Boqsam, ko‘zim ulkanlashar —
Dunyo menga juda tanish.

Uning tog‘i-dashti tanish,
Yozi tanish, qishi tanish.
Ko‘zlarimning yoshi tanish,
Dunyo menga juda tanish.

Avval ham kelganmanmi yo?
Kelgan-u ko‘rganmanmi yo?
Yashagan, o‘lganmanmi yo —
Dunyo menga juda tanish.

FAQAT SENING YUZING KULSIN

Mening yuzim kulgan emas,
Faqat sening yuzing kulsin.
Meni ko‘rsa: “Amaki!” — deb,
O‘g‘ling kulsin,
qizing kulsin.

Men-ku senga yarashmadim,
So‘z demadim, taloshmadim.
Yulduzimiz yonishmadi,
Kel,
sening yulduzing kulsin.

Yuz yil g‘am ko‘rma, qarima,
Bir sahar chiqib yo‘limga,
Tuz sepsang eski yaramga,
Yaram kulsin,
tuzing kulsin...

ZULFLARINGNI YEL BOSADIR

Sochlaring tebranar tinmay,
Ro‘molingni yel bosadir.
Talpinib, tuta olmayman,
Ushla, meni ter bosadir.

Yuvindim, terda yuvindim,
Oxir charchadim, toyindim.
Qaytdim, ko‘rdimki, to‘yingdir —
Ko‘rdim, seni er bosadir.

Sochingga gullar taqarsan,
Barmoqqa xino yuqarsan.
Sen unda ko‘kka boqarsan,
Bunda meni yer bosadir...

QO‘Y BO‘LMOQLIK QIYIN ISHDIR

Bu dunyoning azobi ko‘p,
Haqqidan ham hisobi ko‘p.
Qo‘yidan ham qassobi ko‘p —
Qo‘y bo‘lmoqlik qiyin ishdir.

Bo‘yningda arqon sollanib,
Bir tutam o‘tga aldanib,
Yeb, semirīb, lazzatlanib
Qo‘y bo‘lmoqlik qiyin ishdir.

Kundalar qoraygan yurtda,
Pichoqlar jon olgan yurtda,
Cho‘ponlar och bo‘lgan yurtda
Qo‘y bo‘lmoqlik qiyin ishdir.

It bo‘lib hurmadik oyga,
Yengdi bizni istihola,
Qo‘zi bo‘lmay turib avval
Qo‘y bo‘lmoqlik qiyin ishdir.

QURBONLIQQA OLINGAN QO‘ZI

Bu hovlida yotgan qo‘zi,
Uyquda ko‘rganing nedur?
Nafaslaring totli, uzun,
O‘t kabi terganing nedur?

Totlanib, vaqting chog‘lanib,
Qizil bo‘yinbog‘ bog‘lanib,
Tumorlanib, bezaklanib,
Bu uyga kelganing nedur?

Sevinarsan, hozir to‘qsan,
Yashil o‘tdir qayga boqsang...
Men bilaman — qurbonliqsan,
Bas, sening bilganing nedur?!

BO‘RI

Voqif Samad o‘g‘liga

Balkim, men ham bo‘ri edim
Dunyoning azal vaqtida,
Hali tuzuk tili chiqmay,
Har jonning sassiz vaqtida.

Har daraxti, guli nomsiz,
Chumolisi, fili nomsiz,
Ko‘p narsalar hali nomsiz
Aylanib, kezar vaqtida.

Bir edi hammaning baxti,
Yo‘qdir xushbaxti, badbaxti,
Baliqlarning uchgan vaqti,
Qushlarning suzar vaqtida.

Balkim, so‘z ham bekor edi,
Hamma narsa dilbar edi,
Bo‘rilar ham yemas edi
Dunyoning go‘zal vaqtida.

NOZIK KAPALAK MURDASINI TALASHAYOTGAN QORA-QORA CHUMOLILAR

Qora-qora chumolilar,
kapalakni nayladingiz?!
To‘plandingiz, to‘p bo‘ldingiz,
Qanot-qanot qo‘pordingiz,
Tashidingiz, obordingiz,
kapalakni nayladingiz?

Ayrildi kun yorug‘idan,
Ko‘kning kamalak tug‘idan,
Qulog‘im bitdi, tom bitdi
Gullarning qichqirig‘idan,
kapalakni nayladingiz?

Dardi tushar og‘izlarga,
Dod aylar, chaqirar sizni.
Na yedirar, na to‘ydirar,
Na qishdan chiqarar sizni,
kapalakni nayladingiz?!

ODAM

Do‘stim Notiq Safarovga

Endi meni kim ovutar,
Ey, meni ovutgan odam?!
O‘zga dardin ko‘rgan vaqti
O‘z dardin unutgan odam.

Xush so‘zini, qilig‘ini,
Go‘dakday sof yo‘rig‘ini,
Dasturxonin bor-yo‘g‘ini
yer-u ko‘kka tutgan odam.

Dunyoda na suv, na o‘t bor,
Dunyoda na do‘st, na yot bor,
Allohdan keyin bir ot bor:
Odam,
Odam,
Odam,
Odam!..

AYRILIQ

Yana bir shaharda yuzma-yuz keldik,
Nachora, boshqa bir shaharimiz yo‘q.
Ehtimol, biz baxtli bo‘la olardik,
Ehtimol, baxtlimiz,
xabarimiz yo‘q.

Oradan shuncha yil o‘tib ko‘rganda —
Taniy olmadim men,
meni kechirgin.
O‘ylardimki, sensiz o‘lib qolarman,
Men o‘lmadim sensiz,
meni kechirgin!

“O‘lmadim...” — deyapman, ne bilay, axir,
Ehtimol, men sensiz o‘lib qolganman,
Qabrsiz, kafansiz o‘lib qolganman.
Ehtimol, biz unda ayrilmasaydik,
Na men endigiydim,
na sen endigi —
Ayrildik, shaytonni kuldirdik unda:
Bu yilning,
bu oyning,
bu kunnidagi
Mana shu ko‘chaning shu burchidagi
meni ham, seni ham o‘ldirdik unda.
So‘limiz, sog‘imiz odamga to‘la,
Qo‘l ushlashib erlar, xotinlar o‘tar.
O‘zidan xabarsiz,
umrida ming bor
O‘zini o‘ldirgan odamlar o‘tar,

O‘tar o‘z qoniga botgan odamlar.
Darvoqe, qon qani?
Qon, axir, yo‘qdir...
Hamma gunohkordir dunyoda,
ammo
Dunyoda hech kimning gunohi yo‘qdir.

Bizsiz bitilmishdir bu tole, bu baxt,
Palahmondan uchgan bir juft toshmiz biz.
Balkim, bu dunyoda
o‘n-o‘n besh yilmas,
Bundan ming yil avval ayrilmishmiz biz.

Halol yo‘limizni qo‘yib,
ne uchun
Adashdik, bir o‘zga yo‘ldan ketdik biz.
Balkim, ming yil avval sahv tushib nedir,
Ming yillik xatoga qurbon ketdik biz.

Almashdi o‘rnini, balkim, qish-bahor,
Qorishdi dunyoning shahari, kenti.
Balkim, o‘z ichida o‘gay onalar
O‘gay bolalarni ko‘tarar endi.

Umrim boshdan oyoq yolg‘ondir, balkim,
Toleyim o‘zgadir rostdan ham mening.
Huv yo‘ldan o‘tgan qiz
onamdir, balkim,
Ehtimol, o‘g‘limdir bu o‘g‘lon mening.

Bu yolg‘on umrimda
sen o‘zing nesan?
Balkim, hech sevgilim emassan mening.
Onamsan, singlimsan,
momomsan, kimsan?!
Faqat Alloh bilar, kimimsan mening.

Bizni kim ayirar bu ayriliqdan,
Yetmas dodimizga na yo‘l, na ko‘prik.
O‘liksan, tiriksan, har nesan, to‘xta!
To‘xta, hech bo‘lmasa, qo‘lingdan o‘pay…

Degaysan: “O‘lganman men, o‘likni o‘pma…”
Qo‘limning kaftida
qo‘ling uvushar.
Degaysan: “Xayringni bersin, qo‘limni o‘pma,
qaragin, qo‘limdan qon isi kelar…”

YO‘QLOV

Rasul muallim va Nigorxonim xotirasiga

Zolim dunyo — o‘z ishida,
Kelishida-ketishida,
Kel, yig‘laylik, yetmishida
Sevgilidek o‘lganlarga.

Yuragi ming xil dard ko‘rib,
Ko‘zi ming xil sifat ko‘rib,
Go‘zal-dilbar umr surib,
Go‘zal-dilbar o‘lganlarga.

O‘tib butazor to‘sindan,
Tikonlarning orasindan,
Qon sizsa ham yarasindan,
Qo‘lda chechak o‘lganlarga…

BU DERAZA SENIKIDIR

Senikidir bu deraza,
Ipak pardasi qalqadir.
Derazangda begonaning
Qora ko'lkasi qalqadir.

O'tib so'l-u sog'dan endi,
Boqarman uzoqdan endi.
Men chekkan bu ohdan endi
Bu yerning yuzi qalqadir.

Tebranar maysa, yaprog'i,
Tebranar tosh-u tuprog'i.
Yerdan ko'kka chiqar ohim —
Oy-u yulduzi qalqadir.

Qalqadir eshik-derazang,
Xo'rsinib, yo'lga boqarsan.
Zilziladir, yo'qsa nega —
Derazang o'zi qalqadir?!

BOSHI KESIK GO‘ZAL TUT

Pilla qurtiga yedirish uchun chavaqlangan tutlarga

Boshi kesik go‘zal tut,
bu dog‘ni senga kim suqdi?
Boltani senga kim urdi,
pichoqni senga kim suqdi?

Ipak-ipak yaproqlaring
qurtlar aro talandimi?
Bilakday oq butoqlaring
o‘choqlarga qalandimi?

Kuydingmi qismatning achchiqligidan?
Zolimlar qaytmadi zolimligidan,
Yiqilding qo‘l yetmas balandligingdan,
boshi kesik go‘zal tut...

Go‘zal tutim, izillama, bo‘zlama,
na boltalar, na pichoqlar qolajak.
Samovotdan yiqilsang-da, g‘am yema,
sen yiqilgan samovotlar qolajak.

Dunyoning qurtlari o‘tar,
qori, yog‘ishi o‘tar,
Qator-qator qushi o‘tar,
Tosh otarlar — toshi o‘tar
sen yiqilgan balandlikdan.

Umidli ko‘zlar tikilar,
Yosh niholchalar ekilar
sen to‘kilgan balandlikda...

Mendan senga salom bo‘lsin,
boshi kesik go‘zal tut!
Bolam bo‘lsa, bolang bo‘lsin,
boshi kesik go‘zal tut.

Egilib ko‘ksingga boshim qo‘yarman,
suyagim nay qilib chalasan mening.
Poyingga bir uy bo‘lar oshni uyarman,
uyimning tirgagi bo‘larsan mening.

Go‘zal tut,
yaralaring bitsin, sog‘aysin.
Bu dunyoda na boltalar,
na pichoqlar qolajak.
Samovotdan yiqilsang-da,
yana joning sog‘ bo‘lsin,
Bu dunyoda
sen yiqilgan samovotlar qolajak…

BO‘G‘ILAR

Dunyoning suvi bulg‘anar,
Baliq deb qarmoq bo‘g‘ilar.
Bulg‘anar, ko‘ki bulg‘anar,
Ko‘kida Alloh bo‘g‘ilar.

Ko‘p cho‘kkan yerida cho‘kar,
Dodiga kelgan ham cho‘kar.
Aqlli chuqurroq cho‘kar,
Sayozda ahmoq bo‘g‘ilar.

Birovi nag‘mali-sozli,
Birovi boshi qafasli,
Birovi ko‘ylak-libosli,
Birov yalang‘och bo‘g‘ilar...

YIG‘LAMA, BINAFSHA MOMO

Yig‘lama, Binafsha momo,
Axir, ne bor yig‘lagulik?
Sovg‘a ber besh nevarangga
Tugunchali, bog‘lamali.

Kim ko‘z tutdi, kim unutdi,
Kim bu darddan xabar oldi?
O‘g‘illarni urush yutdi,
Nevarangni shahar oldi.

Oq sochlar deb dard aylama,
Yashil-yashil o‘tlar chiqsa.
Ko‘kni tutib lo‘pillama
Yig‘lagan bulutlar chiqsa,
Yig‘lama, Binafsha momo!..

Yozasan: “Ko‘zim yo‘ldadir...”
Yozasan: “Qaddim bukildi...
O‘t o‘rgan qo‘llar qaydadir —
O‘tlar sarg‘ayib, to‘kildi...”

Maktub yozmoqqa vaqt qani,
Har dam o‘zing yo‘qla bizni.
Sarg‘ayib so‘lgan o‘tlarning
Qarg‘ishidan saqla bizni, —
Yig‘lama, Binafsha momo!..

Boshingdan quv xayollarni,
Xayollardan bosh aylanar.
Poyezdlarning qatoriday
Ko‘zlaringda yosh aylanar.

Na yaqinda, na uzoqda,
O‘roq o‘rgan pichandamiz.
Hali odam bo‘lmasak-da,
Qo‘rqma, odam ichindamiz,
Yig‘lama, Binafsha momo.

DUNYO BEXOS YORUG‘LANSA

Bir oftob chiqsa bir kecha,
Dunyo nogoh yorug‘lansa,
Shahar-shahar, ko‘cha-ko‘cha,
Yotoq-yotoq yorug‘lansa.
Ko‘rardik, kimlarning qo‘li
kimlarning qo‘ynidan chiqar.
Kimlar egila-egila
kimlarning uyidan chiqar.

Oydin kun bo‘lsa bir kecha,
Ming-ming turli gunoh ko‘rsak.
Ustini yopa olmasa,
Dunyoni yalang‘och ko‘rsak.

Boshimizga nima kelar,
aqlimiz shoshar, ehtimol.
Hamma birdan bosh ko‘tarib,
dunyodan qochar, ehtimol.

Bas, kim qolar bu dunyoda,
Go‘daklar qandoq uyg‘onar?!
... Yaxshiyamki, bu dunyomiz
Sekin-sekin yorug‘lanar...

HASRAT

Bir tuproq parchasi quvar ketimdan,
go‘yoki bo‘yimga bichilmish mening.
Uzilib qishloqning oy shu’lasi-la
qurbaqa ovozli
oqshomlaridan,
Uzilib uylardan, odamlaridan
bir tuproq parchasi quvar ketimdan.

Poyezdda, moshinda
Ko‘ngli ayniydigan Binafsha momom
bir parcha tuproqning tushar ketidan,
yugurar, yugurar, yetolmas ammo.

Bir tuproq parchasi kezar shaharda,
Meni axtarmoqdan bezar shaharda.
Yorug‘ reklamalar teshar ko‘zini,
Yig‘lagisi kelar, yig‘lay olmaydi.
Oxiri o‘zini asray olmaydi —
Kengish ko‘chalarning
Kumush asfaltiga tashlar o‘zini,
G‘ildirak tagiga tashlar o‘zini...

Bir tuproq parchasi quvar ketimdan,
Koshki kelib topsa bu kundan meni.
Shu shahar ichida
yolg‘iz qo‘ymasaydi o‘zindan meni.
Kechalar shu tuproq parchasi uzra
Bir daraxt eksaydim,
bir uy qursaydim,
Kelin keltirsaydim qishlog‘imizdan...

QARILIK

Yolg‘izlik boshlanar bundan buyog‘i,
qochib qutulmassan, otam bolasi.
Oylarni, yillarni tutsang bo‘yingga,
Soylarni, cho‘llarni tutsang bo‘yingga,
o‘lchab yetolmassan, otam bolasi.

Endi ko‘plar bilan oram sovugan,
ko‘plar omadimga sevinmas endi.
Yigirma uch yoshimda meni sevganlar
O‘ttiz uch yoshimda sevolmas endi.

Men, axir, na Cho‘lman,
na Yo‘l, na Ko‘cha,
Axir, hammaniki bo‘la olmayman.
Meni sevganlar deb o‘la-o‘lguncha
Yigirma uch yoshimda qola olmayman.

Qanchalik so‘zlar bor so‘zimdan jasur,
endi chaqirmoqqa nafasim yo‘qdir.
Endi bu dunyoda o‘zimdan jasur
so‘zlarni yozmoqqa havasim yo‘qdir.

Yig‘ini bas qildi, tindi she’rim ham,
qaridi misralar, so‘zlar men bilan.
Do‘stlar yoshligicha qolar she’rimda,
qarimoq istamas do‘stlar men bilan.

Ilohim, qarilik shunday ekan-da,
do‘stlardan jimgina uzilar odam.
Umr loyqalangan suvday ekan-da,
ozaygani sari tozarar odam.

Ichim-u tashimning zangi yuvilar,
satrlar ko‘karar bu oq varoqda.
Uzoqdir yurak-la qo‘lning orasi,
xayriyat, o‘lmadim shu oraliqda.

So‘zlar yuragimdan qo‘limga yetdi,
biroz sarg‘aydi va so‘ldi, na iloj.
Biroz jasurligi, sho‘xligi yitdi,
gina qilmasinlar, yo‘l-da, na iloj.

Endi bolta kesmas aqlim kesganni,
tiriklik totini bilaman endi.
Bu ko‘hna dunyoda har nafasimni
daraxtdan mevaday teraman endi.

So‘ng nafas dunyoda har nedan shirin,
shoir ham qariydi, o‘lar — bilaman.
So‘zidan qon hidi kelgan shoirning
og‘zidan sut hidi kelar — bilaman.

Bu dunyo bir qaynar qozondir, illo,
so‘ndirmas o‘tini na qor, na yomg‘ir.
Bu dunyodan ketish osondir, ammo
dunyo-la chiqishib yashamoq og‘ir...

KETSAK BIZ BO‘LMAGAN YERGA

Kel, qo‘l-qo‘lni tutib ketsak,
Ketsak biz bo‘lmagan yerga.
Bor dardni unutib ketsak,
Dardimiz bo‘lmagan yerga.
Bunda qo‘ysak o‘zimizni,
Bu tirishgan yuzimizni,
Bu eskirgan so‘zimizni,
Ketsak biz bo‘lmagan yerga.
Bir kimsa olmasin xabar,
Kel, chiqib ketsak bir sahar.
Bu uy, bu ko‘cha, bu shahar,
Bu dengiz bo‘lmagan yerga.
Odam o‘g‘li oz topilar,
Sen degan do‘sting sotilar,
Bu Ramizni kim oborar
Bu Ramiz bo‘lmagan yerga?!

KIM AYTAR, UYQUDA O‘LMOQ OSONDIR?..

Deydilar, uyquda o‘lmoq osondir...
O‘zing ham bilmaysan, nechuk o‘lursan.
Sahar sokin eshitarsan azonni,
Uyqudagi sokinlikda o‘lursan.
Ko‘z-u kiprigingdan ayrilar joning,
Ruhing badaningdan uchar qush kabi.
Qo‘lingda qolmaydi darding, darmoning,
Tashvishga qo‘ymaysan uyda hech kimni.
Kim aytar, uyquda o‘lmoq osondir?..
Kim bilar, qandoq bu — uyquda o‘lmoq?
Balkim, bu eng buyuk darddir, azobdir,
Eng tor iskanjadir uyquda o‘lmoq.
Bir ko‘z kipriging ham uyquda balkim,
Yillarcha belingda tosh tashiydirsan...
Nafasing kesilar oxirda balkim,
Umringni toshlarga bag‘ishlaydirsan.
Bir ko‘z kipriging ham uyquda balkim,
Jallod boltasidan uzilgan boshing.
Unda qizil qoning oqqandir balkim
Yostiqqa oqqandir unda ko‘z yoshing.
Uyquda o‘lmoqdir eng rohat ajal...
Bu ham bir yolg‘onchi tasallimidi?
Ko‘rarsan, uyquda seni bo‘g‘gan qo‘l
Dushman qo‘limidi, do‘st qo‘limidi?
Nedir birdan unda umring bog‘lagan?
Dilga oqib tushgan bir tomchi qondir.
Kimdir qabring uzra dodlab yig‘lagan?
Balkim, u uyquda seni bo‘g‘gandir.
Kecha qo‘rquv solar uyqumizga-da,

Tebranar kimningdir qora ko‘lkasi.
Balkim chiziq tortsak uyqumizga ham,
Hech kim tushimizga kira olmasin.
Balkim hech yotmasmiz — har yotganning-da,
Agar uyg‘onmaslik qo‘rquvsi bo‘lsa.
Balkim hech yotmasmiz — umr so‘ngida
Sokin bir ajalning uyqusi bo‘lsa.
Ammo uyqung kelar — ko‘rarman, evoh;
Ana, sekin-sekin yumilar ko‘zing.
Yot... tongda uyg‘onmoq umidi ila...
uyqung shirin bo‘lsin —
uxla, azizim...

NE BOR ALLOHDAN YUKSAKDA?

Ne bor Allohdan yuksakda?
Ne bor qabrdan quyida?
Chekkanim ohdan yuksakda?
Bilganim sirdan quyida?
Nega kunning kunduzida
Qushlar uchar ko‘k yuzida?
Ko‘z yoshlari qush ko‘zidan
Tomchilar donday quyiga.
Dema, bizki qush emasmiz,
Allohga tanish emasmiz...
Ruhim, tur, tamom, ketaylik,
Sen yuksakka, men quyiga...

SEKIN-SEKIN SEVDIM SENI

Sekin-sekin sevdim seni,
Har kun bir oz-da sevdim.
Eng ko‘p bu qish sevdim seni,
Qorda, ayozda sevdim.
Qara, biz tezda isindik,
Havolar uvushganda.
Odamlar qalin kiyinib,
Daraxtlar sovushganda.
Qor ostidan bosh ko‘targan
Chechakdek sevdim seni.
Oloviga isinganim
O‘choqdek sevdim seni.
Hali bundoq sevmagandim
Umrim bo‘yi hech kimni.
Seni sevdim qor ustida
Don axtargan bir qush kabi.
Qo‘rqa-qo‘rqa bu tong chog‘i
Lol boqarsan nega sen?
Aytasanki, quyosh chiqib,
Qor erisa, netasan…

VATAN

Seni sevmoq og‘irdir, Vatan.
Sen ne kundasan,
tepadan quyigacha
gunoh ichindasan.

Bilasanmi, seni sevmoq
bu soat nega o‘xshar?!
Zo‘rlangan bir qizni sevganga o‘xshar.
Bu sevgidan ichkin-ichkin
ichida yonar odam.
Ammo ochiq aytmoqqa
qo‘rqar, uyalar odam.
Bu ne holga tushmishsan,
bu qandoq kundir, Vatan?
Odam seni sevmoqqa endi uyalar, Vatan.
Ustingda neft ko‘lkasi,
kim yuvadi bu ko‘lkani,
Millionchilar vatani, tilanchilar o‘lkasi.
Neft-la ketdi barakoting,
barakot qochdi sendan.
Neft-la ketdi bokiraliging,
burg‘ular kechdi ichingdan.
Qarich-qarich qazilsang-da,
sevin to hanuz sog‘san.
Bir kun neft tugaganda
oydin kunga chiqajaksan.

G‘AZAL

Bir sahar yuvdim yuzim-u
ko‘zimni bir hovuch suvda,
Ko‘rdim oyoqdan boshgacha
o‘zimni bir hovuch suvda.

Tanidim bo‘ri, qo‘zini,
bu dunyoning har tusini,
Odamlarning nokasini,
sog‘ini bir hovuch suvda.

Topdim o‘tib ketganlarning,
bu dunyodan ko‘chganlarning,
Yuz yil oldin ichganlarning
izini bir hovuch suvda.

Otdim bor dardning toshini,
turdim, tik tutdim boshimni.
Eritdim ko‘zim yoshining
tuzini bir hovuch suvda.

OH, BU QIZNING BARMOQLARI

Oh, bu qizning barmoqlari
Barmoqlarimga tegmadi.
Yuragim og‘rigan kecha
Kelib, eshigim chertmadi.

Oh, bu qizning barmoqlari
Bir maktub yozarmi ekan?
Bir kun o‘ldi, deb eshitsa —
Qabrimni qazarmi ekan?

Oh, bu qizning barmoqlari
Bir uzuk taqdi beliga.
Qiz edi, bir so‘z demadim,
Endi ne dey bu... kelinga?!

Oh, bu qizning barmoqlari
Uzun-uzun barmoqlari...
Chertmadi, ona, chertmadi
Eshigimni barmoqlari.

TOBUT

Oydin Muhamedov xotirasiga

Hali yelkalarda ketar tobuting,
qabringning og‘zi ham ochiqdir hali.
Bo‘zlar u qabrning tilsiz sukuti;
sening sukut oning achchiqdir hali!..

Eng rohat, qo‘rquvsiz yo‘ldasan endi,
dunyoning eng toza, oq yo‘lidasan.
Faqat Alloh bilar qaydasan endi;
umring avvalida, yo so‘ngidasan.

Sen endi yumsang-da ko‘zingni, balkim,
u so‘ngan aqling-la nechuk bilarsan?!
Beshikda bilarsan o‘zingni, balkim,
ohista-ohista yo‘rgaklanarsan.

Balkim, sen emassan tobutda yotgan,
go‘dakday kafanga yo‘rgaklanarsan.
Tobuting qabringga yetgunga qadar
yangidan bo‘y cho‘zib, til chiqararsan.

Hamma ko‘rishadi sen ketgan yerda,
sen, axir, ularga ne deyajaksan?!
Balkim, bu dunyo-la bir o‘zga tilda
tanishib, dardlashmoq istayajaksan.

Hech kim anglamasa tilingni unda,
tanishib, tanishib kuyunadirsan.
Yangidan tanishar o‘liming unda,
qaytadan tobutga qo‘yiladirsan.

Jim endi!.. Jimlikka o‘rgan bir boshdan,
peshonangga bitmish bu sukut, axir.
Nega lozim edi, qaysi yog‘ochdan,
kesilib, yasalmish bu tobut, axir.

Ketar asta-asta bu qora tobut,
qo‘rqma, seni yo‘lda to‘kib ketmaydi.
Yuz yil barg yozsa ham bu qora tobut,
bitta senday go‘zal meva tutmaydi.

SHOIR VA HAYKAL

Yuksakdan boqmoqdan g‘azabim kelar,
Tosh ichra — qamoqdan, g‘azabim kelar.

Bu haykal ichinda, g‘azab ichinda
Yuragim o‘ziga joy topa olmas.
Gullarning ifori, qushning nolasi,
Axir, yuragimga yo‘l topa olmas.

Yondim, yuragimga sepdim kulimni,
Odam o‘z kuliga belanar shundoq.
Tishim parcha-parcha kesar tilimni,
She’rlarim hijoga bo‘linar shundoq.

Men shundoq odamman, mendan uzoq bo‘l.
Uzoq yur xayrimdan, qahrimdan mening.
Mening qalamimdan ochilmasdir gul,
Qizlar sochga taqmas she’rimdan mening.

Qochdim meni sevgan ko‘zlardan oxir,
Hammaning sevgisi ko‘zida qolsin.
Men uy qurganim yo‘q so‘zlardan, axir,
Qo‘y, hamma sahroning to‘zida qolsin.

Tosh haykal qo‘ymoqqa o‘zgasini top,
Menga umr bo‘yi tosh otgan odam,
Gilosdan murabbo, qo‘zidan kabob,
Shoirdan haykalni o‘xshatgan odam.

Yo‘q, haykal bo‘lmasman bu yer yuzida,
Mening tosh bo‘lmoqqa yo‘qdir havasim.

Tosh bo‘lib bu ulug‘ Fuzuliyning-da
Yonida turmoqqa yo‘qdir havasim.

Men sening yoningda turarman,
Sening...
Ko‘chaning yonida tilangan kampir,
Boshidan mol-davlat yog‘ilgan yurtning
Baxtiyor kunida tilangan kampir.

Hech kim parvo qilmas bu oq sochingga,
Bu kumush sochingdan o‘parman sening.
Qo‘rqma, etagingga tashlar pulim yo‘q,
Egilib barmog‘ing tutarman sening.

QO‘SHILSAK

Dard-u g‘am dildan yotlanib,
Biroz sevinsak shodlanib,
Ko‘nglimiz ham qanotlanib,
Uchgan qushlarga qo‘shilsak.

Ko‘rmasak shu ko‘rganlarni,
Termasak shu terganlarni,
Yodga olib o‘tganlarni,
Shu yog‘ishlarga qo‘shilsak.

Tupursak egri ishlarga,
G‘iybatlarga, urushlarga,
Dunyoda na so‘kishlarga,
Na qarg‘ishlarga qo‘shilsak.

So‘zimizda rost bo‘lmasa,
Bu dunyoga bas kelmasa,
Demoqqa bir so‘z kelmasa,
Sassiz toshlarga qo‘shilsak...

CHIQAR

Qo‘lga qalam olgan chog‘da,
Satrlarim qorayganda
Kuylagimga sizgan qonday
Qayg‘ular varoqqa chiqar.

Jonimda so‘zlar siqilar,
Ortar, ustma-ust yig‘ilar,
Yuz qo‘shiq cho‘kar, bo‘g‘ilar,
Bir qo‘shiq qirg‘oqqa chiqar.

Kuygan ko‘p shoir so‘zidan,
O‘pgan yo‘q shoir ko‘zidan.
She’rning astari yuzidan
Qimmat, qimmatroqqa chiqar...

DEMAKI, SHOIRNING BOR-YO‘G‘I TILDIR

Demaki, shoirning bor-yo‘g‘i tildir,
Shapaloq urishga qo‘limiz ham bor.
Biroz boshimizda aqlimiz bordir,
Biroz kissamizda pulimiz ham bor.

Ko‘p botirlar yo‘qqa chiqdi o‘rtada,
Kimning baxti kimni yiqdi o‘rtada.
Na bo‘lsinki, bir ish yo‘qdir o‘rtada,
Hali sog‘imiz ham, so‘limiz ham bor.

Ming yildir tug‘ilib o‘larmiz, ey do‘st,
Yig‘lasak, bas qilib bilarmiz, ey do‘st.
Toki qadam tashlay olarmiz, ey do‘st,
Qabriston tomonga yo‘limiz ham bor.

SOVUSH

Bu odam o‘lar, shekilli,
Qo‘limda qo‘li soviydi.
Asta-asta so‘nar ko‘zi,
Peshona teri soviydi.

Saslar botar qulog‘ida,
Dodlar yitar tomog‘ida.
Yoriq-yoriq dudog‘ida
Bo‘salar yeri soviydi.

Ko‘zlarimda quriydi yosh,
Bu yo odam, yo qabrtosh.
Shundayin jim, yuvosh-yuvosh
O‘likdan tirik soviydi...

ONA

Bu qishni ham yo‘lga soldik,
Bu qor ham eridi, ona.
Erigan qorga qo‘shilib
Yig‘lasak yeridir, ona.

Qaytdi baxtning o‘zi bizdan,
Kim qutqarar bizni bizdan?!
Bu dunyoda o‘zimizdan
Dardimiz tirikdir, ona.

Kun nurga ko‘mdi to‘rt yonni,
Baxtimga tug‘ar kun qani?!
Balkim, soatim dunyoning
Vaqtida ortdadir, ona…

OY YORUG‘I

Oy yorug‘i tushdi ko‘kdan,
Jonimdan — qonimdan o‘tdi.
Ko‘pimning ichindan o‘tdi,
O‘zimning ichimdan o‘tdi,
O‘tdi, tovonimdan o‘tdi.

Oz qoldi-ya,
Ikki bo‘lak qilsa meni.
Boshimdan ko‘kka mixladi,
Tovonimdan yerga meni.
Yurgim keldi,
Qadam qo‘ya olmadim...
Yonimdan odamlar o‘tmoqda,
Oy yorug‘i, tegmading hech kimga.
Qo‘ygil meni, oy yorug‘i,
Ketay o‘z yo‘limga, ishimga.

Bu ne ishdir, oy yorug‘i,
Nega yo‘ling mendan o‘tdi?
Hamma adashdi, oy yorug‘i,
Huv uzoqdan, yondan o‘tdi.

Dedilar: jinnimi — nedir,
Har kim tamg‘a ildi menga.
Birov boqib mazax qildi,
Birov boqib kuldi menga.

... Bu mening qo‘lim-oyog‘im,
Bu mening og‘zim-qulog‘im.
Birovdan kamchiligim yo‘q,
Yo‘q birovdan ortiqligim —
Qo‘ygil ketay, oy yorug‘i!

Omon, otam, bu ne toshdir?!
Toshni otgan qayga qochdi?
Itlar poyimga tarmashdi,
Qo‘ygil ketay, oy shu’lasi!..
Sen ohimga yetgin, ona,
Ona, sening bolang menman.
Bu kecha oy shu’lasiga
Chormixlanib qolgan menman.

Ona, mendan o‘tgan bu yorug‘ nedir,
Ona, menki, yorug‘ tekkan emasman.
O‘zi mening baxtim shunday ekan-da,
O‘z baxtini so‘kkan emasman.

O‘lganim yo‘q, yig‘lamagin,
O‘taver, dam saqlamagin,
Eshigingni bog‘lamagin —
Eshiging chertgan emasman.

Yalama, kovushim kirlidir,
Hurma, jonim sabrlidir,
Qochgil, ey Allohning iti,
Men sening egang emasman.

Tilim — lol, boshim — quyi,
Uyning eng bechora o‘g‘li.
Qo‘ygil ketay, oy yorug‘i,
Izlaganing men emasman…

YIQILAMAN

Rayner Mariya Rilkega

Yiqilaman, yiqilaman,
O‘zimdan ketaman.
Qalbimdagi sabrdan,
To‘zimdan ketaman.
Sig‘inmoqqa bir burchak yo‘q,
Yiqilmoqqa bir quchoq yo‘q —
Yiqilaman, yiqilaman...

Bu dunyoni Xudo o‘zi
Saqlar mendan yuqorida,
Bu dunyo deb yig‘lar ko‘zim,
Yig‘lar mendan yuqorida;
Ko‘zim yoshi tomchi-tomchi
Tomchilaydi o‘z boshimga.

Ko‘zimdan yiqildim, Alloh,
Ko‘zim yoshidan yiqildim.
Har narsaning boshi So‘zdir,
So‘zning boshidan yiqildim...

Boshim uzra, voh, har kecha
Bo‘ri uvlab yotar uzoq.
Ko‘kda yulduzlar har kecha
Kechagidan ketar uzoq —
Yiqilaman, yiqilaman.

O‘LIM

“Eshik” dostonidan

Na urushdan bolang keldi,
Na uyingga kelin keldi.
Ko‘zing ravshan, Zebo momo,
Eshikni och, O‘lim keldi.

Yuzi yo‘q, seni chaqirsa,
Nafasini yutub O‘lim.
O‘limlarning eng faqiri,
Sho‘rlik O‘lim, yupun O‘lim.

Ne ham olsin, nimang bordir,
Birgina dardingdan boshqa.
Ajin tushgan aft-angoring,
Bukilgan qaddingdan boshqa.

Bu O‘lim senga ne desin?
“Momo” desin? “Ona” desin?
Ona bo‘lsang, bolang qani?
Momosan — nabirang qani?

Nabirasiz, bolasiz kampir.
O, qiz kampir, yolg‘iz kampir.
Yostiqlar ho‘l bo‘ldi
Ko‘zing yoshidan,
Boshingni ko‘targin, axir!

Ehtimol, seskanding O‘limdan axir,
Uyqung qochdi, balkim.
Hech kim och ketganmas uyingdan axir,
Tur, qozon os, O‘lim ochdir, balkim.

Eshikka chiq, O‘lim xafa bo‘lib ketmasin,
yuzingni surt oyog‘iga-qo‘liga.
Yaxshiyamki, bu dunyoda har kimning
haqqi bordir haqdan kelgan o‘limga.

Dunyo botdi o‘g‘illarning qoniga,
Baliq kabi talpinadi, yolvorar.
Yaxshiyamki, O‘lim kelib oborar
Onalarning o‘lgan o‘g‘il yoniga.

Onalarni ko‘rib shoshar o‘g‘illar,
bir o‘g‘il ham onasini tanimas —
Onasining dardga to‘la yuzini,
yuzi to‘la dardini-da tanimas.

Peshonadagi biror ajinni,
sochidagi oq tolani tanimas.
— Bu kampir kimdir? — der.
O‘lim aytar: — Onangdir!
— Yo‘q, bu mening onam emas,
mening onam juvondir…

Ko‘zlari mo‘ltirab
O‘lim qolar o‘rtada,
Endi, axir, o‘z boshiga
ne tosh solsin bu O‘lim?
Qari-qari kampirlarni qaytarib,
Yosh-yoshgina onalarni
qaydan olsin bu O‘lim!?

O‘lim, nega lo‘qillatding ko‘zingni,
Nechuk buncha yo‘qotgansan o‘zingni?
O‘lim, senki oy-u kundan ayirib
umrimizni bizga parcha-parcha
bo‘lishtirgan o‘limsan.
Bu dunyoda
sen hammani bir-biridan ayirib,

U dunyoda ko‘rishtirgan O‘limsan.
Million-million jon olsang-da, jonsizsan.
Temirmisan, po‘latmisan, sen kimsan?!
O‘lim, sening bolang yo‘qdir — pushtsizsan,
O‘lim, sening onang yo‘qdir — yetimsan.

Nega qaraysan
onalarning, o‘g‘illarning yuziga,
Pushtsiz O‘lim, yetim O‘lim, buyur, top:
Onalarning orasidan
ona axtar o‘zingga,
O‘g‘illarning orasidan o‘g‘il top.

Otamiz bo‘l, boshimizni silagin,
Onang senga alla aytsin, yotasan.
“O‘g‘il” bo‘lsang — qanday nonko‘r o‘g‘ilsan,
“Ota” bo‘lsang — qanday zolim otasan.

Chiq, ket, O‘lim, yo‘limizda aylanma,
O‘ngimizda, so‘limizda aylanma,
bunda senga ega bo‘lgan topilmas,
bola bo‘lgan, ona bo‘lgan topilmas.

Tirik-tirik o‘g‘illarni
olib ketding onalarning qo‘lidan,
Ammo endi
devor yanglig‘ yopishib bir-biriga,
Qattiq ushlab
avval o‘lgan bolalarning qo‘lidan,
Bir ona ham o‘g‘il bermas O‘limga.
... Va har o‘g‘il shunday
qo‘lidan taniydi o‘z onasini...

Har o‘g‘il o‘z onasining qo‘lini
silar, siypar, uqalaydi barmog‘in.
Nega qaraysan, ey Allohning O‘limi?!
Yaxshilikcha ketgin, O‘lim, yo‘ling oq bo‘lsin!..

OG‘RIQ

“Eshik” dostonidan

O‘g‘li urushda o‘lgan kun
Zebo momo ko‘kda edi —
Qo‘llari ko‘kda, ko‘zlari ko‘kda.

— Ilohim, — derdi, — o‘zing madad ber,
Yodingdan chiqarma bizlarni ko‘kda.

— Ilohim, — derdi, — joying balanddir,
Qarasang, bolamni ko‘rarsan, balkim.
— Alloh bo‘lsang nima bo‘pti, — derdi, —
Allohni ham ona tug‘gandir, — derdi, —
Qarasang, bolamni ko‘rarsan, balkim...

Allohni ona tug‘gan emasdi,
Ammo onasining ovoziga
Juda o‘xshadi Zebo momoning ovozi,
Oldi boshidan aqlini.
Alloh qaradi, boqdi,
Bir yashil daraxtning ostidan topdi
Zebo momoning o‘g‘lini.

Zebo momoning o‘g‘li
Chalqanchasiga cho‘zilgandi —
Ko‘kragida tig‘ yarasi.
Ko‘zlari ochiq edi,
Bosh ustida yaproqlarni ko‘rar edi,
Bulutlarni ko‘rar edi —
Bulutlarga to‘la edi
Yaproqlarning orasi.
Yaproqlarga to‘la edi

Bulutlarning orasi.
Og‘rir edi, og‘rir edi yarasi.

— Bu qanday og‘riqdir, — derdi, — Alloh,
nahot bu og‘riqning oxiri yo‘qdir?!
— Koshki o‘lsam edi, tinchlanardim, — derdi, —
O‘limdan so‘ng og‘riq yo‘qdir.

Asta-sekin
Yaproqlardan ajraldi bulutlar,
Tutdi ko‘kning yuzini —
Bulutlarni ko‘rmadi.

Asta-sekin
Bir yaproq
Kengayib-kengayib tutdi ko‘zini,
Yaproqlarni ko‘rmadi.
Endi o‘ldim, shekilli, deb sevindi.

... Ammo yarasi hali ham og‘rir edi...
Cho‘chidi, seskandi: — Ilohim, nahot
O‘limdan so‘ng ham og‘riq bor ekan?!
Bilardiki, bu o‘limning
had-hududi yo‘qdir.
Bilardiki, bu o‘limning
oxiri yo‘qdir.
Va, demak, shunday
yuz yil, ming yil kechajak,
Yuz yil, ming yil og‘riyverar yarasi.
Rahmi keldi o‘ziga,
Yig‘ladi ichkin-ichkin,
Yig‘lab-yig‘lab o‘ldi,
Qachon o‘lganini o‘zi ham bilmadi...

... Ammo ko‘zlari hali ochiq edi,
ko‘zlari

tikka Allohning ko‘ziga bovardi.
Alloh chidayolmadi,
Olib qochdi ko‘zini —
Zebo momoni ko‘rdi.
Zebo momo: “O‘g‘lim”, — deb yig‘lardi.
Allohning yuragi og‘rir edi.
Alloh dedi: — Ey ona!
Zebo momo: “Nima gap, ey o‘g‘il? — dedi.
Alloh dedi: — Ey ona,
Boshqa o‘g‘ilni nima qilasan,
Kel, mening onam bo‘l, — dedi.
Zebo momo: — Yo‘q, — dedi, —
Seni men tuqqanim yo‘q!
O‘rtandi, siqildi Alloh
qoldi samo yuzida.
Zebo momodan yashirib,
Sho‘rlik cho‘zdi qo‘lini,
Yumdi Zebo momo o‘g‘lining
ochiq qolgan ko‘zlarini, —
Ko‘z yoshidan
ho‘l bo‘ldi barmoqlari.
Etagiga surtdi barmoqlarini,
barmoqlari yana ho‘l edi ammo.
Yana etagiga surtdi barmoqlarini,
ammo barmoqlari yana ho‘l edi...

QO‘SHIQLAR

“Eshik”
dostonidan

Birinchi qo‘shiq

Tiling kuysin, til egasi,
So‘zlamoqqa tilim kelmas.
Bu ne sirdir, sir egasi,
Ketgan ketar, kelgan kelmas.

Dunyo, yo‘l yotib zeriksin,
Suvlaring oqsin, tiniqsin,
Uy buzganning yop darchasin,
Bu eshikka kelin kelmas.

Ko‘kda bulut to‘lib ketar,
Qushlar qanot solib ketar.
O‘g‘illarni olib ketar,
Onalarga o‘lim kelmas.

Ikkinchi qo‘shiq

Shirin-shirin uxlar edik,
Bir zolim uyg‘otdi bizni.
Onalar bag‘ridan olib,
Bu dunyoga otdi bizni.

Tushdik yo‘llarning komiga,
Baxtimizning so‘rog‘iga.
Taqdir soldi-yu oldiga,
Qo‘lida o‘ynatdi bizni.

Bizki, yo‘l nima — bilmasdik,
Ham o‘lim nima — bilmasdik.
Bilsak, dunyoga kelmasdik,
Onalar aldatdi bizni....

Uchinchi qo‘shiq

Kiprik ko‘zga ega emas,
Og‘iz so‘zga ega emas.
Dunyo bizga ega emas,
Dunyoning ham egasi yo‘q.

Dardimiz, g‘amimiz birdir,
Har dardning so‘ngi sabrdir.
Har umr so‘ngi qabrdir,
Buning “nechun”, “nega”si yo‘q.

Bizga umrni kim bichdi?
Falakning fe’liga tushdik,
Bir chevar qo‘liga tushdik —
Qaychisi bor, ignasi yo‘q.

To‘rtinchi qo‘shiq

Umr o‘tar sekin-sekin,
Endi kun kundan qisqadir.
Kel, bo‘ylashib ko‘ray, qardosh,
Qani, kim-kimdan qisqadir?!

Axtardim o‘tgan yo‘llarni,
Maysa, o‘t bitgan yo‘llarni.
Dunyoning butun yo‘llari
Mening sabrimdan qisqadir.

G‘am chekmagil, odam o‘g‘li,
O‘tgan o‘tur, bo‘lgan bo‘lur.

Qo‘lim bo‘shdir, dilim — to‘liq,
Tilim umrimdan qisqadir.

Beshinchi qo‘shiq

Bu o‘t qaysi o‘tdir ekan,
Qay qabr uzra bitdi ekan?!
Kim kimni unutdi ekan,
Kim kimning yodida qoldi?

Bilgan bormi men bilganni,
Aytmadim mingdan birini.
Qo‘shiqlarning eng shirini
Tilimning ortida qoldi.

O‘lsam ham, onam bolasi,
Oqarmas sochim qorasi.
Peshonamga bitgan yozuv
Sochimning ostida qoldi…

Oltinchi qo‘shiq

Ilohim, o‘ldi bu odam,
Ko‘zlari bog‘lidir endi.
Uni na sevmoq qo‘rqitar,
Na o‘lmoq qo‘rqitar endi.

Kimi bor, solsa yodgaki,
Bugun-erta dunyodagi
Bir yashil o‘tdir ul yoki
Qamishday quriyur endi.

Yig‘lamoqqa bir kasi yo‘q,
Daraxti yo‘q, soyasi yo‘q,
Eli, yurti, o‘lkasi yo‘q —
“Alloh”ning o‘g‘lidir endi…

Yettinchi qo‘shiq

Xandaqlarga quyosh boqur,
Uyg‘on, uyg‘on, yotgan o‘g‘il!
Qani, qurol tutgan o‘g‘il,
O‘g‘ilning qo‘llari qani?!

Uyda o‘rni qolar bo‘lsa,
Nega kelmas,
kelar bo‘lsa?!
Bu kelin-u kelin bo‘lsa,
Xinoli zulflari qani?!

Kim bu yurtga g‘am tashidi?!
Bu tog‘ emas, go‘r toshidir.
Bu ko‘l emas, ko‘z yoshidir,
Bas, yurtning ko‘llari qani?!

Sakkizinchi qo‘shiq

Ko‘z yoshga cho‘milgan dunyo,
Yuzing-ko‘zing tozamidi?
Tiriklarning xotirida
O‘lganlari azizmidi?

Bizni ko‘rgan ko‘zgularing
Endi ko‘rar o‘zgalarni.
Ne bilarsan,
eng go‘zali —
Ul yuzmidi, bul yuzmidi?!

Dardimizni oz chek, dunyo,
Har kelgan ketajak, dunyo.
Kelganlaring kechikkan yo
O‘lganlaring shoshganmidi?!

To‘qqizinchi qo‘shiq

Bir piyola choy quy, ichay,
Shirin bo‘lsin, achchiq bo‘lsin.
Onang mening onam bo‘lsin,
Chechang mening checham bo‘lsin.

Uy qurdik — omonat emas,
Bir kimsa ko‘chirgan emas.
Baxtimiz ochilgan emas —
Eshigimiz ochiq bo‘lsin.

Mensiz umring uzun bo‘lgay,
Bosh qo‘ymoqqa tizing bo‘lgay.
Yig‘lamoqqa ko‘zing bo‘lgay,
Oqarmoqqa soching bo‘lsin!

O‘ninchi qo‘shiq

Bulut keldi ko‘k boshiga,
Dedi, onam, ur boshingga.
Har qishloq, har uy boshiga
O‘g‘il ketdi, oh, qaytmadi.

Kunduz o‘tdi, kecha qoldi,
Daraxtlar silikisha qoldi,
Barglar o‘sha-o‘sha qoldi,
Butoqlari bo‘y otmadi.

Yillar yedi izlarini,
O‘g‘illarning tizlarini,
Onalarning ko‘zlarini
Yo‘llar yedi, hech to‘ymadi…

DEVOR

Qog‘oz emas — devordir bu,
Boshimni urguvchi devor.
Xayol surib, yig‘lab-kulib,
O‘rtanib turguvchi devor.

Bir toq-tanho daraxt kabi
Ostida bitguvchi devor.
Yig‘laganda bo‘lish kabi
Yuzimni surtguvchi devor.

Varaq emas, devordir bu,
G‘amdan oqarar har kecha.
U tomondan kimdir meni
Saslar, chaqirar har kecha.

Men o‘lsam, demangiz yolg‘iz,
yig‘langiz bizga, yig‘langiz.
Meni deya azob chekkan
ul yetim sasga yig‘langiz.
Bu devorning bul yuzinda
o‘lgan Romizni ko‘ming va
Bu devorning ul yuzinda
qolgan Romizga yig‘langiz...

KIM BILSIN...

Inson insondir, qardoshim, hayvon hayvondir:
xotini ham, erkagi ham,
kuchugi ham, mushugi ham.
Inson insondir, qardoshim, hayvon hayvondir:
sevilgani ham, so‘yilgani ham,
sog‘ilgani ham, yeyilgani ham.
... mana, baliqlar bor,
mana, bor qushlar...

Men odam bo‘lmasaydim,
bilingki, qush bo‘lardim.
Agar it bo‘lsam ham,
bilardimki, qushman,
hali qanotlari chiqmagan qushman.

Ehtimol,
kim bilsin, otam bolasi,
Ehtimol, rostdan ham it asli qushdir,
ammo itning ishi qush ishi emas,
tuproqdan ayrilib uchgisi kelmas,
osmonda qanotin ochgisi kelmas...

... Bu dunyo o‘zi ham bir parcha qushdir,
murg‘ak, bir tuxumday qushdir bu dunyo.
Xotinmi-erkakmi, it-u mushukmi,
bir kun ko‘rajaksan: uchdi bu dunyo.
Uchib ketdi,
o‘tib ketdi qushlardan,
Chinqirib-chinqirib uchajak qushlar
dunyomizning ortidan,

Qanotlari charchaguncha,
uzilguncha uchajak,
O‘lguncha,
uchajak qushlar
dunyomizning ortidan.
O‘lik-o‘lik qushlar to‘kilar
samo bo‘shlig‘iga,
Havolarga, havolarga,
uzoq-uzoq, boshqa-boshqa dunyolarning
qumlog‘iga, toshlog‘iga,
o‘lik qushlar to‘kilar.
...qorishib yotar qushlar
toshlarning orasida....

Boshqa-boshqa dunyolarning odamlari
tosh o‘rniga
O‘lik qushlarni otajaklar
bir-birlariga.
Hech kim ajratmaydi —
qush qaysidir,
tosh qaysi....

... Ehtimol,
kim bilsin, otam bolasi,
Ehtimol, bizning dunyomizning ham
kesaklari, toshlari
Uchib ketgan dunyolarning
o‘lib tushgan qushlaridir, qushlari...

BULUT

Yuragimning g‘amini,
Ko‘zlarimning namini,
Qardoshimning to‘yida
lo‘ppi-lo‘ppi bug‘langan
Palovning damini yutib ichiga,
Boshimning ustidan bir bulut o‘tar.

Onam bulut, jonim bulut,
Seni ko‘rdim,
bag‘rimning ichi achishdi,
Ko‘zimning yoshi achishdi,
Uyimning devori-toshi achishdi —
Ol bu tosh-devorning qo‘lidan meni,
Qutqar meni, o‘zing bilan olib ket.

Onam bulut, onamdan ortiq bulut,
Sochlari chilvir bulut,
Yonoqlari kulgich bulut —
Balki meni sen tuqqansan,
Men sening bolangman yoxud.

Men bulut o‘g‘liman, bulut bolasi,
Bulut parchasiman, bulut porasi,
Bulutga to‘laman boshdan oyog‘i.

Ustim — bulut, ichim — bulut,
Ko‘ksimda yuragim — bulut,
Egnimda kiyimim,
ko‘ylagim — bulut.
Peshonamda sochim — bulut.

Bulut-bulut sochlarimdan
endi hech ne qolmadi
Peshonamning ajinini yopmoqqa.
Meni izlamoqqa, azizlamoqqa
endi hech ne qolmadi —
Onam bulut, singlim bulut,
qutqar meni, o‘zing bilan olib ket.

Onam bulut,
Dardimdan ko‘zlari namlangan bulut.
O‘zini yodidan chiqarib,
anchadan boshimda aylangan bulut —
Seni ko‘rgan oni qonim jo‘sh urdi,
qaynayverdi, toshdi tomirlarimdan,
Qolmadi, qonim qolmadi,
Yarim jonim qolmadi,
tez o‘t, onam bulut, o‘ldirma meni...

... Yuragimning g‘amini
Ko‘zlarimning namini,
Qardoshimning to‘yida
lo‘ppi-lo‘ppi bug‘langan
Palovning damini
yutib ichiga,
Boshimning ustidan bir bulut o‘tar.
Yo‘ling oq bo‘lsin, ketgan bulut,
Ketib, ketib ko‘zimdan yitgan bulut.

Bir vaqt bu yerlarga kelsang, kelmasang,
Yerga boqib meni ko‘rsang, ko‘rmasang,
Qayg‘u chekma, yig‘lamoqdan kechib ket,
Qo‘shin-qo‘shin bulutlarga qo‘shil, ket.
Menal, mensiz dunyo o‘sha dunyodir,
Bu dunyoning shu turishi sog‘ bo‘lsin,
Yerda —toshi, ko‘kda qushi sog‘ bo‘lsin.
Qushlarning qanotlari

Silkib o‘tsin bulutlarni,
Ko‘k yuzining bulutlari
Qo‘shin-qo‘shin sog‘ bo‘lsin.
Onam bulut, sen ham sog‘ bo‘l
Bulutlarning ichida,
Yomg‘iring sog‘ bo‘lsin,
Boshing sog‘ bo‘lsin...

BU UYNING ODAMI

Qo‘lini ko‘ksiga bosib,
Tishini tishiga bosib,
Tishlariga qisilib
yashar bu uyning odami.

Qachon edi, qachon edi, qachon edi, Alloh?!
Bu o‘g‘lon bir quvnoq o‘g‘lon edi, Alloh:
O‘zga bog‘ga
o‘g‘irlikka kirganda,
Bog‘ egasi nogoh kelib qolganda,
Xom noklarni
mahkam siqib qo‘lida
Siqilib chopardi, chopar oldinda —
endi tishlariga qisilib qolgan.

Shundayin yashamoq tushdi bo‘yniga:
Bu uydir, ko‘chadir —
xabari bo‘lmas,
Kunduzdir, kechadir —
xabari bo‘lmas.

Kecha qorong‘usi, kunduz yorug‘iga,
Xotin, bola-chaqa, qoshiq-tovog‘iga
tishlarining orasidan qaraydi.
Tishlarining orasidan oh chekar,
oh chekib to‘shakka kirar kechalar.
Goho uyqusida qahqaha urar,
goho uyqusida kular kechalar.
Seskanib uyqudan qalqar xotini,
U shunday kulganda qo‘rqar xotini.

Uyg‘otar,
uyg‘otar,
uyg‘ota olmas,
Oxirida ho‘ng-ho‘ng yig‘lar xotini.

Yig‘i ovoziga ochar ko‘zini,
u yonga-bu yonga boqar bu odam.
O‘zi ham seskanar o‘z kulishidan,
tishini tishiga tiqar bu odam.

Yana barcha ranglar so‘nar, qorayar,
so‘lar tishlarining u tarafida.
Bu dunyoning har ishi,
Shahari, ko‘chasi, uyi, eshigi,
Xotini, bolasi, iti, mushugi
qolar tishlarining u tarafida.

Shunaqa, shunaqa har kun, har kecha,
Qo‘lini ko‘ksiga bosib,
Tishlariga qisilib
yashar bu uyning odami.

Kunduzlar hammaga sanchilar, achchiqlanar,
kechalar bexosdan kular uyquda.
Bir kecha shunaqa baxti ochilar,
shunday kula-kula o‘lar uyquda.

SO‘Z

Sevganlar tutdi dunyoni,
Sevdi, unutdi dunyoni.
Men ham sevdim, bu dunyoning —
Eng go‘zal So‘zini sevdim.

Oldim so‘zning og‘rig‘ini,
Yovg‘onini, yog‘ligini.
Qancha so‘zning qiyshig‘ini
Tuzatib, tuzugin oldim.

Meni ham yo‘lga soldi So‘z,
Men ketdim, sizga qoldi So‘z,
Yana top-toza qoldi So‘z,
So‘zning to‘zonini oldim.

OSMON TOSH SAQLAMAS

Qo‘zg‘olib osmonga tosh otgan o‘g‘lon,
bu osmon tosh saqlamas.
O‘g‘il bundoq bosh saqlamas, otam bolasi,
Kim qirqdi sochingni,
qalqadi ko‘lkang?
Cholvoring, ko‘ylaging o‘zingdan ulkan,
Boqarsan, samovot ko‘zingdan ulkan, —
qo‘zg‘olib osmonga tosh otgan o‘g‘lon.

Hozircha sening bosh-ko‘zingni qiymas,
otgan toshlaringni saqlaydi osmon.
Otgan toshlaringni tutib qo‘lida,
seni yillar bo‘yi yo‘qlaydi osmon.
Paxmoq soching tuklanguncha,
Qop-qora ko‘zlaring
xira tortguncha,
otgan toshlaringni saqlaydi osmon.

Yeguligingni yersan,
Kiyguligingni kiyarsan,
o‘sarsan, ulg‘ayarsan, otam bolasi.
Ko‘zlaring ulkanlashar sen o‘sgan sari,
ko‘zlaringda yosh ulkanlashar.
Qo‘llaring ulkanlashar sen o‘sgan sari,
osmonda sen otgan tosh ulkanlashar.
Baxt kulsa, o‘zingga bu yer yuzida,
o‘liming tentirab kechika bilsa,
O‘zingga u toshdan bu yer yuzida
devor tiklay olsang,
uy tiklay olsang,

Bir ko‘k chaqmog‘idek umring uzansa,
baxtingga har turli rangdan tushadi.
Bir kun bu dunyoda qabring qazilsa,
balkim, qabrtoshing ko‘kdan tushadi.
... Qo‘zg‘olib osmonga tosh otgan o‘g‘lon,
eh, osmon tosh saqlamas.

DARDIMNI SUVGA AYTDIM

Nozim Hikmat xotirasiga

Dardimni aytishdim suvga,
Yuragim qorishdi suvga,
Yuragimdan tushdi suvga —
Bir kema, ketdi bir kema.

Dardimga hamdam bo'lmadi,
Yelkanlari nam bo'lmadi,
Baliqlarga yem bo'lmadi —
Bir kema ketdi, bir kema.

Sohilda bir liman qoldi,
Osmonlarda tuman qoldi.
Yuragim qoldi, man qoldim,
Bir kema ketdi, bir kema...

BIR MARTALIK KO‘CHIB KELDIM

Bir martalik ko‘chib keldim,
Yerni, ko‘kni o‘lchab keldim,
Qorong‘idan kechib keldim,
Yulduzlarni oling mendan.

Ipak ko‘ylak istar dilim,
Qizil oynak istar dilim,
Bir qiz sevmoq istar dilim,
Bu qizlarni oling mendan.

Go‘dak qolmoq istamayman,
Tez qarimoq istamayman,
Shoir bo‘lmoq istamayman,
Bu so‘zlarni oling mendan.

YULDUZLI OSMONLAR OSTIDAN O‘TDIM

U kecha keng dunyo menga toraydi,
Yuragim siynam chaqqan ariydi.
Yaxshiyam yulduzli osmon bor edi,
Yulduzli osmonlar ostidan o‘tdim.

Topildi har dardning birdan iloji,
Bildimki, dunyoning yo‘q menda burchi,
Na men birinchiman, na men so‘nginchi,
Yulduzli osmonlar ostidan o‘tdim.

Totdim bu dunyoning har bahoridan,
Totdim sevinchidan, g‘am-kadaridan,
Totdim qizlaridan, mevalaridan,
Yulduzli osmonlar ostidan o‘tdim...

KETMADIM

Yolg‘iz yoki guras-guras,
Qadam-qadam, nafas-nafas
Bu dunyoni o‘lchab bo‘lmas,
Dunyoni o‘lchab ketmadim.

Hech kim sevmadi otimni,
Ko‘plar totdilar totimni,
Men kuydirdim qanotimni,
Qush kabi uchib ketmadim.

Parchalab chopdim o‘zimni,
Ochdim-u yopdim o‘zimni.
Yaxshiyam topdim o‘zimni,
O‘zimdan kechib ketmadim...

OYOG‘IM

Naylayin, boqmas so‘zimga,
Qo‘limdan chiqar oyog‘im.
Qaydan kuch kelar tizzamga,
Yo‘limdan chiqar oyog‘im.

Men — toqman, oyog‘im — qo‘shsha,
Deydi, yurgin, torqmishman.
Bu yo‘llarni sahar-oqshom
Boshimga qoqar oyog‘im.

Yo‘llarni yog‘ishin ko‘rar,
Olqishin-qarg‘ishin ko‘rar.
Nima bo‘lsa, boshim ko‘rar —
Bas, nega qo‘rqar oyog‘im?!

YAPROQ

O‘tdi-ketdi yigit yoshim,
Yetdim umrim yarmisiga.
Sekin-sekin tindi boshim,
Ko‘ndi yurak yarasiga.

Bosh ustimda olam kular,
O‘tmishning kuli to‘kilar,
Bu dunyoning yuzi qular,
Oqi chiqar qorasiga.

Sochimning ham ortar oqi,
Sinar umrimning butog‘i,
Bir barg kabi aylanaman
Yashilidan sarig‘iga.

Bir sahar kelsa o‘limim,
Qo‘limdan tushsa qalamim,
Yaproq kabi qo‘ying meni
Varoqlarning orasiga..

ILON BOLASI

Ulg‘ayar tobora ilon bolasi,
Goh u boshga, goh bu boshga surinar.
Sevinar yutgani havoga, suvga,
Tuproqqa sevinar, toshga sevinar.

Bir sevgi havosi to‘lar jonida,
Kechalar ko‘zining ketar uyqusi.
Chechakning ifori,
o‘tning qoqisi,
Kapalak nafasi to‘planar jonda.
... O‘zidan xabarsiz,
sassiz-samarsiz
Zaharga aylanar hammasi qonda...

Bu ilon bolasi bir vaqt
Jonida
Yashirin zahardan xabar topadi.
Balkim, qarg‘aydi u
baxtini unda,
Balkim, tomog‘ini zahar yopadi.

Yig‘lama, yig‘lama, ilon bolasi,
Toleni qarg‘ama, ilon bolasi!
Bu ham bir umrdir,
taqdirdir, kerak,
Allohning amridir, azal buyruqdir;
Po‘stingning ostida —
sevgan bir yurak,
Tishingning ortida —
zahar to‘liqdir.

Ko‘rganlar seskanar:
— Ilon bor, ilon!..
Tinimsiz quvarlar seni dunyoda.
Har yondan kesilar yo‘ling-yo‘laging,
Faqat bir yo‘l qolar senga dunyoda;
Boshingdan
duminggacha,
Zaharli tishingdan
duminggacha
Faqat bir yo‘l qolar, —
u yo‘l o‘zingsan.

O‘zing o‘z yo‘lingsan, ilon bolasi.
O‘zing bu dunyoda o‘z azizingsan,
O‘zing o‘z bolangsan, ilon bolasi.
Qayga qochajaksan
ko‘z-qobog‘ingdan,
Bu zolim dunyoda naylayajaksan?
Yuz bor chiqajaksan
o‘z qobig‘ingdan,
O‘zingdan ayrila bilmayajaksan.

O‘rgan,
sekin-sekin o‘zingga o‘rgan,
Dunyoning ming turli yuziga
o‘rgan.
Birlash joningdagi zaharli dard-la,
irganma o‘zingdan, ilon bolasi.
Ehtimol, eng achchiq haqiqat asli
sensan yer yuzida, ilon bolasi.

Sensan haqning yo‘li bu yer yuzinda,
Alloh o‘zi o‘tdi bu yo‘ldan, balkim.
Yuz bora po‘st tashlab, yuz bor yuzlanib
Dunyo sendan o‘tib, tirilar, balkim.

BU MENMAN,
BU — UCH BOLAM...

Bu menman, bu — uch bolam,
Bas, nega ushoq kabi men?
Qorong‘uda so‘nib qolgan,
Bir yetim chiroq kabi men.

Dema: “Nedir ishing-pishing?”
Jonimda dardi qovushgan,
Soz ko‘rsa, eti uvushgan,
Bir qo‘lli oshiq kabi men.

Menman baxti sarxush chiqqan,
Yer qazsa —
suv yo‘q, tosh chiqqan.
To‘liq qozondan bo‘sh chiqqan,
Bir siniq qoshiq kabi men.

Dardim o‘zimdan kuchlidir,
Aqlim so‘zimdan kuchlidir,
Ilohim, bir yomg‘ir yog‘dir,
Bir oz bo‘lashiq[1] kabi men...

[1] **Bo‘lashiq** — “loyga qorishgan” degani turkiyda.

QARG‘ISH

Beshikda, belanchakda
Eshitdik bu qarg‘ishni:
“Kezmoqqa — g‘urbat o‘lka,
O‘lmoqqa Vatan yaxshi …”

Bir g‘urbat o‘lka kezmoq
Tushmadi payimizga.
Bu Vatanni kafandek
Bichdilar bo‘yimizga.

Qaychilab Orazni-da,
Orolni-da tortdilar.
Bu kafanni bir ancha
Kesdilar, qisqartdilar.

Kimning qo‘li chiqquncha,
Kimning tili chiqquncha
bu kafanning yonidan,
Qo‘lini-da kesdilar,
Tilini-da kesdilar
shu Vatanning nomidan.

… Bu kafanni bir och, ko‘r:
Hali biz tirik, Alloh!
Bu oq-oppoq kafandan
Bizga ko‘ylak tik, Alloh!

Biz ham bandangmiz, axir,
Bizga na dard, na g‘am ber.
O‘lmoqqamas, ilohim,
Yashamoqqa Vatan ber!..

DUNYO

Jonim bolam, bu dunyo-la o‘ynashma,
Sen yoshsan, bu — eski olchoq dunyodir.
Dushman nima? Do‘st uyini do‘st buzar,
Bilgan bilar, dunyo qandoq dunyodir...

Umr-u jonga e’tibor yo‘q azaldan,
Aslo qayta yaproq bo‘lmas xazondan,
Beshigidan bizga tobut yasagan,
Belanchakdan kafan tikkan dunyodir.

Kim ne anglar bu zolimning ishidan,
Qancha-qancha inson o‘tdi tishidan,
Mahkam ushla sallasidan, boshidan,
Boshdan salla olib qochgan dunyodir.

O‘ZIMNI SEVA OLMASMAN

Yuzimga ajinlar tushar,
yuzimni seva olmasman.
Bilmadim, bu qanday darddir;
o‘zimni seva olmasman.

Qachon botdim bu gunohga,
qarg‘adilar kim-kimlari?
Yozgan bor misralarimdan
uzunroqdir, juda uzun
peshonamning ajinlari.

Kuzatganman ketganlarni,
kelganlaridan xabar yo‘q.
Oldimdan bir kecha kelar,
ortidan kelar sahar yo‘q.

Yotib qoldim, eshigimdan
umr o‘tdi, o‘tdi kun-kechim.
Bundan keyin biror bir qiz
yig‘lamaydi mening uchun.

Xabarim yo‘q, dunda ne bor...
Deydilar, za’faron kuzdir.
Dunyo, sendan to‘ydim tamom,
Ketgin, ochlarni to‘yg‘aztir!..

Qaysi onda kelar, Alloh,
muazzinning so‘ng azoni?!.
Ushla, meni olib borar
za’faron kuzning xazoni.

Necha to‘ndan to‘nga tushdim,
kafanim so‘nggi to‘nimdir.
Bu yuz mening so‘nggi yuzim,
bu yuz mening so‘ng so‘ngimdir.

So‘ng nafasim dudog‘imdan uchganda,
bu yuz mening
o‘zga qo‘l-la yuvilajak yuzimdir.
Bir yil-besh yil o‘tar, bir kun
tobutimga qo‘yilajak yuzimdir.

Bu yuz mening so‘ng yuzimdir
so‘ng kunimning egasi.
Bu dunyodan ketar yuzning
bormi yomon, yaxshisi?!.

... Bu tirishgan, zor yuzimni
sevmoqqa kuch ber, Xudoyim!
Bu ahvoldagi o‘zimni
sevmoqqa kuch ber, Xudoyim!

Bundan keyin hech kim meni sevmasa,
yana kuch ber, o‘zimni seva olay.
Daraxt so‘nggi yaprog‘ini sevganday
bu qurigan yuzimni seva olay.

O‘lim nima?
Hammaning so‘ng vatani...
So‘nggi shamol uzgan so‘nggi yaproqdir.
Bu dunyoda
sevgilarning og‘iri
qariganda o‘zimizni sevmoqdir...

O‘LIM SHARPASI

Oqshom payt uyqudan tikka otilsang,
Yuzingga bir o‘lim sharpasi tushsa,
To‘rdagi baliqday tiling tutilsa,
So‘zingga bir o‘lim sharpasi tushsa.

Xobgohda bag‘ringga o‘tday bosilgan
Bir go‘zal jononning sochidan tushsa,
O‘tirib har kecha she’r yozadigan
U qora qalamning uchidan tushsa,
Tushsa eshikdagi tut yog‘ochidan,
Otangdan, onangdan, bolangdan tushsa.

Bir o‘lim sharpasi tushsa yuzingga,
Ko‘zguda yuzingni ko‘ra olmassan,
O‘zing o‘z yuzingga hasrat qilgandan
Hech kimning yuziga kula olmassan,
“Yo bir tun, yo sahar o‘laman” dersan,
Bu tun ham, sahar ham o‘la olmassan.

Chiqish, u sharpa-la chiqishib yasha,
Qorish, u sharpa-la qorishib yasha...
Yana qutqarolmas ustingni yopib,
Yoring, bola-chaqang, ushoqlaring ham.
O‘lim sharpasidan bitgan yog‘ochning
Shoxlari sollanar yonoqlaringdan?!.

Sendan yiroq ketar do‘sting, qardoshing,
Duvillab to‘kilar yaproqlaring ham.
Birdan ko‘rarsanki, hammaga yotsan,
G‘aribsan, o‘zgasan o‘z uyingda sen.

Bilginki, ustiga parda tortilgan
Bir siniq ko‘zgusan o‘z uyingda sen.

Hech kishi ko‘rmagan bir ko‘r ko‘zgusan,
O‘zing tirik o‘lik harosondirsan.
Endi na uydasan, na-da qabrda,
O‘ying-la qabrning orasindasan.

Uying va qabringning eshigi birdir,
Kim chertar eshikni bu kundan endi?
Bu kundan o‘yingga kim mehmon bo‘lar,
Kim kirar ichkari qabringga sening?!.

Kulbang bor, qabring bor, yana ne darding,
Siqma yuragingni, sevin bir qadar.
O‘yingdan bir qadar rohatli qabring,
Qabringdan issiqdir o‘ying bir qadar.

Bir oqshom qabringda bir sham yondirib,
Isinsang o‘tiga u yongan shamning, —
Ruhingni ko‘rarsan sham yorug‘ida,
Ko‘rarsanki, ruhing sanga o‘xshamas.

Ruhing ham yot bo‘lsa, jondosh kiming bor,
Seni kim sog‘inar, axtarar endi?
Qo‘rqki, bu shu’laga qurt-qush yig‘ilar,
Bas, yumgin ko‘zingni, u shamni so‘ndir.

Na mulla lozimdir, na-da marosim,
Alloh shu holingda oborar seni.
Bir o‘lim uyqusin ista Tangridan
U uyqu dunyodan qo‘porar seni.

... Voh, qachon bu shamni kelib yondirgan,
Uyqudan uyg‘otgan topilar seni...

SHUKUR

Shukur har o‘tgan oqshomga,
Har kelgan saharga shukur.
Shukur yelkamda boshimga,
Boshimdagi qorga shukur.

Eshik tiqillasa deysan:
Jallodmisan, ajalmisan?!
Kim bo‘sang-da, xush kelibsan,
Har kelgan qo‘noqqa shukur.

Ista, bo‘ynimni boltala!...
Ketsam ham tuproq ostiga,
Yana ham la’nat shaytonga,
Yana ham Allohga shukur!!!

TELBA-TESKARI QO‘SHIQ

Yozilmagan she’rlarimni
Osarman umrim doriga.
Kezmagan shaharlarimni
Otarman umrim soriga.

To‘yda yig‘lagim keladi,
G‘amda kulmoq tutar meni.
Azada sog‘man, deb kulsam!..
To‘yda o‘lmoq tutar meni.

Meni o‘lganda, meni balkim
Beshikda oborar bolam.
Bosh ustimda alla aytib,
Qabrimni tebratar onam...

SO‘NG NAFAS

Bu kimning so‘ng nafasidir,
Tegdi, siypandi yuzimga?
Kim meni mehmon ayladi
Haroson so‘ng nafasiga?!

Oldim u so‘ng nafasni men,
Bo‘ldim uning egasi men,
U so‘ng nafas jigarimdan
O‘tdi isina-isina.

Ko‘p narsani berdim yelga,
Termulaman bo‘m-bo‘sh qo‘lga,
Ammo yondim bu dunyoda
So‘ng nafasning so‘ng so‘zina.

U so‘ngi so‘z nima derdi?
U so‘ng nafas nima derdi?
— Sevin o‘zingga, — derdi u, —
O‘zingga sevin, o‘zingga!..

MEN BIR CHANGMAN, TO‘ZONMAN

Ko‘k yuzinda
To‘zg‘igan bir changman, to‘zman men,
Ko‘kdan yerga
Bo‘ylagan bir ko‘zman men.

Men bir ko‘zman,
Kiprigim yo‘q, qoshim yo‘q,
Men bir to‘zon,
Oyog‘im yo‘q, boshim yo‘q.

Havas qilib
Insoniga, hayvoniga, qushiga,
Tebranaman bu dunyoning boshida.
Bir ulkan chang donasidek
Bu dunyo ham tebranar
Ming-ming yulduz orasida,
Bu dunyoning o‘zi to‘zon,
Bu dunyo to‘z orasida,

Quyisi ham, yuqori ham
To‘zondir,
Bu dunyoning
Avvali ham,
Oxiri ham
To‘zondir.

Men bir chang-u to‘zon, —
Kim bilar, axir, qay yerdan uchganman,
Yo avvaldan,
Yo oxirdan uchganman,

Toriqqanman to‘zon bo‘lmoqdan, ilohim,
Tansiz, jonsiz larzon bo‘lmoqdan, ilohim.

Men bir ayol ichida yig‘ilmoqni istayman.
Bu dunyoda inson kabi tug‘ilmoqni istayman.

O‘zimga bir jon istayman etdan-suyakdan,
Ko‘z yoshidan,
terdan,
qondan,
ilikdan.

Men bir gardman, uchaṛman ko‘k yuzinda,
Ne bo‘larkim,
Ozod emas bu odam yer yuzinda,
Sen bu jonsiz ozodlikni,
Kel, mendan ol, ilohim,
Tez ol meni, qafasga sol, ilohim!

Nafassizman —
Tez ol, menga nafas ber,
Nafasimga
badan otli qafas ber,
Menga sas ber, —
Sasga qafas og‘iz ber.
Menga so‘z ber —
So‘zga qafas qog‘oz ber!..

SUT TISHINING OG‘RIG‘I

Doston

Fuzuliyga, yana bolam Ravshanga

Birinchi sentabrda, maktabda darslar boshlanganda maa’lum bo‘ldiki, to‘rtinchi sinfning hamma o‘quvchilari qimirlab qolgan sut tishlarini bu yoz tushirib qaytibdilar. O‘sha sinfda faqat bir bolaning og‘zida bir dona sut tishi qolgan ediki, bu ham Samad edi. Samad og‘zini ochib salom bergan zahoti o‘quvchilar bu tishni ko‘rdilar, kuldilar.

So‘ngra qalin bir ipning bir uchini Samadning tishiga bog‘ladilar, bir uchini - sinfxonaning eshigiga.

O‘sha yoz qishloqqa shahardan yangi muallima kelgandi, juda go‘zal qiz edi, ismi Chimnoz edi. Birinchi dars ana shu Chimnoz muallimaning darsi edi va, o‘zingiz tushunib yetganday, eshikni ochib Samadning tishini sug‘urgan ham Chimnoz muallima bo‘ldi.

To‘g‘risi, Samad qo‘rqoq emasdi, ammo eshikning orqasidan Chimnoz muallima tuflisining poshnachalari taqillaganda Samadning yuragi joyidan qo‘zg‘oldi, eshik tortilib ochilganda Samadning o‘zi ham joyidan qo‘zg‘oldi, o‘qday uchib Chimnoz muallimaning quchog‘iga tushdi. Samadning bo‘yi zo‘rg‘a Chimnoz muallimaning ko‘kragidan kelardi, shuning uchun Chimnoz muallimaning yuragi to‘g‘ri Samadning qulog‘i ostidan dukurlab tepardi.

Samadning tishiga bog‘langan ip ham uzilgandi, bir uchi eshikda osilib turardi. Ip uzilgandi, ammo uzilgan sut tishi ham Samadning og‘zida edi.

So‘ngra Samad o‘tib joyiga o‘tirdi; Chimnoz muallima darsda nimalarni o‘tdi, nima dedi, Samad eshitmadi — qulog‘ida faqat Chimnoz muallima yuragining dukurlashi eshitilardi. Samad oqshom to‘shakka kirib yotganida ham u yurakning dukurlashi hali qulog‘idan ketmagandi.

Yondosh uyda chiroq yonardi, otasi miltiq tozalardi, ehtimol, sahar-mardonda yana ovga chiqsa kerak. Devordagi qora gardishli suratdan onasi suqlanib otasiga boqardi.

Onasi Samadni tug'ayotganda o'lgandi. Samad bu dunyoga kelib ko'zlarini ochganda, onasini o'sha qora gardishning orasidan, o'sha o'lim panjarasidan suqlanib boqqan holda ko'rgan edi.

Onasi otasini juda ham yaxshi ko'rar ekan, aytishlaricha, bu qishloqda hech kim bu qadar kuchli sevgini ko'rmagan ekan. Balkim, Samad tug'ilganda onasi u sevgi tufayli o'lgandir, u sevgisini to'qqiz oy yuragining ostida asragan o'z farzandi bilan ham bo'lishgisi kelmagandir.

Haligacha Samad onasi yuragining urishlarini yodida asrab kelardi, endi esa, qancha urinmasin, u dukurlashlarni yodiga keltirolmasdi, endi Samadning qulog'ida Chimnoz muallimaning yuragigina sas berardi.

Shu lahzalarda Samadning o'z yuragida ham nimadir kurtak otar, o'sib, gurkirab borar, entiktirardi. Samad buni butun jon-u tani bilan his qilardi, ammo uning nima ekanligini hech xayoliga keltirolmasdi va qalbini to'ldirgan u entikishdan ham lazzat olardi, sevinardi, ham bir boladay qo'rqardi.

Hali mevasi na bo'lishidan xabarsiz, umrida ilk barg chiqargan yosh daraxtday o'z jonida bo'rtgan birinchi mevadan yegan boladay ham lazzat olar, sevinar, ham bir boladay qo'rqar.

... Samadning yuragida kurtak otgan u mevaning ismi SEVGI edi...

Bu nechuk sevgidir, tushdi boshingga,
Allohdan qo'rqmadi, mening bolam?
Boqmadi go'dak yoshingga,
og'zingdagi sut tishingga boqmadi, mening bolam —
bu nechuk sevgidir tushdi boshingga?!

Bu keksa dunyoda shu yosh yoshingda
tishlading har neni shu sut tishingda.
Totding bu dunyoning ko'p achchig'idan,
o'tding yo'talidan, qizamig'idan,

sevgisiga
tutilding bu dunyoning.

Zolim sevgi, boqqil, seni nayladi,
bunday zolim o'lim yo'qdir,
dard yo'qdir.
Qo'lingda qorayar emlash payvandi,
bolam, sevgidan emlash — payvand yo'qdir.

Bu sevgidir, mening bolam,
umrlardan uzun sevgi:
bir qo'lida
beshiklarni tebratgan,
bir qo'lida
qabrlarni qazgan sevgi.

Bu sevgidir, mening bolam, —
bir asov tulporday
ortimizdan chopgan sevgi,
qayda bo'lsak, o'lim kabi
kelib bizni topgan sevgi.

Bu sevgidir, mening bolam,
ming yildirki — omon sevgi,
ko'zidan yosh tomchilagan,
qo'lidan qon tomgan sevgi...

... O, sen kimsan, mening bolam:
bu chandiqli yuzing tanish,
yamoq tushgan tizing tanish.
Chimrilganda — qoshing tanish,
yig'laganda — ko'zing tanish.
Bolalarning, go'daklarning
eng faqiri, siqilgani,
hammadan ham sekin yurib,
hammadan ko'p yiqilgani.

Ehtimol, sekin yurgin deb,
sevgi seni xohladi,
yo‘llaringni to‘rt tarafdan bog‘ladi.
Endi shunday, bu sevgidir
suvlaring ham, yemaging ham.
Sumbul kabi yuragingda
bu sevgi don bog‘ladi.

Qisqagina umrimizda
dunyoga boqa-boqa,
bolam, ming yillardan buyon
yashayapmiz shunaqa.

Ming yillardir
yuragimiz tomir-tomir
sevgiga bog‘lidir bu yer yuzida.
Changidan yulduzigacha,
o‘g‘lonidan qizigacha
bari hisoblidir bu yer yuzida.

Bu dunyoning sevgisi ham
o‘lchovli, hisoblab chiqilgan, bolam.
Barchamizga bo‘laklanib,
bo‘yimizga bichilgan, bolam.

Ammo, urfdan qolgan chopon ko‘rganday,
ko‘pdir bu dunyoda sevgidan kulib,
aftin burushtirgan, labin burganlar.
Ko‘pdir bu dunyoda qo‘l-qo‘l ushlashib,
yalang‘och kezganlar, ishqsiz yurganlar.

Sevgisiz o‘pichlar yalang‘och,
qizlarning yonoqlari
yaproqday quriydi och —
ko‘pdir daraxtning ildizidan kirib,
shoxida barg kabi hissiz yurganlar.

Kesilgan o‘rmonlar kabi,
quriyotgan ummonlar kabi
sevgi ham tugaydi bu yer yuzida.
Dunyoda qo‘li bo‘sh, tilanar sevgi,
u yonga-bu yonga bo‘ylanar sevgi,
sevganlarni izlar ko‘zi — topolmas,
yigitni topganda qizni topolmas —
sevganlar yolg‘izdir bu yer yuzida.

Mening bolam, sen-da yolg‘iz,
yolg‘iz, yer yuzinda yolg‘iz,
oy kabi, kun kabi yolg‘iz,
tuproqda don kabi yolg‘iz,
bog‘da shamol kabi yolg‘iz,
jonda yurak kabi yolg‘iz.
Sen ham yolg‘iz, mening bolam,
bu ko‘kning ostida yolg‘iz,
Dunyoda sevgi atalgan
bir yukning ostida yolg‘iz.

Lablaring nimadir deydi, pichirlar,
ko‘zlaringdan yosh to‘kilar, mening bolam.
Suyaklaring qisirlaydi, g‘ichirlar,
beling bukilar, bukilar, mening bolam.

Allohning ko‘zi qiydimi —
shoshdi bu ko‘kning egasi.
Sevgi sening yuking emas,
qani bu yukning egasi?!

Tangri o‘zi yeng shimarib
kirsin bu yukning ostiga,
Kuragini, yuragini
bersin bu yukning ostiga.

... Voh, ehtimol, jonim bolam,
yo‘qlikka baqirgan menman.

O‘zim bunda qarab turib,
o‘zgani chaqirgan menman.

Balkim, bu ko‘kning ostida
men ham gunohga botganman.
Sen kirgan yukning ostidan
yelkamni olib qochganman.

Poyonsizdir dunyo yuki:
sevgisi — yuk, nafrati — yuk.
Uchrashganda suhbati — yuk,
ayrilganda hasrati — yuk.

Dunyo — bir yuk daraxti,
har yukning ko‘ki insondir.
Insonning yuki — bu dunyo,
dunyoning yuki insondir.

Peshonaga bitilganmish
yelkamizga tushar yuklar.
Bolaginam, bu yozuvdan
qochmoq mushkul ekan-da.
Yuk ostidan yelkasini
olib qochsa kattalar,
bolalarning yelkasiga
yuk tushar ekan-da.

Bilmay qoldim, jonim bolam,
men oriqni kechirgin,
yelkamdagi qabariqni kechirgin!..

“Kechir!”... Gapga qara, Alloh! Hamma bir-biriga: “Kechir!” — deydi, ammo hech kim hech kimni kechirmaydi.

Biroq oyog‘imizga tekkan toshlar bizga “kechir” demadi.

Biz tosh bilan urgan qushga “kechir”demadik.

Shunaqa yashaymiz: toshlar, qushlar, odamlar. Bizni og‘ritganlar, biz og‘ritganlar.

Qushlar va bolalar bir-biriga o‘xshaydi. Bolalar ham tushlarida ucha oladi. Tushida uchgan bolaning bo‘yi o‘sadi, deydilar.

Tush yo‘q narsa, tushning joni yo‘q. Ehtimol, har uchgan qush joni kirib qanotlangan tiyra ko‘zli bir tushdir — bir go‘dakning tushidir. Bas, shunday ekan, bolalar nega qushlarga tosh otadilar, qushlarning oyog‘idan daraxt shoxiga bog‘lab qo‘yadilar.

Mening bolam, ko‘rayapman, sen ham shu bolalarning orasidasan.

Bir daraxt tevaragida davra qurib o‘tiribsizlar. Shoxlardagi chumchuqlar sizga boqadi — oyoqlariga bog‘langan ipdan xabarsiz, sho‘rlik chumchuqlar. Bolalar to‘satdan qichqirishadi, chumchuqlar hurkib qo‘zg‘oladi.

Sen ham qichqirdingmi, mening bolam?!

Bu dunyoda bolalarga aldangan
qushlardan ham sho‘rlik ne bor, ilohim?
Oyog‘idan butoqlarga bog‘langan
qushlar nega qanot qoqar, ilohim?!

Sho‘rlik qushlar tipirchilar, urinar,
butoqlardan qanotlari tilinar.
Ko‘kdan yerga elangan qush patidan
bolalarning sochlariga oq tushar.
Daraxtlarni qo‘porolmas o‘rnidan,
sho‘rlik qushlar charchab, chirqiroq tushar.

U bolalar, u kichik jallodlarning
oyog‘i ostinda, azob ichinda
o‘lgan qushlar qon tomirga osilib,
yurak kabi titrar ipning uchinda.

Qushlar emas, o‘lgan bizmiz, ehtimol.
Kim biladi — o‘lgan kimdir, tirik kim?!
Unda turgan
qo‘llari qon go‘dak menman, ehtimol,
unda o‘lgan u qush — mening yuragim.

Barglar tushar
u qushlarning ochiq qolgan ko‘ziga,
botiq-botiq oyoqlardan
qonli iplar yechilmas.
Endi shundoq bu qushlarning yuziga
osmon ham bir qulf eshikday —
ochilmas.

Chumchug‘ini ayirmaylik bulbuldan,
qush siyoqli yuraklarga yig‘laylik.
Ne zamonsoz shoirlarning qo‘lida
qo‘shiq yozgan laylaklarga yig‘laylik.

U qushlar ham biroz bizga yig‘lasin,
bu yuraksiz umrimizga yig‘lasin.
Balkim, bizdan xabarsizdir u qushlar,
yomonimiz, yaxshimizdan xabarsiz,
bu oqargan sochimizdan xabarsiz,
bu tirishgan yuzimizdan xabarsiz.

Ustimizda dog‘lar qolmish
u qushlarning qonidan,
yuz bir kiyim almashtirsak
endi u qon ketmagay.
U iplarning izi ham
jizillaydi butoqlarning jonida.
U qushlarning sasi hali
daraxtlarning qulog‘idan ketmagay.

Balkim shunday, qushlar so‘nggi fursatda
o‘la-o‘la bizni sevgan, qarg‘agan.
Balkim, Alloh bizni ip-la u paytda
u qushlarning oyog‘iga bog‘lagan.
Balkim shunday, u dunyoda tuproqdan
har sahar ul ipning uchidan tutib
uyg‘otar, uyg‘otar bizni u qushlar,

ipga osib qo‘ygan o‘yinchoq kabi
o‘ynatar, o‘ynatar bizni u qushlar.

Peshonamiz tirishidan,
bag‘rimizning boshidan
biz u ipni yecholmaymiz o‘lguncha.
Bu dunyoning tuprog‘idan, toshidan,
Xotinlarning nozidan, qarg‘ishidan
ozod-erkin ucholmaymiz o‘lguncha.

Yig‘lagaymiz — bizga kular u qushlar,
Yashirinsak — yana ko‘rar u qushlar.
U qushlarni ko‘rmayin, deb
ko‘zimizni yumarmiz —
kelib tushimiza kirar u qushlar.
U qushlarning oyog‘iga yiqilib
yolvorarmiz: yoqamizdan yiroq ket.
Kecha-kunduz tinchligimiz yo‘qoldi,
biror oqshom uyqumizdan yiroq ket!..

... Tushimizda o‘lik qushlar tirilar,
qanot qoqib tebratar ko‘k yuzini.
Oyoqlarin qonli ipi cho‘zilar,
g‘ichirlatar daraxtning ildizini.

Qushlar tortar daraxtlarni ortidan,
chinorni ham,
yong‘oqni ham qo‘porar.
Tuproq yerni qattiq ushlar daraxtlar,
qushlar tortar —
tuproqni ham qo‘porar.

Qushlar tortar, qalqar uylar-eshiklar,
bir-birini quvlar itlar-mushuklar.
Xotinlar ham, ushoqlar ham qichqirar,
qo‘rqoqlar ham, qochoqlar ham qichqirar.

Qichqiramiz: — Qutqar bizni, Allohim!
Qushlar qayga tortar bizni, Allohim?!
Balkim, qushlar torta-torta oborib,
yo‘qliklarga otar bizni, Allohim!..

Tosh keltirib, izlagaymiz qushlarni,
bitta-bitta ko‘zlagaymiz qushlarni.
Uchgan qushlar ko‘k yuzidan to‘kilar,
tosh otarmiz bir dona qush qolguncha.
U bitta qush yana bizdan zo‘r kelar,
yana tortar dunyomizni tolguncha.

O‘zi rostdan bitta qushmi, ilohim,
bu dunyoni shahar-shahar, o‘lka-o‘lka ko‘targan?!
Bu dunyoda eng oxirgi shoirning
yuragidir, balkim, bizni ko‘targan.

Biz u qushga, Alloh, nega tosh otdik?!
Xotin, go‘dak ham kesa-yu yosh otdik.
Bu dunyoda eng oxirgi shoirning
yuragini toshlaguncha tosh otdik.

U qushning ham so‘nggisini otaylik, —
kimning toshi tegar, qani, u qushga?!
Ko‘zimizni katta ochib boqaylik
ko‘k yuzidan ko‘chib kelgan u qushga.

Ko‘k yuzining uzanar har qarichi,
bu ne ishdir, ayt, ko‘klarning Egasi?
Nechun, aytgil, dunyoning ham, qushning ham
hech tuzalmas, hech tuzalmas yarasi?!

Qo‘l ber, bu dunyoning tog‘-u tuzin tut,
tog‘-u dashtning, axir, nedir gunohi?
Bu dunyoni o‘zing ushla, o‘zing tut,
yiqilarmiz, yiqilarmiz, ilohi!
Balkim, bir dam ko‘rolmadik u qushni,

Balkim, o‘zga dunyolarga to‘qnashib,
parcha-parcha to‘kiladi bu dunyo.
Ko‘k yuzidan u qush g‘arib tushadi.
U qush oxir qayga borib tushadi,
oxir qayga yiqiladi bu dunyo?

Qutqar bizni bu qo‘rquvdan, Allohim,
Uyg‘ot bizni bu uyqudan, Allohim!..

... U uyqudan telba kabi uyg‘onib,
ko‘zimizni ochganda,
Qo‘rqa-qo‘rqa ko‘tarishib ko‘rpani,
qush o‘ligin axtaramiz
to‘shagimiz ichida...

O‘lik qushlar yerga qator-qator tushib yotardi.

Bolalardan biri:

— Tezroq bo‘linglar, qochdik, — dedi. — Chimnoz muallima kelyapti!...

Rostdan ham yo‘lning u chetidan Chimnoz muallima kelardi, o‘zi ham to‘g‘ri ular tomonga kelardi. Ehtimol, u qushlarning boshiga tushgan savdoni ko‘rgandi.

Bolalar yerdagi o‘lik chumchuqlarni yig‘ishtirib, tezda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldilar. Daraxtning ostida faqat Samad qoldi, yana bir — o‘lik chumchuq.

Chimnoz muallima keldi, o‘lik chumchuqni yerdan ko‘tardi va Samadga o‘girilib:

— Ertaga yo otang, yo onang maktabga kelsin! — dedi.

Samad indamadi.

— Gapimni eshitmadingmi?!

Samad yana gapirmadi.

Shunda Chimnoz muallima Samadning qo‘lidan tutdi:

— Qayerda yashaysizlar? — dedi.

Samad boshi bilan imladi.

Chimnoz muallima Samadning qo‘lidan tutdi:

— Ketdik! — dedi.

Samad egilgancha Chimnoz muallimaning yonida yo'lga tushdi.

Ketdilar, yetdilar, Samad eshikni ochdi, ichkariga kirdilar.

Samadning otasi yo'q edi.

Chimnoz muallima qo'lidagi o'lik chumchuqning boshini siladi:

— Hechqisi yo'q, kutib turaman! — dedi.

Shunday aytdiki, go'yo Samadning otasi kelib, bu chumchuqni tiriltiradi.

So'ngra Chimnoz muallimaning ko'zi devordagi suratga tushdi:

— Onangmi? — dedi.

Samad boshini qimirlatdi.

— Onang ham uyda yo'qmi?

Samad boshini tebratdi.

Chimnoz muallima suratga suqlanib boqdi:

— Qanday go'zal onang bor-a, — dedi. — Rostdan ham go'zalmi yo suratda go'zal chiqqanmi?

Samad oxiri tilga kirdi:

— Bilmayman, — dedi, — ko'rganim yo'q!

Chimnoz muallima suratning qora gardishini endi ko'rdi, seskanib o'lik chumchuqni qo'lidan yerga tushirib yubordi.

Samad tez egilib, qushchani yerdan ko'tardi. Shu payt eshik ochildi, otasi ichkariga kirdi, yelkasida miltiq bor edi, qo'lida u ovlagan bir juft qirg'ovul.

Samad otasining yonidan suqilib o'tib, tashqariga chiqdi.

Chimnoz muallima o'lik qushlarni ko'targan Samadning otasini ko'rib, o'zini yo'qotib qo'ygandi.

Chimnoz muallima bu yosh umrida hali hech bir kishidan qo'rqmagandi, ammo endi his qildiki, bu odamdan qo'rqadi, eng og'iri shu ediki, bu qo'rquv unga lazzat baxsh etardi.

Chimnoz muallima bexosdan bu odamning qo'lidagi bir juft qirg'ovul bilan, yana bu kishi ovlagan barcha qirg'ovullar bilan, kakliklar, bedanalar, jayronlar bilan, boshqa shunday jonivorlar bilan o'zining qondoshligini, yaqinligini his qildi va bir juft qirg'ovulni ko'rsatib, yuragi dukurlay-dukurlay:

— Ovchimisiz? — dedi.

Samadning otasi Chimnoz muallimaning oyog‘idan boshigacha termulib:

— Ha, — dedi. — OVCHIMAN!..

Bir ov maydonidir bu qishloq, shahar,
miltiqsiz-u o‘qsiz bu qanday ovdir?!
Bir ozcha ovchidir hamma erkaklar,
xotinlar hammasi bir ozcha ovdir.

Bu makkor boqishning qurboni bo‘lay,
ayollar ovlanar, qizlar ovlanar,
Uzun kipriklari yordam berolmas,
ola ko‘zlar, qora ko‘zlar ovlanar.

Qanday soz, eshikni ochib kelibsan,
sen mening ovimsan — tanidim seni.
Balkim, baxt qushisan, uchib kelibsan,
bas, qani yelkangda qanoting seni?

Devorlar gul ochar — qo‘ling teginsa,
Tortilar Tangrining qo‘li bu uydan.
Biroz tutun hidi, poroxning dudi,
Bir ozcha qon hidi kelar bu uydan.

O, yomon tikilar ko‘zing devorga —
suratga boqqanda yoshlanar ko‘zing.
Buraylik suratning ko‘zin devorga,
bu shahid sevgining ruhi yonmasin.

Balkim, bir tush erur u o‘lgan ayol,
yumsam ko‘zlarimni — qaytadi, balkim.
Sevgi ilohiydi u o‘lgan ayol,
usiz ilohsizman dunyoda, balkim.

O‘lganga baribir, sho‘rlik — qolgandir —
O‘lgan o‘ldi, qolgan endi naylasin?!

Deydilar: Xudolar o‘lmas...
yolg‘ondir!..
Xudo o‘lgan yerda banda naylasin?!

Yarim zor, yarim hush ketar o‘lganlar,
Kim aytar, qo‘li bo‘sh ketar o‘lganlar:
Qo‘li tekkanidan oborar qo‘li,
Ko‘zi ko‘rganidan oborar ko‘zi.
Qabrlar ko‘payar — dunyo kamayar,
O‘lganlar parchalab oborar bizni.

Birozdan obketar har o‘lgan odam
har qolgan odamning tirikligidan.
Nonning ta’midan-u
suvning totidan,
Chechakning isidan, gulning hididan.

Tirilar hammasi biroz-birozdan,
bir quruq soyamiz,
bir bo‘sh alvasti.
Allohim, chiqajak axir qachondir
tuproqning ustiga
tuproqning osti.

Bilaman, o‘lganlar tirilmas — ammo
Mening u dunyo-la oldi-berdim bor:
Ehtimol, o‘limni o‘lim olgaydir,
O‘limni o‘lim-la almashmoq darkor.

Sen ham, go‘zal xonim, meni kechirgin,
seni qo‘rqitmasin qo‘limdagi qon.
Mening ovlaganim u barcha qushlar
u o‘lgan ayolga qurbondir, qurbon.

Yuz qushning, ming qushning o‘limi, balkim,
uning o‘limiga teng kela bilsa,

Oxiri kunlardan bir kuni, balkim,
uni u dunyodan men ola bilsam.

... Balkim, seni unda Tangrim ko‘ndirmish,
Balkim, u dunyodan kelgan malaksan?!
U ayol o‘lganda o‘lgandim, o‘lgan —
Ehtimol, sen meni tiriltirarsan...

Sochlaring bunchalar yumshoqdir, yumshoq,
sochingga teginsa —
qo‘lim tirilar.
Men o‘lgan edim-ku, ne bo‘ldi, Alloh,
balkim, tanimdagi O‘lim tirilar?!

Tirilar ko‘ksimda yurak, Allohim,
Tirikman!
Tirikman!
Tirikman yana!
Tiriklar yashashi kerak, Allohim...
O‘zing rahmat qilgin o‘lganlaringni...

... Samad murg‘ak tirnoqlari bilan bog‘da yerni kovlab, o‘lik chumchuqni ko‘mib qo‘ymoqchi bo‘lardi.

Tuproq jips edi, Samadning barmoqlarini og‘ritardi...

Iltijo qilamiz ming-ming til ila —
Dunyoning tosh sabri kabi sabr yo‘q.
Qabr yo‘qdir,
bir bolaning qo‘li-la
Qazilgan qush qabri kabi qabr yo‘q.

Bir hovuch qora tuproq bas edi,
Qushlar bizdan ko‘z yoshi ham so‘ramas.
Bir qarichday qabr qazsak,
bas edi,
Bir barmoqday go‘r toshi ham so‘ramas.

Buncha o‘xshash qushlarning, bolalarning o‘limi —
Ikkisidan ham dunyoda bir yuk qolar:
Bolalardan — to‘ygunicha yasholmagan bir umr,
U qushlardan to‘ygunicha ucholmagan ko‘k qolar.

Odam o‘g‘li, sabab budir, ehtimol,
bolalarning
tobuti tosh kabidir.
Balkim, bu zil tobutlarga yuklangan
bolalarning yashalmagan umridir.

Yaxshiyamki, tobuti yo‘q qushlarning,
u tobutni yuklab qanday kezardik?
Butun osmon u tobutga yuklanib,
balkim, nozik yelkamizni ezardi.

Balkim, yetdi dodimizga bolalar,
O‘lgan qushga qabr qazgan bolalar
bu tobutdan yelkamizni asradi.
Tepamizdan bosib turgan bu ko‘kdan,
Bu quyoshdan, bu yulduzdan, bu oydan,
bu bulutdan yelkamizni asradi.

Yaxshiyamki, yashayapmiz shunaqa,
har gunohni yuvgan, tuzgan topilar.
Yaxshiyamki, bu dunyoda bir parcha
chumchuqqa ham qabr qazgan topilar.

... Balkim, mening qabrimni ham qazgan bor,
kunduz qazar,
kecha qazar qabrimni.
Chumdugi-la cho‘qib-cho‘qib tuproqni
biror mitti qushcha qazar qabrimni.
Axir, hali men oz umr surganman,
O‘lim, balkim — uzoq, balkim, yaqindir.
U qushchani, balkim yuz bor ko‘rganman,

aytganmanki,
izlagani don-dundir.

U chumchuqning yemi, balkim, menman, men,
U chumchuqning chumduginda donman men,
cho‘qilar, cho‘qilar meni u chumchuq.
Kunlarimni, yillarimni cho‘qilar,
Qora sochim, qo‘llarimni cho‘qilar,
cho‘qilar, cho‘qilar meni u chumchuq.
U chumchuqning chumdugidan qutulib,
bekinmoqqa hech bir makon topmadim.
U chumchuqning qabog‘inda tutilib,
chidamoqqa jonimda jon topmadim.

Cho‘qilaydi, cho‘qilaydi bu chumchuq,
bu tanimdan
necha jonlar ayrilar.
Mendan qo‘pib,
qavat-qavat shilinib,
yana yangi,
yangi tanlar ayrilar.

Cho‘qilaydi, cho‘qilaydi bu chumchuq,
og‘riq chiqar tanimdan.
Tanimdagi og‘riqlardan ko‘karib,
qizim chiqar,
o‘g‘lim chiqar tanimdan.

Odam o‘g‘li, bas, sen nechuk, men nechuk,
bas, men kimman,
bas, men qaydan tug‘ildim?!
Balkim, shunday otamni ham
cho‘qilagan bu chumchuq,
Men otamning tanidagi
og‘riqlardan tug‘ildim.
Balkim, shunday na tanish bor, na yot bor,

bu dunyoda
hammamiz bir badanmiz.
Balkim, shunday biz odamlar, odamlar,
nasl-nasl cho‘qilangan bir tanmiz.

Ne bo‘lgayki,
hovuch-hovuch don sepilgan har yerda,
Ne bo‘lgayki,
boshdan oxir
hovli-hovli sochildik.
Balkim, shunday bitta tandir
bu dunyoning avvali,
Balkim, “Alloh” deyilgan dam
shundoq birdan ɵchildik.

Balkim, shunday ming yillardir
u chumchuqning tumshug‘idan
tushib-tushib kelarmiz.
Ming yillardir shunday,
cho‘qilangan badandan
sachrab-uchib kelarmiz.

Peshonada hali bunday
ming-ming og‘riq-achchiq bor,
ming-ming kunduz-kecha bor.
Bir o‘limsiz TAN bor bu yer yuzida,
bir o‘limsiz CHUMCHUQ bor...

Samad chumchuqni ko‘mib kelganda Chimnoz muallima uyda otasi ovlagan qirg‘ovulning patini yulardi.

Otasi devorga suyanib, bir qoniqish ila kulib qarab turar edi.

Ammo onasining devordagi yillar bo‘yi boqib turgan surati o‘girilgan edi, qora gardishli suratning yuzi devorga burib qo‘yilgandi.

Samad shoshdi, bir suratga, bir otasiga termuldi.

Otasi birdan hushyor tortdi, suratning yuzini bu yonga o‘girdi. Samad badtar shoshib qoldi: suratdan termulib onasi jilmayardi.

Samad suratdan ko‘zini oldi. O‘sha kuni qirg‘ovul go‘shtini og‘ziga ham olmadi.

O‘sha kundan keyin Chimnoz muallima gohi-gohi Samadlarnikiga kelib turadigan bo‘ldi, biroq har gal u kelganda, Samad sekin oradan chiqib ketar, uyga juda kech, Chimnoz muallima chiqib ketganidan so‘ng qaytardi, har gal qaytganda otasini xursand, baxtiyorlikdan jilmaygan holda ko‘rardi.

Bir gal Samad uyga qaytib, eshikni harchand itarmasin, ocha olmadi.

Eshik ichkaridan berk edi.

Samad oyoqlarining uchida cho‘zilib derazadan qaradi va otasi hamda Chimnoz muallimani ko‘rdi. Chimnoz muallima yirik, oq-oppoq qush kabi to‘shakka uzala tushgandi. Bu, ehtimol, otasi ovlagan eng go‘zal qush edi. Biroq u tirik edi. Chimnoz muallimaning oppoq qo‘llari otasining chayir bo‘ynidan quchardi, Samadning tushlariga kirgan charsildoq lablari otasining otash yuzidan, ko‘zidan o‘pardi, oyoqlari, bo‘liq oyoqlari...

... Qarama, bolam, yosh bola bunaqa ishlarga qaramaydi!.

Ammo Samad qarab turardi.

Devordagi qora gardishli suratdan onasi ham qarab turardi, qarab kulardi, go‘yo otasining baxtiyorligidan u ham sevinardi. Nega sevinardi, Alloh?!

So‘ng Chimnoz muallima chiqib ketdi, uyda yolg‘iz otasi qoldi, yana onasining surati.

O‘sha kuni Samad otasiga bir og‘iz ham gapirmadi, bosh ko‘tarib suratga ham boqmadi.

Ertasiga Chimnoz muallima Samadni doskaga — yozuv taxtasi oldiga chiqarganda Samad tosh kabi sukut saqlardi.

Chimnoz muallima:

— Yoz, — dedi.

Ammo Samad bu qora taxtaga hech nima yozmadi, ko‘zini u qora taxtaning qorong‘uligiga tikkancha turaverdi: go‘yoki bu qora taxta derazaday yarq etib ochilardi, cheksiz yo‘qlikka, bosh-oxirsiz zim-ziyo qorong‘ulikka ochilardi. Samad u derazadan boqib, qorong‘uda kimnidir ko‘rardi.

KIMNI?!

Beshikdan tobutgacha
umrimiz oq uzra qora bilan yozilar,
Bas, nechun, mening bolam,
bu taxtaning yuzi qora,
nega oq-la yozilar?

Hayot deganlari — uzun yo qisqa —
Dunyoning eng qiyin darsi ekan-da.
Bu qora, qop-qora yozuv taxtasi
Bizning umrimizning tersi ekan-da.

Yulduz-yulduz yirtilgan ko‘k yuziday
U taxtani so‘z-so‘z yirtgan biz bo‘ldik.
U qora taxtaning
qora betidan
To‘kilgan so‘zlarni tutgan biz bo‘ldik.

Yozdik va o‘chirdik bo‘yi-eninda,
Ul qora taxtaning har qarichinda
qo‘limizning izi namoyon.
Aldandik, mening bolam,
u yozuv taxtasiga,
Endi bildik, har yozuvning o‘chmog‘i ayon.

Yozdik va o‘chirdik —
sevinch-u g‘amimiz
Har so‘zdan, harfdan, chizgidan o‘tdi.
Ul qora taxtadan o‘tdik hammamiz,
bilginki, bir qora ko‘zgudan o‘tdik.

U ko‘zgudan qo‘limizda yozilgan
necha-necha ism, otlar o‘tdi,
tug‘ishganlar, yotlar o‘tdi.
“Ot” deb yozdik,

“O‘t” deb yozdik, —
U ko‘zgudan
yilqi-yilqi otlar o‘tdi,
chaman-chaman o‘tlar o‘tdi.

O‘tgan o‘tdi — bir dam do‘nib
U ko‘zgudan so‘rolmadik.
Minolmadik u otlarni,
U o‘tlarni o‘rolmadik.

Mening bolam, bu ne ishdir,
boqdim, yo‘l tuta bilmadim.
U ko‘zgudan hamma o‘tdi,
sen nega o‘ta olmading?!
Talpinarsan, urinarsan,
u ko‘zguning ichindasan,
Balkim, hozir ot choparsan,
balkim o‘roq-pichandasan.

Nega buncha ivigansan —
terdanmi yo ko‘z yoshidan?!
Biror fursat suving chiqmas
u ko‘zgudan qirg‘oqqa.
U ko‘zgu bosar boshingdan,
bo‘ying chiqmas u ko‘zgudan qirg‘oqqa.

Qurigan, yorilgan lablaring bilan
chaqirarsan, sas bermaslar sasingga,
talpinib, kuchanib uryon solarsan.
Nozik qo‘llaring-la, oyoqlaring-la
u yozuv taxtasiga
mixlanib qolarsan.

U qora taxtada yo‘qolar, yitar
qop-qora ko‘zlaring, bolam.
U qora taxtada ko‘karar, bitar
yaproq-yaproq so‘zlaring, bolam.

U so‘zlarni terolgan — yo‘q, bilgan — yo‘q.
Yuz chaqirsang,
yordam qilib kelgan — yo‘q.

Koshki, birov madad bersa dodingga,
u chormixni o‘zing sug‘ur, voh, bolam.
Dor kuni o‘z isming yetsin dodingga,
o‘zing o‘z otingni chaqir, voh, bolam.

Yo‘qsa, tiling duduqlanar, shosharsan —
o‘z oting tilingga botmaydi go‘yo.
Urinarsan, talpinarsan, tosharsan,
o‘z otingga kuching yetmaydi go‘yo.

Kel, qiynama birovni ham, yotni ham —
kuching yetmas o‘z muqaddas otingga.
Mening bolam, og‘ir kunda oti ham
bu dunyoda madad bermas odamga.

Kim qolar dunyoda?

Umr yo‘li
dunyoning eng ketsa-kelmas yo‘lidir.
Mening bolam,
bu dunyoda o‘lguncha
har kim shunday o‘z ismining qulidir.

O‘lguncha jonimiz-la
boqajakmiz ismimizni,
Etimiz, qonimiz-la
boqajakmiz ismimizni.

Mayli, joni bo‘lmasa-da,
Go‘shti, qoni bo‘lmasa-da —
Yana, yana bu dunyoda har nening
ismi o‘z jonidan chiqar.

Toshning, suvning, yerning, ko‘kning
ismi o‘z jonidan chiqar.
O‘z ismiga ketar kuchi,
har ne kuchdan tushib qolar.

“Suv” deguncha — suv charchaydi,
“Tosh” deguncha — tosh yumshalar.
“Yer” deguncha —
yer ham biroz botar yerga,
“Ko‘k” deguncha
ko‘k ham biroz ko‘kdan tushar.

Ichimizni bir sevgi yegan kabi,
Titrab-qaqshab “sevaman” degan kabi
sevgimiz charchab qolar.

... Bas, sen nechuk, mening bolam,
O‘z ismingni chaqirmoqqa,
U yozuv taxtasidan
talpinib chormixni sug‘urmoqqa
hali kuching qoldimi?

Yer yuzida oyoq qo‘yib turmoqqa
hali bir qarich yering,
Ko‘k yuzida
boqmoqqa bir qarich ko‘king qoldimi?
Bir qarich yer-osmon orasida
o‘smoqqa,
qalqmoqqa bir qarich bo‘ying qoldimi?

Yerda — yering,
ko‘kda ko‘king qolmasa, bolam,
O‘z ismingni qichqirmoqqa
yana kuching qolmasa —
Endi qo‘rqma,
chaqirmoqqa yana bir ot toparsan,
undan ko‘mak, undan imdod toparsan.

Uni chaqir og‘ir kunda, og‘ir damda,
o‘z dardingni unga de, bolam,
Bu qora taxtaga, bu ko‘r taxtaga
yuzingni tut:
— Ona!.. — de, bolam.

... Qora taxta, ko‘zingni och,
Ko‘r meni, qora taxta.
U qorako‘z, u qorasoch
Onamni ber, qora taxta.

Qora taxta, Xudodan qo‘rq?!
“Yo‘q”, — dema, yo‘q, qora taxta!
Qora taxta, onamni tug‘,
Onamni tug‘, qora taxta!..

O‘sha kun Samad maktabdan qaytganda, onasi yana jilmayib devordagi suratdan boqardi.

Otasining qo‘shog‘iz miltig‘i ham devorda osig‘liq edi, biroq otasining o‘zi yo‘q edi.

Samadning ko‘zlari yoshga lim to‘lgandi, Samadning yig‘lagisi kelardi. Onasiga o‘girilib: — Kulma! — dedi.

Ammo onasi hali ham kulib boqardi.

Samad kursini oyog‘i ostiga qo‘yib ko‘tarildi, onasining yuzini devorga o‘girdi.

So‘ngra miltiqni devordan olib keldi, o‘qlarning joyini bilardi, bordi, bir juft patron keltirdi, miltiqqa joyladi, tepkilarning ikkisini ham tortib, pastga qo‘ydi.

Keyin bir qalin ipning uchini miltiq tepkilariga tugib, ikkinchi uchini eshikka bog‘ladi, yuzi devorga o‘girilgan surat ostidagi kursiga o‘tirdi, miltiqning qo‘ndog‘ini yerga tirab, qo‘shog‘izni naq dukurlayotgan yuragiga qadadi.

Samadning chehrasida g‘alati bir tus bor edi: go‘yoki bu paytda u umrida hech qachon o‘ynamagan eng qiziq o‘yinini o‘ynayotgan edi.

Samad bog‘lagan ip miltiq va eshik orasida tarang tortilgandi, eshik ochilgan zahoti o‘q uning yuragiga otilardi. Samad goh ipga, goh eshikka termula termula kutardi: NIMANI kutardi, Alloh?!

O‘lguncha
qancha-qancha eshikdan o‘tar odam,
Dunyo —
yuzimizga tutilgan eshiklarga to‘liqdir.
Ehtimol, yuzimizga
yopilgan eshikdanmas,
Yuzimizga ochilgan
eshikdan qo‘rqulikdir.

Bolaginam,
hammamiz ham tug‘ilganda yig‘larmiz.
Onalarning tanidan
quvilganda yig‘larmiz.

Balkim yashamoq emas,
dunyoga kelmog‘imiz,
Balkim, tug‘ilgan kuni
boshlanar o‘lmog‘imiz.

Oyog‘imiz yerga tekkan zahoti
Qadam qo‘yib, yildan yilga o‘larmiz.
Bu dunyoda bir daf’alik o‘lguncha,
Xudo bilan, necha bora o‘larmiz.

Bir nozli xotinga aylangan kuni
bir go‘zal qiz o‘lar, bolam,
Mo‘ylovi chiqqan kuni
bir o‘smir — quvnoq — o‘lar.
Bu dunyoda oz yashagan
oz o‘lar, bolam,
Bu dunyoda ko‘p yashagan ko‘proq o‘lar.

Hech kim ko‘rmas marhumlarning qonini,
Bizlar sog‘miz, sog‘ odamga kim yig‘lar?
Kim biladi,
qo‘l-oyog‘i titragan bu kampir
bir nozli xonimning olmish jonini,
Bu sho‘rlik cholning bukri belida
navqiron yigitning, balkim, qabri bor.

Ham o‘likmiz, ham tirikmiz, Allohim,
biz nechuk insonlarmiz?!
Bu dunyoda kezib yurgan
jonli qabristonlarmiz.

Bolam,
hayron boqarsan, peshonam ajiniga,
Bir vaqt men ham bola edim — sening yoshingda.
Yillar o‘tdi, o‘ldi-ketdi u bola,
Ko‘mdim u bolani peshonamning tirishiga.

U bolaga hech kim aza tutmadi,
Tug‘gan onam ham hech yig‘lamadi,
Hech o‘zim ham yig‘lamadim, o‘zim ham —
Hech bilmadim,
u bolaning qo‘li qachon
tushib qoldi qo‘limdan,
u bolaning yuzi qachon
yitdi-bitdi yuzimda.

Bolam, zolim ajal bu yon chopguncha,
Kelib bizni bu dunyodan topguncha,
Ismimizni bilgunicha
olamning qabrtoshlari,
Umrimiz cho‘zilguncha cho‘ziladi,
Ortadi peshonamizning ajinlari,
Peshonamizda
yangi-yangi qabrlar qaziladi.

Taqdir otib o‘ynar
bizni somon cho‘pidek,
Oylar, yillar
guruh-guruh o‘tadi ustimizdan,
Qo‘limizdan
qancha qo‘l uzilib tushadi,
Qancha-qancha yuzlar
tushib ketadi yuzimizdan.

O‘zimizni
qancha aldab ovutsak, foydasizdir.
Yuzimizni,
qo‘limizni tutsak, foydasizdir.
Foydasi yo‘q, go‘zalmisan yo xunuk —
Tug‘ilgandan o‘lguncha
oylar, yillar yuzingni
Qismat yozib-chizib, qoralaguncha
hammaning yuz-ko‘zini,
Yuzimiz ham varoq-varoq yirtilar.

Tunlar boqib biz termulgan ko‘zgular
bu kun tanimaydi bizni.
Yaxshiyamki, bu dunyoda biz
hali tanib olayapmiz har kun, ilohim,
tanib olayapmiz bir-birimizni.

Yaxshiyamki, o‘zimizni
tanib olayapmiz, shukur,
Ko‘zgularda yuzimizni
tanib olayapmiz, shukur.
Hali oqarganmas qora sochimiz,
peshonamiz tirishib qat-qat bo‘lmadi,
Hali peshonamiz tirishlaridan
ko‘zgular charsillab qars-qurs sinmadi.

Hali botmaganmiz ming-ming gunohga —
Bolam, vaqti keldi,

bu dunyodan ketaylik,
bir go‘zal yuz bilan ketaylik
Allohning dargohiga…

Eshik ochilishi bilan miltiq otildi.

Eshikni ochgan odamni sen ko‘rmading, bolam. U odam kim edi?!

Balkim, qo‘shni bolalardan biri edi, seni o‘ynamoqqa chaqirib kelgandi.

Balkim, Chimnoz muallima edi, yana sizlarnikiga kelgandi.

Ehtimol, eshikni ochgan otang edi.

… mening bolam, balkim, u eshikni ochgan MEN edim…

MUNDARIJA

So‘zidan qon hidi kelgan shoirning og‘zidan sut hidi kelar, bilaman... *(Karim Bahriyev)* 3

SOBIR RUSTAMXONLI

Tohir Qahhor tarjimalari:

Tog‘lar 8
Sorbon 9
Saqlasin 10
Qismatim 11
Oti go‘zal 12
Mikoil baxshi 13
Chidolmayman 14
So‘zing qoldimi? 15
Sinma 16
Xalil Rizo 17
Topshir meni 19
Boqa olmadik 20

Karim Bahriyev tarjimalari:

Tug‘ilgan kunim 21
So‘nggi salomim 23
Sen ham so‘ndir shu’lani 24
Tomon 25
“Ma’sum tabassum-la...” 26
Bitsin 27
Kuygan hid 28
U tuproq bizlarni keltirmagaydir 30
Yo‘l tugaganda... 32
Yukimiz ortgancha... 33
Qiyomat 34
Bizlar bajardik 36
“Ko‘cha-bozor bir yonda...” 37
“Xalqning so‘ng nonini...” 38
“Bu so‘ngsiz jaholatdan...” 39
Yo‘l yurarman 40
Eski hamkasbim Arslonning xotirasiga 41
Abadiy savdo 43
Tobut ko‘tarmoqdan 45
Yana qishloq yo‘lida 46
Ey, g‘urbatning tog‘lari 48
Qo‘li binafshali xotin 50
Boshlang‘ich 51
She’rning mozori 52
Savol 54
Inson 55
Tilimga kelmasdan qaridi so‘zim 56
Yurak o‘rnida 57
Saodat 58
Sening ko‘zlaring ila... 59
O‘zing bil 60
Bolalik 61
Ming yillar... 62
Millatdan ayrilsin 63
Qalamga 65
Ona yig‘lamasin 66
Bitmas yo‘lchilik 67
“Otilib oh kabi bir kun...” 70
Bir go‘zal qor yog‘ar 71
Men sen bilan 72
Kurash tugamadi hali 73
Oqsoqollik iddaosi 84
“Umrim xazon fasli...” 86

Halol odam 88
Qorabog'ga qaytish 89
Yo'lusti suhbati 116
"...Bu so'zlar yozilganda..." ...118

RAMIZ RAVSHAN

Karim Bahriyev tarjimalari

Biroz uzun bo'ldi umrim, shekilli... 120
Qadrimni bilmadi bu odam mening... 122
Qora kiygan ayol 124
Shaharning yog'dulari 126
Zerikish 128
Sham 129
Ketganlar qaytar uzoqdan 130
Qornida to'qqiz oy ko'targan ayol 131
Dunyo menga juda tanish 133
Faqat sening yuzing kulsin 134
Zulflaringni yel bosadir 135
Qo'y bo'lmoqlik qiyin ishdir 136
Qurbonliqqa olingan qo'zi 137
Bo'ri 138
Nozik kapalak murdasini talashayotgan qora-qora chumolilar 139
Odam 140
Ayriliq 141
Yo'qlov 144
Bu deraza senikidir 145
Boshi kesik go'zal tut 146
Bo'g'ilar 148
Yig'lama, binafsha momo 149
Dunyo bexos yorug'lansa 151
Hasrat 152
Qarilik 153
Ketsak biz bo'lmagan yerga 155
Kim aytar, uyquda o'lmoq osondir? 156
Ne bor Allohdan yuksakda? 158
Sekin-sekin sevdim seni 159
Vatan 160
G'azal 161
Oh, bu qizning barmoqlari 162
Tobut 163
Shoir va haykal 165
Qo'shilsak 167
Chiqar 168
Demaki, shoirning bor-yo'g'i tildir 169
Sovush 170
Ona 171
Oy yorug'i 172
Yiqilaman 174
O'lim 175
Og'riq 178
Qo'shiqlar 181
Birinchi qo'shiq 181
Ikkinchi qo'shiq 181
Uchinchi qo'shiq 182
To'rtinchi qo'shiq 182
Beshinchi qo'shiq 183

Oltinchi qo‘shiq 183
Yettinchi qo‘shiq 184
Sakkizinchi qo‘shiq..... 184
To‘qqizinchi qo‘shiq 185
O‘ninchi qo‘shiq 185
Devor..... 186
Kim bilsin..... 187
Bulut..... 189
Bu uyning odami..... 192
So‘z 194
Osmon tosh saqlamas..... 195
Dardimni suvga aytdim..... 197
Bir martalik ko‘chib keldim.. 198
Yulduzli osmonlar
ostidan o‘tdim 199
Ketmadim..... 200
Oyog‘im 201
Yaproq..... 202
Ilon bolasi..... 203
Bu menman,
bu — uch bolam,..... 205
Qarg‘ish..... 206
Dunyo..... 207
O‘zimni seva olmasman..... 208
O‘lim sharpasi..... 210
Shukur..... 212
Telba-teskari qo‘shiq..... 213
So‘ng nafas..... 214
Men bir changman,
to‘zonman 215
Sut tishining og‘rig‘i *(doston)* ..217
Kimni?! 236

S 74 Sobir Rustamxonli. Ramiz Ravshan [Matn]: nazm/to'plovchi K. Bahriyev. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 248 b.
ISBN 978-9943-8733-6-0

UO'K 821.512.162-1
KBK 84(5Ozar)-5



SOBIR RUSTAMXONLI

RAMIZ RAVSHAN

69-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Lola Fattoyeva*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Munisa Ismoilova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 15,5. Nashriyot-hisob tabog'i 11,0.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 136-1/22 Buyurtma raqami № 22-352

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SOBIR RUSTAMXONLI
RAMIZ RAVSHAN